



**O'ZBEKISTON QAHRAMONI SUYIMA G'ANIYEVA
XOTIRASIGA BAG'ISHLANGAN AN'ANAVIY
«NAVOIYSHUNOSLAR»
V ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'PLAMI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI SUYIMA G‘ANIYEVA XOTIRASIGA
BAG‘ISHLANGAN “YOSH NAVOIYSHUNOSLAR” VI ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MAQOLALAR TO‘PLAMI

Toshkent – 2026

“Yosh navoiyshunoslar”: maqolalar to‘plami. Mas’ul muharrir G.Rixsiyeva, - Toshkent: TDSU, 2026. – 167 b.

Ushbu to‘plamda 2025-yil Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tashkillashtirilgan «Yosh navoiyshunoslar» mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari jamlangan. To‘plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi ahamiyati: shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, shuningdek, Navoiy asarlarini o‘qitish muammolari haqida so‘z yuritiladi. Kitob yetishib kelayotgan yosh navoiyshunoslarning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvurni o‘zida jamlagani bilan ahamiyatga ega. To‘plam filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavrlar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

Gulchehra Rixsiyeva, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay’ati:

To‘xliyev Boqijon, filologiya fanlari doktori, professor
Qudratulla Omonov, filologiya fanlari doktori, professor
Rixsitilla Alimuxamedov, filologiya fanlari doktori, dotsent
Maryam Ishmuhamedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Oysara Madaliyeva, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, katta ilmiy xodim
Shirin Sodiqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Qosimjon Sodiqov, filologiya fanlari doktori, professor
Aftondil Erkinov, filologiya fanlari doktori, professor

Nashrga tayyorlovchilar:

Oysara Madaliyeva, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, katta ilmiy xodim
Shahnoza To‘laganova, filologiya fanlari bo‘yicha PhD

XORIJLIKLAR UCHUN O‘ZBEK TILI DARSLARIDA ALISHER NAVOIY IJODI BILAN TANISHTIRISH MASALASI

Shirin SADIKOVA

TDSHU dotsenti, f.f.n.

Til bu – nafaqat aloqa vositasi, balki millatning ma’naviy xazinasini, tarixiy yodgorligidir. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatishda faqat grammatik qoidalarni emas, balki shu til vositasida yaratilgan boy adabiy-ma’naviy merosni ham yetkazish zarur. Bu borada Alisher Navoiy ijodi bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat o‘zbek adabiy tilining asoschisi, balki buyuk mutafakkir, komil inson timsolini tarannum etuvchi shoir sifatida xorijlik talabalar uchun ham qiziqarli, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega obrazdir.

- Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatishda madaniy komponentning o‘rni.

- Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi va milliy qadriyatlar timsoli.

- Til va madaniyat uzviy bog‘liqligi: til o‘rganish – bu madaniyatni o‘zlashtirish hamdir.

Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan so‘z boyligi, poetik ifodalar, maqollar, aforizmlar xorijlik talabalar uchun til o‘rganishda katta foyda keltiradi. Uning g‘azallarida ishlatilgan so‘zlar ko‘pincha qadimiy, ammo zamonaviy o‘zbek tilida ham tushunarli. Bu orqali o‘quvchi tilning tarixiy qatlamlarini his qilishi mumkin.

O‘zbek adabiy tili mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshlagan bo‘lib, shu davrdan to hozirgi kungacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy” kabi nodir asarlar, shuningdek Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono Lutfiy kabi adiblarning boy ilmiy-adabiy merosi til taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ochib berishda Alisher Navoiyning xizmatlari alohida e’tiborga loyiqdir.

Buyuk soʻz sanʼatkori Alisher Navoiy oʻzining soʻz va nutq, til va jamiyat haqidagi teran fikrlari bilan ajralib turadi. U asarlarining deyarli barchasida, xususan, “Xamsa” dostonlari, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lugʻatayn”, “Nazm ul-javohir” va boshqa koʻplab asarlarida soʻzning qudrati va nutq mahoratining kuchi haqida betakror mulohazalar bildirgan. “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida soʻzni durga qiyoslab, quyidagi goʻzal tasvirni keltiradi: agar dur oʻz makoni — dengiz tubida harakatsiz holatda yotsa, uning goʻzalligi gʻavvos tomonidan yoruq yuzaga chiqarilgandagina namoyon boʻladi; xuddi shuningdek, soʻz ham oʻz tabiiy makoni — koʻngil tubida yashirinadi, uni yuzaga olib chiqish esa notiqning mahoratiga bogʻliqdir. Bu holatda soʻzning jilvasi, uning goʻzalligi va taʼsiri notiqning u bilan qanday muomala qilishiga, yaʼni uni qanday ohangda, qanday uslubda ifoda etishiga qarab baholanadi.

Shunday qilib, soʻz inson qalbi tubidagi bebaho javhar boʻlib, u notiq tomonidan nutqiy harakatga keltirilgandagina oʻzining asl goʻzalligini koʻrsatadi. Bu esa Navoiy tafakkurida soʻzga nisbatan nihoyatda nozik, estetik va falsafiy yondashuv borligini koʻrsatadi.

Alisher Navoiy ijodining oʻzbek tilini oʻrgatishdagi ahamiyati:

- Navoiy asarlaridagi sof oʻzbekcha leksika va iboralarning til oʻrgatishdagi roli.
- Falsafiy, axloqiy, didaktik mazmunlar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish.
- Qadimiy sheʼriy shakllar (gazal, ruboiy) orqali oʻzbek poeziyasini tushunishga yoʻl ochish.

Darslarda Navoiy asarlaridan foydalanish usullari:

- Soddalashtirilgan matnlar asosida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etish.
- Lugʻat boyligini oshirish uchun sheʼriy parchalarni tahlil qilish.
- Dialog va dramatizatsiya vositasida ijodiy yondashuv.

Axloqiy-tarbiyaviy mazmun

*Har kimki, balo keltirur olam aro birla,
Ul kimsa saodatni kelturmayi, keltur.*

Tahlil: Bu baytda Navoiy insondan jamiyatga foyda keltirishni, zarar yetkazmaslikni talab qiladi. Bu jumla xorijliklarga “ijobiy inson bo‘lish” tushunchasini til va madaniyat orqali o‘rgatadi. Darsda ushbu bayt asosida lug‘aviy tahlil (balo, saodat, kelturmoq) va munozara tashkil etilishi mumkin: *"Inson qanday fazilatlarini bilan jamiyatga foyda keltiradi?"*

Ilm va komillik haqida

Har kimki birovni qilur ranj,

Anga ranj yetar oxiri anj.

Tahlil: Bu baytda shoir "boshqalarga yomonlik qilgan kishi, oxir-oqibat o‘zi ham ranj topadi" degan g‘oyani ilgari suradi. Bu bayt xorijlik talabalar bilan “Yaxshilik va yomonlik”, “Karma” tushunchasi orqali muhokama qilish uchun qulaydir.

Yaxshi bo‘l – yomon o‘z yo‘lini topadi.

Ilm va ma‘rifat haqida

Ilm birla amal g‘araz ichra bo‘lsa,

Bo‘lur har biri zulmat ichra chiroq.

Tahlil: Ilm faqat o‘z manfaat uchun emas, insoniyatga foyda keltirish uchun bo‘lishi kerak. Bu bayt orqali xorijlik talabalar bilan “ilmlilik va ma‘naviyat” haqida suhbat tashkil etish, “chiroq” metaforasi orqali so‘z boyligini kengaytirish mumkin.

Alisher Navoiy tilni doimiy ravishda rivojlanib boruvchi, jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchi zaruriyat sifatida anglagan va tillar o‘zaro aloqada bo‘lib, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi, deb hisoblagan. U kishining nutq qobiliyati tug‘ma bo‘lishini ta’kidlaydi. "Muhokamat ul-lug‘atayn" asarida arab tili “kalomi ilohiy” sifatida ulug‘lanadi, fors va turkiy tillar esa har tomonlama tahlil qilinadi. Asarda bu ikki tilning lug‘aviy boyligi, so‘z yasalishi, fonetik tarkibi va uslubiy xususiyatlari solishtirilib, turkiy tilning badiiy imkoniyatlari jihatidan fors tilidan kam emasligi ilmiy dalillar bilan asoslab beriladi. Hatto, fors tilida ekvivalenti bo‘lmagan ba’zi o‘zbekcha so‘zlar misol sifatida keltiriladi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga ega, balki u o‘zbek tilshunosligining nazariy muammolarini hal etishda, o‘zbek tilining boshqa tillar orasidagi o‘rnini aniqlashda, shu bilan birga o‘zbek nutq madaniyatini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Navoiy o‘z asarlarida o‘zbek tilining leksik boyliklari, sinonim va omonimlari, xalqona iboralar, maqol va matallar, frazeologik hamda idiomatik birikmalar, shuningdek, murakkab jumla tuzilmalaridan keng foydalangan.

Shoirning til va nutq madaniyatiga oid qarashlari ayniqsa “Mahbub ul-qulub” asarida yanada mukammal ifoda etilgan. Unda tilning jamiyatdagi o‘rni, undan oqilona foydalanish, nutq orqali inson tafakkurini to‘g‘ri ifoda etish lozimligi haqida chuqur fikrlar bayon etilgan. Navoiy til deganda, avvalo, inson nutqini nazarda tutgan. U so‘zning ko‘plab fazilatlarga ega bo‘lib, nutq uchun material ekanini, lekin noto‘g‘ri, qo‘pol nutq so‘zlovchining o‘ziga zarar yetkazishini ta’kidlaydi.

Shoir mayin, shirali, yoqimli so‘zlash odobi haqida fikr bildirarkan, shunday deydi: “Tildin azubat dildisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig‘liqqa evruldi, zarari oni bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarga nushdir. So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa, tilga surma.”

Bu jumlalarda Navoiy tilning shirali, yumshoq va yoqimli bo‘lishi foydali ekanini, aksincha, bunday so‘zning achchiq nutqqa aylanishi esa zarar keltirishini uqtiradi. Shuningdek, u har qanday so‘zni avval tafakkurda pishitib, keyin nutqqa kiritish kerakligini uqtiradi.

Darsda qo‘llash shakllari:

- O‘qish va tarjima mashqlari: soddalashtirilgan g‘azallar matni asosida.
- Ijodiy topshiriqlar: “Sizga eng yoqqan baytni tanlang va uni hozirgi zamon yoshlariga qanday tushuntirasiz?” tarzida topshiriqlar.
- Dramsahna va dialoglar: Navoiy g‘azallari asosida kichik sahna ko‘rinishlari.
- Lug‘aviy ishlar: so‘z tanlash, sinonimlar, antonimlar, qadimiy so‘zlar ustida ishlash.

Integratsiyalashgan yondashuv:

- Tarix, madaniyat, adabiyot fanlari bilan uyg'unlashtirilgan til darslari.
- Multimediami vositalar yordamida (audiokitob, videodars, infografika) taqdimotlar.

- Tanlovlar, insholar, tarjima mashqlari orqali ijodiy fikrlashni shakllantirish.

Xorijiy auditoriyaga o'zbek tilini o'rgatishda Alisher Navoiy ijodidan foydalanish nafaqat til o'rganishga, balki madaniy idrok, axloqiy tarbiya, estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv darslarni mazmunli, madaniy jihatdan boy va qiziqarli qilish imkonini beradi. Navoiy g'azallarining ta'limiy, axloqiy va badiiy kuchi – o'zbek tilining mohiyatini chuqurroq his qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Садикова, Ш., & Рахматжонова, К. Изучение категории согласия в хинди и узбекском языках. *Мояк Востока* (3), 78-86. 2020.

2. Sadikova Sh.B. Xorijliklar uchun o'zbek tili. *Boshlang'ich kurs*. TDSHU, 2021.

3. Sadykova Sh.B., Tuychibaeva, Sh.Sh. К методике преподавания русского языка в группах с узбекским языком обучения (на примере предложно-падежной системы). *Theoretical & Applied Science*, (11), 189-192. 2019.

4. Sadikova Sh. B. The impact of the images of Navoi's works on Uzbek poetry. In international scientific-online conference: intellectual education (pp.47-52). 2022.

5. Bakhtiyorovna S.S. The Method of syntactic-stylistic expression of respectful speech in the Uzbek Language. *Журнал IJESC*, 6, 28094-28095. 2021.

6. Baxtiyarovna S. S. (2021). Alisher Navoiy ijodida ta'lim-tarbiya va do'stlik masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 94-97.

7. Sadikova Sh. B. Concepts of Respect Category and Respect Speech in Uzbek Language. *International journal of trend in scientific research and development e-ISSN*, 2456-6470.

8. Bakhtiyorovna Sh. S. Art of the chapter dedicated to the heritage of Alisher Navoi in the epic "Khamsa". *Журнал Хазарм маъмун академияси ахборотномаси. Хива*, 5, 86-88.

ҲИРОТ МАДАНИЙ МУҲИТИ ҲАҚИДА Е.БЕРТЕЛЬС ВА

В.БАРТОЛЬДНИНГ ҚАРАШЛАРИ

Элмира ҲАЗРАТҚУЛОВА,

ЎзФА Темурийлар тарихи давлат

музейи илмий ходими, PhD

Рус шарқшунослигининг тараққий этишида дастлаб Казан университетида (1804й) ташкил топган шарқшунослик факультетининг ўрни катта бўлган. Кейинчалик шу факультетнинг етакчи профессор-ўқитувчиларидан бири Казим Бек (Александр Касимович) саъй-ҳаракатларига кўра, бу факультетни Санкт-Петербург университети билан бирлаштириб юбориш, йиғилган қўлёзмаларнинг ҳаммасини кўчириб ўтказдириш ҳақидаги ташаббус қўллаб қувватланди. Шундай қилиб, 1854 йилдан бошлаб шарқшунослик факультети Санкт-Петербург қироллик университети таркибида фаолият юрита бошлади. Империянинг сиёсий мақсадларига хизмат қилиши назарда тутилган шарқшунослик соҳаси тезликда ривожланиб, ўзининг назарий хулосаларини эълон қила бошлади. Бу соҳанинг диққат марказида нафақат мустамлака таркибидаги мамлакатларнинг тарихини тадқиқ этиш, шу билан бирга уларнинг адабиёти орқали ҳам маълумотларни жамлаш, хулосалар чиқариш назарда тутилган эди. Мана шу мақсадлардан келиб чиққан ҳолда, Туркистон тарихи сифатида Мовароуннаҳр, Хуросон, Форс ҳудудларининг адабиётлари ўрганила бошланди.

Табиийки, бу ҳудуд аҳолисининг турк, форс каби тилларда сўзлашиши ва ижод қилиши, шунингдек, араб манбаларининг адабиётга таъсири масаласи ҳам яхлит тарзда ўрганилаверган. Бунга замин ҳозирлаган омил шундай эдики, университетда форс, араб, туркий тилларнинг барчаси пухта ўргатилар, шу боис қўлёзма манбалар ўқирилишида ҳам пайдо бўлиши мумкин бўлган мушкулликлар бартараф этиларди. Ўз ўрнида таъкидлаш лозимки, рус шарқшунослиги қўлга киритган ютуқлар бугунги кунда ҳам шарқшуно олимлар муҳим маълумотлардан бири сифатида хизмат қилиб келмоқда.

Рус шарқшунослари ўрганган мавзулар доирасида темурийлар даври адабий муҳити мавзуси алоҳида ўрин эгаллайди. Мавзу доирасида, бирламчи адабий фигура сўнгги темурийлар муҳити вакили Навоий саналади.

Бу сиймони ўрганиш асносида илмий жамоатчилик томонидан икки рус шарқшунос олими В.Бартольд (1869-1930) ва Е.Бертельснинг (1890-1957) мулоҳазалари кўп эътибор билан тилга олинади. Ҳақиқатдан ҳам бу икки йирик рус шарқшунос олими бир неча муддат Тошкент ва Самарқанд шаҳарларида яшаб, ўз илмий фаолиятларини олиб боришган ҳамда тўғридан-тўғри бирламчи қўлёзма манбалар билан ишлаш имконига эга бўлишган.

В.Бартольд ўзининг “Мир Алишер ва сиёсий ҳаёт”¹ номли тадқиқотида Алишер Навоийнинг сиёсий фаолиятини тадқиқ этишга киришар экан, аввало, темурийлар сулоласининг шавкатли йиллари, Амир Темур олиб борган сиёсат, сўнгги темурийларнинг инқирозли йиллари ҳақидаги жараёнларга безвосита тўхталиб ўтади. Мавзуга бу жиҳатдан ёндашиш тадқиқотчининг ўз олдига қўйган мақсадини тугал ва аниқ ифодалашда муҳим аҳамият касб этган эди.

Мавзу доирасида Султон Ҳусайн мирзо ва Алишер Навоийнинг ҳомийлиги ва раҳнамолиги туфайли равнақ топган Ҳирот шаҳрининг шавкати ҳақида ўз мулоҳазаларини билдириб ўтади. Бу орқали у Султон Ҳусайн Мирзо даврида машҳурлашган Хуросон, хусусан, Ҳиротнинг жозибаси, у ерда бунёд қилинган маданий муҳитнинг илдизларига ҳам чуқурроқ кирмоқчи бўлади.

В.Бартольд тадқиқотининг дастлабки бўлими «Форслар ва туркийлар» деб номланади. Иккинчи фасл эса «Ҳирот ва унинг аҳамияти» аталиб, бу фаслда муаллиф Амир Темур давридаги Ҳирот шаҳрининг нуфузини кейинги давр юксалган мақомидан анча фарқ қилишини таъкидлайди: *“Маълумки, Темур Самарқанд атрофида қишлоқлар барпо этиб, уларга Султония, Шероз, Бағдод, Дамашқ, Миср (Қоҳира) номларини берган, бу билан у Самарқанднинг бошқа барча шаҳарлардан устунлигини яққол кўрсатмоқчи бўлган. Бу шаҳарлар қаторига Ҳирот номи кирмади. Темур яқин келажакда*

¹ Бартольд В. В. Мир-Али-Шир и политическая жизнь / В.В. Бартольда. — Б. и., 1928. — 100-164 с

*айнан шу шаҳар Самарқанднинг ҳатто сиёсий жиҳатдан ҳам бахтли рақибига айланишини олдиндан билмас эди.*².

Дарҳақиқат, темурийлар даврининг ривожланган шаҳарлари каторида Ҳиротнинг гуллаб-яшнаши айнан Амир Темури даврига эмас, унинг ворислари ҳукмронлиги даврига тўғри келади, жумладан, унинг ўғли Шохрух мирзонинг бошқарув йилларидаги ислохотлари туфайли Хуросон ўлкаси ободон юртга айланган эди.

Е. Бертельс ҳам ўзининг «Навоий»³ монографиясини яратган чоғида Хуросон, шу жумладан, пойтахт Ҳиротнинг салобатига ўзига хос тарзда тўхталиб ўтган. Олим илгарироқ ёзилган бошқа салмоқли тадқиқотлар орасидан В.Бартольднинг «Мир Алишер ва сиёсий ҳаёт» номли мақоласини эътибор билан тилга олади. Мазкур мақола 1928 йилда Россия Фанлар академияси томонидан chop этилган «Мир Алишер» номли тўпламга (тўпламга В.Бартольднинг ўзи муҳаррирлик қилган) киритилган эди. Е.Бертельс гарчанд мақоладаги баъзи бир масалаларга ҳамфикр бўлмаса-да, ҳамкасбининг бу мақоласини «тўпламнинг гултожи бўлган»⁴ дея баҳолайди

Е.Бертельснинг тадқиқот тажрибаси учун В.Бартольднинг мақоласи аҳамиятига кўра кўп диққатни ва мурожаатни талаб қиладиган манбалардан бири эди. Лекин у В.Бартольднинг эътибор қаратган масалаларидан фарқли равишда Алишер Навоийнинг биографияси билан бирга унинг ижодий фаолиятини ўрганишга кўп куч сарфлади. Монографиясининг дастлабки саҳифаларини В.Бартольддан фарқли равишда қуйидагича номлади: биринчи фасл – Темурийлар, иккинчи фасл – Ҳирот, учинчи фасл – Самарқанд.

Масалага киришишдан олдин, Е.Бертельс танишган тарихий манбаларнинг кенг қамровли экани кўринади. У В. Бартольддан фарқли равишда Ҳиротнинг Шохрух давридаги тарихий харитасини тасвирлашга ҳаракат

² Бартольд В.В.Сочинения.Том II . часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М.:Наука. 1964. С. 206. Кейинги иқтибослар шу нашрдан берилади.

³ Қаранг: Навои. Опыт творческой биографии, М., 1948 г. – Ср.стр. 15-209.изд; **Бертельс Е.Э.** Навоий. Монография.тарж И.Мирзаев. – Т.: «Tafakkur qanoti», 2015. – 465 бет. Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан берилади.

⁴ Ўша манба. Е.Бертельс. Навоий. – Б.99.

килади. Бу харитада, биринчи навбатда, шаҳар марказидаги қайта тиклаш ишлари, бозор расталарининг жойлашуви, умумий сатҳ майдонига тегишли ҳудудлар санаб ўтилган. Шунингдек, у шаҳар ҳудудида Амир Темури давридаги анъаналарга кўра сарой ва боғларнинг барпо этилиши, мадраса ва хонақоҳларнинг қурилиши ҳақидаги маълумотларга эътибор қаратади. Булардан Шохрух мирзонинг ўзи Боғи Зоғон атрофида яшаб, ўғли Бойсунғур учун Боғи Сафед атрофидан ҳашаматли сарой қурдиртиргани ҳақида сўзлар экан, Алишер Навоийнинг бу боғлар ҳақида гапира туриб, бутун Хуросонда истироҳат учун бундан мафтункорроқ жой бўлмагани⁵ ҳақидаги фикрини эслатиб ўтади.

Е. Бертельс диққат қаратган масалалардан яна бири шаҳар маданий муҳитида диний уламоаларнинг мавқеи масаласи бўлиб, у Шохрух мирзонинг художўйлиги туфайли унга нисбатан эҳтиромнинг баланд бўлганини эслатиб ўтади. Лекин бу пайтда икки пойтахт – Ҳирот ва Самарқанд шаҳарлари ўртасидаги маданий муҳитларнинг В.Бартольд томонидан бири-бирига нисбатан зид қўйилишини нотўғри деб ҳисоблайди ва шарқшунос олим А.Якубовскийнинг мулоҳазаларини қўллаб қувватлайди. Бу борада А. Якубовский ҳам Бартольднинг икки шаҳар маданиятлари ўртасига зиддият қўйишига нисбатан шундай фикр билдирган эди: *«В.В.Бартольднинг Улугбек ҳақидаги китоби кўп фазилятларга эга бўлса-да, баъзи камчиликларни ҳам ўз ичига олади. В.В. Бартольд Самарқанднинг қувноқ сарой ҳаёти, унинг базмлари, овлари, мусиқаси, рақслари, ригоризми ва Ҳиротдаги Шохрух саройининг намоёншкорона художўйлигига қарши қўйишига берилди ва бу қизиқиш воқеликни тасвирлашда биров бузилишига олиб келди. Шохрух давридаги Ҳиротни етарли даражада билмаган одам темурийларнинг иккинчи пойтахтидаги маданий ҳаёт ҳеч қандай қизиқарли эмаслигини ва Самарқанддан фарқли ўлароқ, Ҳирот зулмат маркази бўлганини ўйлаши мумкин. Бундай таассурот ўқувчида у тасвирлаган манзаранинг бир*

⁵ Ўша манба. Е.Бертельс. Навоий. – Б.21.

томонламалиги нуқтаи назаридан пайдо бўлиши мумкин.»⁶ Ҳамда А.Якубовский Бойсунқур мирзо ҳомийлигида хаттотлик санъатининг ривожлангани, Фирдавсий «Шоҳнома»сининг танқидий матни тузилгани ва бу қўлёзманинг ажойиб миниатюралар билан безатилган нусхалари (1430 йилдаги нусхаси, ҳозирда Техрон музейида) 1931 йилда Лондонда бўлиб ўтган Эрон санъати бўйича 2-халқаро конгресс кўргазмаси, 3-халқаро конгресс кўргазмасида намоиш этилганини таъкидлаб ўтади. Е.Бертельс ҳам А. Якубовскийнинг нуқтаи назарини қўллаб қувватлаган ҳолда, Шоҳрух оиласидаги диний ақида ҳукмронлиги, маданий ҳаёт тараққий этишига тўсқинлик қилмаганига урғу беради: *«Агар Шоҳрух ўз оиласида ислом ақидаларига сўзсиз амал қилишни талаб қилган бўлса ҳам, маиший-маданий ташаббускорлик унга бегона эмасди. Масалан, унинг кўрсатмасига биноан Бойсунқур Ҳиротда гўзал кутубхона барпо этди. Унинг қошида хаттотлар, мусаввир-миниатюрачилар, зарҳалчилар, муқовасоз усталар олимлар, тил ва адабиёт билимдонлари бошчилигида фаолият кўрсатганлар».*⁷

В.Бартольд томонидан эътибор қилинган Амир Темур томонидан Самарқанд атрофидаги қишлоқларга машҳур шаҳарлар номи берилиши ҳақидаги тафсилотга Е. Бертельс ҳам ўз муносабатини билдириб ўтади: *«Шаҳар атрофида қишлоқлар барпо этилган. Темур уларга Бағдод, Дамашқ, Қоҳира, Султония, Шероз каби машҳур шаҳарлар номини берган. Бу билан у Шарқ пойтахтлари ўзининг шаҳри олдида фақат қишлоқ эканлигини кўрсатмоқчи ҳам бўлган. Темур ҳукмронлиги даврида Самарқандга таширф буюрган Испания элчиси Клавихо бу шаҳарнинг гўзаллиги ва бойлигидан, унинг бозорида ҳукм сурган тетик руҳдан лол қолган.»*⁸ Юқорида кўриб ўтганимиз, В.Бартольднинг муносабатида Ҳирот номи ҳали бу қадар машҳурлашмагани ва бу шаҳарлар қаторига қўшилмаганига эътибор қаратилган бўлса, Е.

⁶ Алишер Навоӣ : сборник статей / ; Академия наук СССР ; Институт востоковедения... – Москва : Ленинград : Изд-во АН СССР, 1946. – С. 20.

⁷ Ўша манба. Е. Бертельс. Навоӣй. -Б. 22.

⁸ Ўша манба. Е. Бертельс. Навоӣй. – Б.27.

Бертельс эса Амир Темур Самарқанднинг шукуҳини оширишга бўлган ҳаракатга диққат қаратади.

В.В. Бартольд эса Амир Темур давридаги Ҳирот билан Шохрух давридаги маданий ҳаёт даражасини қуйидагича баҳолайди: *“Шохрух авлодлари ва ворислари ўртасидаги нотинчликларга қарамай, Шохрух яратган Ҳиротнинг сиёсий жозибаси Темур яратган Ҳирот жозибасидан ҳам мустаҳкамроқ бўлиб чиқди”*⁹.

Ҳиротга хос ёрқин обрўнинг Алишер Навоий вафотидан кейинги сўниш даври ҳақида В.Бартольд ўз тадқиқотининг *“Мир Алишер ҳаётининг сўнгги йиллари (1494-1501)”* бўлимида шундай дейди: *“Султон Ҳусайн ва унинг пойтахти Мир Алишердан узоқ яшамади... Султон Ҳусайн вафотидан кейин бир-бирини ёмон кўрадиган икки шаҳзода – Бадиуззамон ва Музаффар Ҳусайнни бир вақтнинг ўзида подшоҳ деб эълон қилган подшоҳ амалдорларининг телбалиги Бобур таъкидлаганидек, ўзбекларнинг галабасини енгиллаштирди. 1507 йилда Ҳирот ўзбеклар қўлида эди; теурийлар маданиятининг марказида Бобурнинг таъбири билан айтганда, “дунё кўрмаган қишлоқлар” ҳукм суларди.”*¹⁰

Тадқиқоти якунида В.Бартольднинг қутилмаган Ҳирот маданий муҳити таназзулидан хулоса чиқаришда қутилмаган бир пафос билан тугатиши баҳслидир. Хусусан, у *“инсоният маданиятидаги энг яхши нарсa нобуд бўлмайди, балки кейинги авлодларга, шу жумладан, нафис шаҳар маданиятининг энг яхши ютуқларига ўтади”*, дея таъкидлар экан, Зайниддин Восифийнинг *“Бадоеъ ул-вақоеъ”* асаридан олинган Шайбонийнинг кинояли нутқини ўз маъносидан узоқда тушунади ҳамда бу парчани мақоласининг хулосаси сифатида беришга қарор қилади: *“Шайбонийхонинг ўзи “қуёшдан ҳам равшан ва кечаги кундан ҳам шак-шубҳасиз равшан” ҳақиқатни, пайғамбаримиз (с.а.в) замонидан “бизнинг замонамизгача Султон Ҳусайнчалик билимдон, ақлли ва нозик маълумотли подшоҳ бўлмаганини*

⁹ Ўша манба. Бартольд В.В. С. 209.

¹⁰ Ўша манба. Бартольд В.В. С. 258.

айтади. Бу сўзлар, агар умумий қаралса, Шайбонийхон яхши билмаган Султон Ҳусайн шахсиятигагина эмас, балки унинг сафдошлари бунёд этган, Бобур таърифича, дунёда тенги йўқ Ҳирот шахрининг нозик маданиятига ҳурмат ифодасидир”¹¹.

А. Болдыров кейинчалик мазкур мурожаат қилинган асарнинг танқидий матнини таҳлил қилиб, ўзининг йирик мақоласида В.Бартольднинг синтактик қурилмани хато тушунгани ва жумла нуқтасини ўртасидан қўйиб, ярмини ташлаб кетганини таъкидлаган ҳолда, аслида бу нутқ Султон Ҳусайн шахсиятининг Шайбонийхон томонидан кескин ва ҳатто қўпол қоралашдир, деб баҳолаган ва матнни тугал ҳолда қуйидагича таржима қилади: “Қуёшдан ҳам равшанроқ нарса шуки, пайгамбар замонидан то ҳозирги кунгача султонлик тахтида Султон Ҳусайн каби ақлли ва нозиктаъб шоҳ ўтирмаган бўлса-да, унинг билими ва ақли бундай бузуқ фирибгар Хуросон табақаларининг катта қисмини алдаганидан юқори кўтарилмаган. Султон-Ҳусайннинг бошқа қўпол алдовларига учиб, охирида “бундай алдовларга учган подшоҳ ҳокимият ва имомликка муносиб бўла оладими?” афсуски, мен бу ишлардан илгари хабардор бўлмаганман, агар хабардор бўлганимда эди, ўзимни бу жаннатмакон Хуросон тупроғидан унинг [яъни Султон Ҳусайннинг] фитна ва адолатсизлик уруғларини кўп йиллар олдин юлиб ташлашга бурчли деб ҳисоблаган бўлардим.”¹²

Е.Бертельс эса темурийлар маданиятининг асосан сарой муҳити доирасида кечгани ва бу бунёдкорлик оддий деҳқонлар меҳнати орқасидан рўёбга чиқарганига урғу беради ва ўз монографиясининг “Ҳирот” бўлимини қуйидаги яқунлайди: “Ана шунинг учун бир сиқим кишиларгагина хизмат қилган бу маданият темурийлар билан бирга кетди ва унинг айрим ёдгорликларигина бизнинг кунларимизгача етиб келган”¹³.

¹¹ Ўша манба. Бартольд В.В. С. 259.

¹² Болдырев А.Н. Мемуары Зайн-ад-дина Восифи как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV-XVI веков; / Труды Отдела Востока Государственного Эрмитажа. Т. II, III. Л., 1940. – С. 265.

¹³ Ўша манба. Е. Бертельс. Навоий. – Б.25.

Хулоса қилиб айтганда, рус шарқшунослари В.Бартольд ва Е.Бертельсларнинг Хиротда тараққий этган Навоий даври муҳитининг кўплаб масалаларига киришдан олдин, унинг тарихий илдизларига бўлган қиёсий ёндашувлари ўзининг самарасини берган. В.Бартольднинг “Мир Алишер ва сиёсий ҳаёт” мақоласидан олдин ёзилган “Улуғбек ва унинг даври” тадқиқотидаги тажрибавий қарашлар ва таҳлиллар унга қулайликлар туғдирган.

Е. Бертельснинг Хирот шаҳри маданий муҳитига киришишдан “Авесто” маълумотларидан тортиб, унинг географик харитасигача тиклашга ҳаракат қилгани масалага чуқур академик доирада киришганидан далолатдир. В.Бартольднинг темурийлар даврига оид кўплаб қарашлари баҳсталаб бўлса-да, унинг бирламчи манбалар билан аниқ ишлай олиши кўплаб воқеликларга бўлган муносабатида ўқиғувчини мушоҳадага чорлайди. Е.Бертельс тадқиқотида маданий муҳитни баҳолашида баъзи ўринларда мафкуравий ёндашувлар сезилиб турса-да, ҳар икки шарқшунос олимнинг ушбу тадқиқотлари бугунги кунга қадар энг кўп мурожаат қилинган ишлар қаторидан жой олиб, темурийлар даври маданий муҳит масалаларини ўрганишда ўз аҳамиятини йўқотмасдан келмоқда.

FOYDALINILGAN АДАБИЁТЛАР:

1. Бартольд В. В. Мир-Али-Шир и политическая жизнь. В.В. Бартольда. — Б. И., 1928. — 100-164 с; Бартольд В.В.Сочинения.Том II . часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. — М.,Наука. 1964. С. 661.
2. Бартольд В.В.Сочинения.Том II . часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. — М.: Наука. 1964. С. 206
3. Навои. Опыт творческой биографии, М., 1948 г. — Ср.стр. 15-209.
4. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография.Тарж И.Мирзаев. — Т.: «Tafakkur qanoti», 2015. — 465 бет.
5. Болдырев А.Н. Мемуары Зайн-ад-дина Восифи как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV-XVI веков; / Труды Отдела Востока Государственного Эрмитажа. Т.II, III. Л., 1940. — С. 265.
6. Алишер Навои : сборник статей / ; Академия наук СССР ; Институт востоковедения... — Москва.: Ленинград : Изд-во АН СССР, 1946. — С. 236

ALISHER NAVOIY “BADOYI’ UL-BIDOYA” DEVONINING PARIJ QO’LYOZMASI

Oysara MADALIYEVA,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, TDSHU dotsenti, PhD

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning (1441–1501) o‘zi tarafidan tuzilgan “Badoyi’ ul-bidoya”ning shoir tirikligi chog‘ida ko‘chirilgan eng qadimiy qo‘lyozmasi – Parij nusxasini¹⁴ Fransiya Milliy kutubxonasida¹⁵ saqlanmoqda. Mazkur maqolada ushbu nusxaning kodikologik¹⁶ jihatlari haqida bilib olish mumkin bo‘ladi.

Navoiy lirikasi tarixi, xususan, “Badoyi’ ul-bidoya” devoni va uning qo‘lyozmalari, muallifning ushbu devon uchun yozgan debochasi haqida bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan¹⁷. Sobiq Ittifoq davri navoiyshunosligi

¹⁴ Mir ‘Ali Shir Neva‘i. غرائب الصغر. Précédé, aux folios 2 verso-13 recto, de la Khotba-i davavin, de la préface aux quatre divans, en turc-oriental. décembre 1480. BnF. Supplément turc 746 (Ushbu qo‘lyozmaga FMKning saytida shunday tavsif berilgan: Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. Avvalida – 2b–13a varaqlarda sharqiy turk tilida bitilgan to‘rt devonning so‘zboshisi – “Xutba-yi davovin” mavjud (“Xazoyin ul-maoniy” debochasi nazarda tutilmoqda. 1480-yil, dekabr). E’tibor qilgan bo‘lsangiz, bu yerda ikkita xatoga yo‘l qo‘yilgan. 1. Ushbu devon “G‘aroyib us-sig‘ar”ning emas, “Badoyi’ ul-bidoya”ning qo‘lyozmasi. 2. Qo‘lyozmaning 2b–13a varaqlarini egallagan so‘zboshi “Xazoyin ul-maoniy”ning emas, “Badoyi’ ul-bidoya”ning debochasi hisoblanadi. Buni o‘z davrida prof. H.Sulaymonov isbotlagan, men olimning doktorlik dissertatsiyasi orqali bulardan xabardor edim. Shuningdek, bir necha yil avval ushbu qo‘lyozmaning elektron variantini Dr. Aftondil Erkinov bizga menga edilar. Buning uchun A.Erkinovga minnatdorlik bildiraman. Shu ma’noda, qo‘lyozmaning tarkibi bilan avvaldan tanish ekanligim, bu yerga esa nusxaning kodikologik tadqiqi uchun kelganimni va saytdagi tavsifda xatolar mavjudligini FMKning turkiy qo‘lyozmalar bo‘limi boshlig‘iga ma’lum qildim. U kishi bu haqda hozirda kutubxonaning turkiy qo‘lyozmalar bo‘limi elektron katalogi ustida ish olib borayotgan Dr. Lamine Tamssaoutga yozib berishimni iltimos qildi va shu asosda yaqin fursatlarda saytdagi tavsifga tuzatish kiritilishini ma’lum qildi.

¹⁵ Bibliothèque nationale de France (BnF) – keyingi o‘rinlarda FMK. Biz joriy yil iyul oyida ushbu kutubxonada ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldik. Mazkur maqolaning asosiy qismi safar natijasida yaratildi.

¹⁶ **Kodikologiya – nusxashunoslik** (inglizcha: Codicology, fransuzcha: codicologie; lotincha: codex, genitiv: codicis, “kitob” + yunoncha: lógos — “so‘z, fan”) — fan sohasi bo‘lib, uning predmeti qo‘lyozma kitoblarni o‘rganishdir. Ayni paytda kodikologiyani yordamchi tarixiy fan sifatida tasniflash yoki paleografiya bo‘limi yoki mustaqil kompleks fan sifatida ko‘rib chiqish kerakligi haqida munozaralar davom etmoqda (Batafsil qarang: <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%B4%D0%B8%D0%BA%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F>). Shu o‘rinda, qo‘lyozmalarni kodikologik jihatdan tadqiq etish bo‘yicha talabalik yillari olgan bilimlarimni rivojlantirishda katta yordam berganligi uchun O‘zR FA akademigi t.f.d., prof. D.Yusupova, O‘zR FASHI katta ilmiy xodimi S.G‘ulomov, Professor Francis Richard va Dr. Maria Eftimiouga minnatdorlik bildiraman.

¹⁷ Quyida ulardan ayrimlarini alifbo tartibida taqdim etamiz.

tadqiqotlarida ushbu devonning muallif tirikligida ko‘chirilgan to‘rtta nusxasi (Parij, London, Boku, Toshkent) aniqlangan edi. 1987-yilda “Badoyi’ ul-bidoya”ning nashri mana to‘rt qo‘lyozma asosida amalga oshirilgan edi¹⁸. Keyingi o‘n yillar navoiyshunosligi ham qo‘lyozma manbalarni aniqlash va ularning matni va manbashunosligi yuzasidan yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Xususan, “Badoyi’ ul-bidoya”ning yana to‘rtta qadimiy nusxasi mavjud ekanligini oydinlashtirgan tadqiqot ishlari diqqatga loyiq¹⁹. Ushbu ilmiy ishlardan kelib chiqib, ayni paytda “Badoyi’ ul-bidoya”ning Navoiy ko‘zi ochiqligida kitobat qilingan sakkizta sanali qo‘lyozmasi haqida so‘z yuritish imkoniga egamiz (5-ildovaga qarang). Nazarda tutilayotgan tadqiqotlarga ko‘ra “Badoyi’ ul-bidoya”ning 1480–1491- yillar orasida sakkiz marta qayta kitobat qilingani va bu qo‘lyozmalardan katta ehtimol bilan muallif xabardor bo‘lib, ulardagi tahrir ishlariga o‘zi bosh bo‘lgani haqida fikr yuritish mumkin. Shuningdek, mazkur devonning Navoiy vafotidan keyingi yillarda kitobat qilinganini o‘rtaga chiqarishga qaratilgan tadqiqotlar ham yozilmoqda²⁰.

Muhimi shundaki, shu choqqacha “Badoyi’ ul bidoya” bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan ishlarning ko‘lami keng. Ularning mavzu chegarasi tahlil qilganda, ushbu devon qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifidan tortib, matn transformatsiyasigacha, she’rlarning dunyoviy mazmun-mohiyatidan to tasavvufiy mohiyatigacha ochib berishga qaratilgani borasida so‘z yuritish mumkin. Shu bilan birga masalaning eng jiddiy mohiyatini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Birnbaum E., 1976, XX. – P. 157-190; Eckmann J., 1970. – S. 253-262; Juraboyev O., 2020. – S. 14-27; Levend A., 1958. – S.127-209; Subtelny M., 1993. – P. 90-93; Абдуғафуров А., 1989. № 4. – Б. 3-9; Ali Şîr Nevâyî., 2023. – 1072 s.; Алишер Навоий, 1466. Нашрга тайёрловчи: Х. Сулаймон, 1968; Алишер Навоий, 1471 Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов, 2015; Волин С., 1946. – С. 203-235; Жўрабоев О., 2016. – Б. 32-38; Имомназаров М., 2021. – 207 б.; Имомназаров М., 2017. – Б. 6-10; Имомназаров М., 2022. – 510 б.; Имомназаров М., 2018 –Б. 12-17; Куделин А.Б., 2016, том 75, No4. С. 5-11; Куделин А.Б., 2021, Special Issue 1, pp. 33-41; Мадалиева О., 2021. – 679 б.; Нагиева Ж., 1986. – 136 с.; Рамазонов Н., 2006/1. – Б. 17-23; Рамазонов Н., 2007/1. – Б. 78-89; Салоҳий Д., 2004. – 204 б.; Салоҳий Д., 2006/1. – Б. 74-78; Семенов А., 1935. – 88 с.; Сулейманов Х., 1955-1961. – С. 415; Сирождидинов Ш., Эркинов А., – Б. 8-30; Эркинов А., 2021. – Б. 81-85; Эркинов А., 2022. – Б. 132-158; Ҳайитметов А., 1961. – 294 б.; Ҳакимов М., 1983. – Б. 199.

¹⁸ Алишер Навоий. Текстни тузувчи: Ш.Шарипов, 1987. – 689 б.

¹⁹ Эркинов А., 2018. – Б. 51-57; Турдиалиев А., Эркинов А., 2018 –Б. 57-62; Boltabayev S., 2022. – В. 438-466; Madaliyeva O., 2023. – В. 6-11; Madaliyeva O., 2023. – В. 209-218; Madaliyeva O., 2023. – В. 400-408.

²⁰ Салоҳий Д., 2021. – Б. 53-58; Jo‘raboyev O., №2, 2025. – В. 3-11.

Bu ham bo'lsa bugungi kungacha navoiyshunoslikda ushbu devonning avval ma'lum bo'lgan va yangi aniqlangan nusxalari tarkibining identikligi hamda ushbu qo'lyozmalarning so'nggi temuriylar Hirot kitobat san'ati tarixidagi roli masalalari haqida umumiy manzarani ko'rsatib beruvchi talqiotlar hali yaratilmadi. Shu ma'noda, matnshunoslik va manbashunoslik, kitobat va san'at tarixi nuqtayi nazaridan "Badoyi' ul-bidoya" ustida kompleks tadqiqot yaratish zarurati mavjud deb aytish mumkin.

Mazkur tadqiqotda "Badoyi' ul bidoya" Parij qo'lyozmasining kodikologiyasi xususida yozarkan, yuqoridagi masalalar, xususan, ushbu devonning kitobatiga oid jihatlarni yoritishga harakat qilamiz. Ma'lumki, so'nggi temuriylar davri xat san'ati va shu san'atning yaratuvchilari to'g'risida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan²¹. Shuningdek, umuman islom olami xat san'ati tarixi bilan bog'liq ko'plab risolalarning ilmiy nashrlari amalga oshirilgan²².

Eronlik olimi Sh.Shahidani fors adabiyoti va nasta'liq xatining aloqadorligi haqidagi fikr yuritar ekan: "Adabiyot va kalligrafiyaning o'rtasidagi aloqa keng va chambarchas bog'liqdir. Tarixan shoirlar va xattotlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, she'riyatda xattotlik atamalarining qo'llanishi bir necha asrlarga borib taqaladi", – deb yozadi²³. Bizningcha, turkiy she'riyat va xat san'ati, xususan, nasta'liqning bog'liqligi haqida ham xuddi shu fikrlarni bildirish mumkin.

Fransuz olimi F.Rishard: "O'tmishda kotiblar qanday kitoblarni ko'chirishiga ko'ra farqlangani, kotiblar tayyorlovchi maktablar ularni ko'chiriladigan kitoblarning sohalariga ko'ra tayyorlaganini", – ta'kidlaydi. Olim "She'riy kitoblarni ko'chiruvchi kotiblar yozilajak matnni avval yurakdan his etib, xotiralarida

²¹ Муродов А. 1971; Сулейманов Х., 1956–61; Ҳакимов М., 1991; Акимушкин О.Ф., 2004; Улуч Л., 2021; Мадраимов А. 2021; Shahidani Sh, 2024.

²² Calligraphers and Painters. A Treatise by Qadi Ahmad, son of Mir Munshi (circa A.H. 1015/ A.D. 1606) translated from the Persian by V. Minorskiy. – Washington, 1959. – 223 p.; A Century of Princes. Sources on Timurid History and Art. – Cambridge, Massachussets: The Aga Khan Program for Islamic Architecture, 1989. – 370 p; Schimmel A. Calligraphy and Islamic Culture. – London: I.B. Tauris & Co LTD, 1990. – 264 p.; Акимушкин А.Ф. Средневековый Иран. Культура, история, филология. – Санкт-Петербург: «Наука», 2004. – 392 с;. Mustafa 'Ali's Epic Deeds of Artists. Edited, translated and commented by Esra Akın-Kıvanç. – Leiden * Boston: Brill, 2011. – 310 p.

²³ Shahidani Sh., 2024. – P. 163.

yoʻzishgan, soʻng qogʻozga koʻchirishgan”, – deb hisoblaydi²⁴. Shuning uchun boʻlsa kerak, kotiblar biografiyasini oʻrganar ekanmiz, ularning aksariyati sheʼr mashq qilishgani haqida xabardor boʻlamiz²⁵. Bizningcha, badiiy asarlarni, ayniqsa, poeziyaga tegishli matnlarni koʻchiruvchilarga oʻzlari ham sheʼr yoʻzganlari juda qoʻl kelgan.

“Jomiyning (1414–92) koʻplab dostonlari Mir Ali Tabriziy (1369–1405) va Sultonali Mashhadiy (1432–33–1520) kabi ustoz xattotlar tomonidan nastaʼliq xatida kitobat qilingan boʻlib, sheʼriyat va xattotlik uygʻunligini qadrlagan homiylar orasida katta talabga ega boʻla boshlagan”²⁶. Alisher Navoiy asarlarining Sulton Muhammad Nur (1470–1533), Sulton Muhammad Xandon (vaf. 1551), Ali ibn Nur (vaf. XV a. ikkinchi yarmi), Abduljamil kotib (vaf. 1505–1506), Sultonali Mashhadiy, Darvesh Muhammad Toqiy (vaf. XVI a. birinchi yarmi), Ali Hijroniy (vaf. XVI a. birinchi yarmi), Pirahmad ibn Iskandar (vaf. XVI a. birinchi yarmi) va boshqa nomdor kotiblar tomonidan koʻchirilgan qoʻlyozmalariga ham ushbu taʼrifni berish mumkin.

“Badoyiʼ ul-bidoya”ning barcha qoʻlyozmalari nastaʼliq xatining koʻrkam uslublarida kitobat qilingan. Mazkur kichik tadqiqotga jalb etilgan Parij nusxa xati uslubi mayda nastaʼliqda, yuqori ehtiyotkorlik bilan nihoyatda tartibli qilib koʻchirilgan. Uning kitobati saroy kutubxonasi uchun maxsus koʻchirilgan qoʻlyozmalarining darajasidadir, deb baholash mumkin. Ushbu qoʻlyozma FMKda Supl. turc 746 raqami ostida saqlanmoqda. Uning tarkibidan “Badoyiʼ ul-bidoya” debochasi (2b–13a) va devonning oʻzini (14b–231a) koʻrish mumkin. Qoʻlyozmaning oʻlchami: 25x18 sm. Matnning oʻlchami: 16x11 sm.

Qoʻlyozmaning muqovasi jigarrang, u kartondan ishlanib, ustiga charm qoplangan. Muqovaga shamsa va lola tasviri tushirilgan, toʻrt tevaragiga ornament ishlangan. Ushbu bezaklar zarhal fonda boʻlib, ularda asosan islamiy naqshlar aks

²⁴ Ushbu iqtibos professor Frensis Richardning quyidagi seminarda bergan maʼruzasidan olingan. 2025-yil 29-aprel kuni Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida Madaniy meros agentligi huzuridagi Samarqand davlat muzey-qoʻriqxonasi bilan hamkorlikda “Oʻrta Osiyo qoʻlyozmalari kodikologiyasi elementlari” mavzusida seminar-trening ish boshladi. Unda Fransiyadagi “College de Franse” doktori Mariya Eftimiyu, Fransiya Milliy ilmiy-tadqiqotlar markazi professori Frensis Richard.

²⁵ Қаранг: Муродов А. 1971. – Б. 57-58; Ҳакимов М., 1991. – Б. 12-13.

²⁶ Shahidani Sh., 2024. – P. 163.

etgan. Shuningdek, shamsaning markazida qush tasviri tushirilgan. Bu tasvir Eron muqovasozlik maktabi uslubini eslatadi. Shuning uchun, qo‘lyozmaning muqovasi asl bo‘lmay, keyinchalik unga qayta muqova ishlangan deb taxmin qilish mumkin.

Qo‘lyozmani zamonaviy raqamlash negadir forzas varaqdan boshlangan. Ushbu varaqning a sahifasida arab va fransuz tillaridagi turli qaydlarni o‘qish mumkin. Jumladan, yuqori qismiga arab xatida دیوان نوايي (“Devoni Navoiy”) deb yozilgan. Bu yozuv asosiy matnning xat uslubidan farq qiladi. Katta ehtimol bilan qo‘lyozma ko‘chirilgandan keyin, boshqa davr kitobxoni tomonidan yozilgan. Bu holat ushbu shaxs uchun devonning nomi emas, o‘proq uning muallifi muhim bo‘lganini anglata oladi. 1a tomoniga fransuz tilida qaydlar yozilgan. Unda asarning nomi “G‘aroyib us-sig‘ar” ekani, u 231 varaqni tashkil etishi kabi ma’lumotlarni topish mumkin. 1a varaqda arab alifbosida لمهرّر (tahrirchidan) sarlavhasi bilan quyidagi bayt ham yozilgan:

نی عجب کوب ایرسا کر هاجر سیزکا اعتبار

قیمتین ارتوقراق ایتکای اولسه جوهر دار تیغ

(Ne ajab ko‘p ersa gar hojar sizga e’tibor,

Qiymatin ortuqroq etgay o‘lsa javhar dor tig‘)

Ushbu baytning “tahrirchidan” deb taqdim etilishiga qaraganda uning muallifi qo‘lyozmaning kotibi bo‘lishi mumkin.

1b varaqda biror qayd yozilmagan.

2a varaqqa Sharq uslubiga xos 2 ta muhr bosilgan. Ulardan biri to‘rtburchak, ikkinchi muhr esa limonsimon (sitrona) shaklda. Ushbu varaqda arab yozuvida bu ikki muhrning matni alohida holda ham yozib qo‘yilgan²⁷.

1 1-rasm. 1-muhr



2-rasm. 2-muhr.



[2a varaq]

Limonsimon muhrning matnini to‘liq o‘qiy olmadik, shuning uchun hozircha bu matnni faqat rasmlarda aks ettirishga urindik. Uning mazmunidan FMKning saytidagi

²⁷ Unga ko‘ra to‘rtburchak muhrning matnini quyidagicha o‘qidik:
قدصار من مهدقات ارجر المالیک * بکم المالک ما لا ستحقاق.

tavsifda yozilganidek, “XV asr oxirida Temuriylar saroyi kutubxonasi tarkibiga kirgan va u yerdan Ahmad Nuzhat ismli noma’lum bir shaxs tarafidan sovg’a qilinib, Rag‘ib ismli bir vazirning ixtiyoriga o‘tganligini” anglash mumkin²⁸.

Debocha matni qo‘lyozmaga bir ustun, she‘rlar matni esa ikki ustunli jadval ichida ko‘chirilgan. Ustunlarning chiziqlari zarhal va ko‘k ranglarda. Jadval uchta moviy va 1 ta zarhal chiziqli ustundan iborat. Eng qalin moviy rangli ustun 0,5 mm, zarhal chiziq esa 1 mm ni tashkil etadi. Jadval ichi she‘rlar orasidagi masofa 1 sm. Jadvalning dastlabki chiziqlari moviy ustunlardan boshlangan, ular debocha matnida 16,5x11,6, she‘rlar matnida esa 16,4x11,4 smni (ba‘zan 16,3x11,3 mm) tashkil etadi. Ba‘zan kichik hajmli g‘azallar jadval ichida ikki yon tarafidan 1 sm dan qoldirilib, alohida zarhal chiziq bilan o‘ralgan (Qarang: 20b-21a, 47b, 64ab, 65b, 176a, 183b).

Matnlar varaqqa 13, 14, va 15 satrdan joylangan. Xati mayda, xushxat nasta‘liq. Matnni ko‘chirishda oralig‘i 1 smli mistaradan foydalanilgan. Mistarani matn yozilgan varaqlarda payqash juda mushkul. Ammo matn yozilmagan varaqlarda uning izini lupasiz ham ko‘rish imkoniyatiga egamiz.

Asosiy matn qora, har bir she‘rning boshlanishida yozilgan و (yana o‘sha (shu tartibda sarlavhalash ikkinchi g‘azaldan boshlanadi) so‘zlari esa qizil siyoh bilan ko‘chirilgan.

Qo‘yozmaning qog‘ozi filigransiz, qalin, tolalari zich, qadimiy xitoy uslubida ishlangan. U och krem rangida. Qog‘oz tuxumning oqi bilan yaxshigina ohorlangan (38b varaqda tuxum oqi dog‘larini aniq ko‘rish mumkin), silliqalanish darajasi ham juda yuqori. Ba‘zi varaqlar, ayniqsa, ularning hoshiya qismlari namlikdan biroz zarar ko‘rgan. Lekin bu matnning o‘qilishiga ta’sir etmagan. Qo‘lyozmaning saqlanish holatini yuqori baholash mumkin. Unda matnning biror o‘rniga zarar yetmagan. Faqat poygirlar matni odatdagiga nisbatan ancha pastda qolib ketgani sababli ba‘zan ularni o‘qish imkoniyati pasaygan. Bu holat qo‘lyozmaning restavratsiyaga uchraganini va uning varaqlari aslida hozirgi o‘lchamidan kattaroq bo‘lganini anglata oladi. Lekin restavratsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Sababi matnlarni o‘zida jamlab turgan ramkalar ikki yondosh varaqda o‘zaro proportsionalligini saqlab qolgan. Bu

²⁸ <https://archivesetmanuscripts.bnf.fr/ark:/12148/cc94082r>

varaqlarning ham tepa, ham pastki qismidan bir xilda qirqilgan bo'lishi mumkinligini anglatadi. Ehtimol, yon taraflardan ham kesilgan bo'lishi mumkin.

Poygirlar bo'yicha ba'zi nuqsonlar quyidagilarda aks etadi. 10b varaqda avval deb yozilib, so'ng تارزىلا tarzida tuzatilgan. 51b varaqda poygir belgisi umuman tushmay qolgan. 149b varaqda ham shunga o'xshash hol yuz bergan. Unda poygir uchun 3 ta ishoratni ko'ramiz. Bular: لا'لىنگ، نى، او (la'ling, ne, u) so'zlaridir. Ulardan birinchi so'z, ya'ni *la'ling* so'zi yanglish yozilgan. U aslida poygir ishorati berilgan varaqdagi ikkinchi g'azalning birinchi so'zi hisoblanadi. Ehtimol, kotib avval ushbu g'azalni yozishni rejalagan, so'ng yanglishib keyingisini yozib yuborgan bo'lishi mumkin. *Ne* va *u* so'zlari esa ishoratlanayotgan tegishli varaqdagi dastlabki so'zlarning "Ne uchun ..." deb boshlanishiga to'g'ri poygir bo'lgan. 51b, 220b, 225b, 227b, 228b, 229b, 230b varaqlarning poygiri ko'rinmay qolgan, ular varaqning kesilgan qismida qolib ketgan bo'lishi mumkin.

Qo'lyozmaning daftarlari 3 varaqli, ular markaziy va ikki yon taraflama oq ip bilan (ba'zan ipning rangi qizg'ish tus olgan) tikilgan. Daftarlarning umumiy soni 77 kurosadan iborat. Nusxa 231 varaqni tashkil etadi. Qo'lyozmaning sahifa, varaq va daftarlari sonini quyidagi matematik amalda ko'rish mumkin:

$$(2 \times 3) \times 77 = 6 \times 77 = 462 : 2 = 231.$$

Qo'lyozmada nag'zas varaqlar yo'q. Eng so'nggi varaq (231a) devonning matni bilan yakunlangan.

Kolofonda quyidagi qaydlarni o'qiymiz:

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب فى تاريخ شهر شوال سنة ٨٨٥

(Kitob marhamatli zot Allohning izni ila tarix 885-yil shavvol oyida yakuniga yetdi / 1480-yil dekabr–1481-yil yanvar).

Debochaning va she'rlarning boshlanish varag'iga unvon ishlangan. Dastlabki unvonning o'lchami: 12x6,5 sm. Ikkinchi unvonning o'lchami: 12x7 sm. Unvonlarni ishlashda zarhal, ko'k, qizil va havorangdan foydalanilgan. Naqshlarning ranglari yaxshi holatda saqlangan.

Debocha matni yakuniga yetgach, she'rlarning boshlanishi orasidaga 13b–14a varaqlar bo'sh (lakuna) qoldirilgan. Lakuna matnga ta'sir ko'rsatmagan.

Kotib matnni juda diqqatli ko‘chirgan. Bir-ikki o‘rindagi poygir belgisi bilan bog‘liq chalkashlikni hisobga olmaganda, asosiy matnning biror o‘rnida yanglish yozilib, ustidan chizilgan, hoshiyada tuzatish kiritilgan o‘rinni topish mushkul.

Shuningdek, qo‘lyozmada ba’zi g‘azallarning hajmi bilan bog‘liq “Badoyi’ ul-bidoya”ning boshqa nusxalari orasida tafovutlar ko‘zga tashlanadi. O‘rnak sifatida shulardan biri haqida quyidagi statistikani chiqarish mumkin. 150a varaqda “Ne uchun tarki muhabbat qildi” deb boshlanuvchi g‘azalning uchinchi bayti mavjud emas:

Yor ko‘yi ichra itti zor jismim ohdim,

Qayda tushganni bu yeldin bargi kohim bilmadim.

نى اوجون ترك محنت قىلدى ماھىم بىلمادىم

بو غضبكىم ايلادى ماھىم كناهىم بىلمادىم

Bizni ushbu g‘azalning “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasidan avval va keyin ko‘chirilgan qo‘lyozmalarda necha baytli ekani qiziqtirdi. Shuning uchun, kichik bir tahlilni amalga oshirdik. Natijada ushbu g‘azal “Ilk devon”²⁹ va “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”³⁰ mavjud emasligi va “Badoyi’ ul-bidoya”ning muallif tirikligi chog‘i ko‘chirilgan uchta qo‘lyozmasida (Parij, Boku va Mashhad) mavjudligini aniqladik. Uning matni aynan “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasidan, ya’ni 1480-yildan boshlab ko‘rina boshlaydi. Devonning 1481–1483-yillar orasida ko‘chirilgan London va Tehron nusxalarida³¹ ham ushbu she’r uchramaydi. “Badoyi’ ul-bidoya”ning Boku nusxasida 7 baytli hoshiya g‘azali bo‘lib keladi³². Ushbu qo‘lyozmaning asosiy matni va hoshiya matni xat uslubi bir xil ekanini hisobga olsak, g‘azalning Parij nusxasida mavjud bo‘lmagan uchinchi bayti 1484-yil Boku nusxaga katta ehtimol bilan muallif tarafidan tahrirlangan holda kiritilganini taxmin qilish mumkin. G‘azal 1491-yilga tegishli Mashhad nusxasida ham yetti baytli ko‘rinishda

²⁹ Qarang: Алишер Навоий, 1466. Нашрга тайёрловчи: Х. Сулаймон, 1968; Eckmann J., 1970. – S. 253-262; Özdaraedeli N., 1989. – S. 1007.

³⁰ Qarang: Алишер Навоий, 1471. Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов, 2015; Алишер Навоий. 1471. Нашрга тайёрловчилар: А.Эркинов, Р.Жабборов., 2021. – 411 б.

³¹ Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” London nusxasi. Britaniya muzeyi, № 401. 887/1482-83 y.; Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Tehron nusxasi. Islom sho‘ro majlisi kutubxonasi, № 14197. 888-y., safar oyi /1483-y., mart-aprel.

³² Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Boku nusxasi. Ozarbayjon BA Qo‘lyozmalar instituti, № 3010. 889/1484-y. 454/119a varaq (hoshiya g‘azal)/7 bayt.

kelgan³³. Shuningdek, mazkur gʻazalni “Navodir un-nihoya” nusxalari sifatida qaralayotgan OʻzR FA Sharqshunoslik instituti fondiga oid 11675 va 1995 raqamli qoʻlyozmalar tarkibidan ham mavjudlik holatini tekshirib koʻrdik. Natijada Abduljamil kotib tarafidan koʻchirilgan nusxada (№11675) mavjud emasligi³⁴, Sultonali Mashhadiy kitobatiga qoʻlyozmada (№1995) yana yetti baytli gʻazal shaklida koʻchirilgani ayonlashdi³⁵.

Muhimi shundaki, jiddiy tekshiruvlarimiz natijasi “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasining kotibi Abduljamil boʻlishi mumkinligini oʻrtaga chiqarmoqda. Ushbu masalaga kirishishdan avval Abduljamil kotib haqida baʼzi maʼlumotlarni yodga olsak. Ushbu xattot Navoiyning shaxsiy kotibi boʻlgani va oʻzi ham sheʼr mashq qilgani haqida manbalarda maʼlumotlar mavjud. “Oʻrta Osiyo xattotlik sanʼati tarixidan” nomli monografiyada ushbu xattot haqida shunday yozilgan: «Muhammadrizo Ogahiy (1809–1874) “Ravzatu-s-safo”ni oʻzbek tiliga tarjima qilar ekan, Abduljamil kotibni shunday taʼriflaydi: «Mavlono Abduljamil donishmandlar silkida intizom topib, bir necha vaqt “Sultoniya” madrasasida donish qalami bilan ilm ahli va talabalarning koʻngillari sahifasiga ifoda naqshini yozdi. Tarixi hijriy 911-yilda (1505–1506) edikim, vafoti ittifoq tushib, mazkur tarixni qayd qilish uchun Sulton Ibrohim Aminiyning qalami bu qitʼani varaq ruxsoriga bitdi:

(U ilm osmonining (ketganiga) afsus
Mehr tufayli uni ofoq (yaʼni dunyo) olqishlagan edi
Shu sababli uning nomi Abduljamil boʻldi.
Chunki u yaxshi xulqi bilan tanilgan edi.
Uning vafot taʼrixini donish(mandlar) shunday aytdilar:
Dunyoning tengi yoʻq allomasi).

افسوس از آن سپهر دانش
کز مهر و را ستود آفاق
ز آن عبدالجمیل گشت نامش
کارسته شد بحسن اخلاق
تاریخ وفات او خرد گفت
علامه بی مثال آفاق

Qitʼada taʼrix moddasi “Alomai be misoli ofoq” boʻlib, raqamlar yigʻindisi hijriy 911 (milodiy 1505–1506) yil boʻladi»³⁶.

³³ Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Mashhad nusxasi. Kitobxona-yi Oston-i Qudsi Razaviy, № 4783. Jumodi I 896/1491-y. mart–aprel. Koʻchiruvchi: Darvesh Muhammad Toqiy. 413/115a varaq/7 bayt.

³⁴ Alisher Navoiy. *Navodir un-nihoya*. kاتب: Abduljamil kاتب. 1487 y. OʻzRFASHI asosiy fondi. № 11675.

³⁵ Alisher Navoiy. XV–XVI. *Navodir un-nihoya*. kاتب: Sultonali Mashhadiy. OʻzRFASHI asosiy fondi. №1995. 483/138a varaq/7 bayt.

³⁶ Муродов А. 1971. – Б. 57-58; Хакимов М., 1991. – Б. 12-13. Qarang: Mirxond. *Ravzatu-s-safo*. VII jild. OʻzR FASHI, 1716- raqamli qoʻlyozma. 227- varaq; Xondamir. *Habibu-s-siyar*. OʻzR FASHI. 2153- raqamli qoʻlyozma. 631- varaq.

Navoiy asarlarining Abduljamil kotib tomonidan ko‘chirilgan ikki qo‘lyozmasi O‘zR FASHI asosiy fondida saqlanmoqda. Ular “Xamsa” (5018- raqamli) va “Devoni jadid” (“Navodiru-n-nihoya”, 11675- raqamli) qo‘lyozmalaridir. Ma’lumotlarga ko‘ra, Abduljamil kotib uzoq yillar davomida Navoiy asarlarini kitobat qilishi jarayonida shoir lirik merosidan shohbaytlarni tanlab, “Tuhfat us-salotin” nomli bir to‘plam tuzgan. Mazkur asarning 914/1508–1509-yil Hirotida kotib Muhammad ibn Hasan Jum‘on Ansoriy tomonidan ko‘chirilgan yagona nusxasi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda³⁷.

Tabiiyki, shaxsiy kotib vazifasini bajarib kelgan Abduljamil kotibdan Navoiy qalamiga tegishli faqat shu ikki asarning (“Xamsa” va “Devoni jadid” yoki “Navodir un-nihoya”) nusxalarigina ko‘chirilgan bo‘lishiga ishonish qiyin. Shu ma’noda, Navoiy asarlari qo‘lyozmalari bilan shug‘ullanib kelayotgan bir mutaxassis sifatida ushbu kotibning boshqa dastxatlari aniqlanishiga doim umid qilar edim.

FMKda “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasini qo‘limga olib, uning matnlar boshlangan varaqlarini ilk ochib ko‘rishimdayoq xayolimga yalt etib Abduljamil kotibning xatiga juda o‘xsharkan degan o‘y keldi. Nusxaning kodikologik tadqiqi uchun uni jiddiyroq o‘rganishga davom etarkanman, bu o‘y meni sira tark etmadi. Ehtimol, Abduljamil kotib dastxatiga oid “Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) va uning nusxasi – Sultonali Mashhadiy dastxati bilan ko‘chirilgan (O‘zR FASHI, №1995) qo‘lyozmalarning ilmiy-tanqidiy matni ustida ishlayotganim, qariyb to‘rt yildan buyon eng ko‘p bu ikki xattotning xat namunalarini o‘qish va yozish bilan band ekanim uchun shunday kuchli intuitsiyani his qilgandirman.

Shu o‘y bilan “Badoyi’ ul-bidoya”dan bir qancha g‘azallarning yuqoridagi qo‘lyozma devonlar tarkibiga ham ko‘chirilganini esladim va kompyuterimdan 1487-yil Abduljamil kotib tomonidan ko‘chirilgan “Devoni jadid”ning elektron nusxasini ochdim. “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasidan “Devoni jadid”ga ko‘chgan bir nechta g‘azallarning varaqlarini aniqladim va xat uslubini solishtirishga tushdim. Harflarning alohida ko‘rinishi, so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida kelish uslublariga diqqat qildim.

³⁷Хакимов М., 1991. – Б. 12-13. Mazkur saylanma haqida batafsil qarang: Шамсиев П., 1986. – Б. 64-68.

Borgan sari taxminim to‘g‘ri ekaniga iqrar bo‘ldim. Shu tariqa to‘rtta g‘azalning matnini to‘liq qarab chiqdim. So‘ng FMKning chig‘atoy va usmonli tilli manbalar bo‘yicha mutaxassisi Dr. Lamine Tamssaoutni (Lamine Tamssaout) chaqirib, farazimning ishonchliligi borasida fikrini bilish uchun dalillarim bilan o‘rtoqlashdim. Ushbu olim bilan bir kun avval kutubxonada tanishgan edik. Uzoq davom etgan tekshirishlarimizdan keyin L.Tamssaout farazimning to‘g‘ri ekanini 99% ma’qullashini bildirdi. Olim ishonch bilan qolgan 1% bizning qo‘lyozmada ko‘ra olmayotganimiz mavhumlikdan, deb aytdi³⁸. Quyida “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasining Abduljamil kotib ko‘chirgani bilan bog‘liq dalillar bilan tanishishingiz mumkin.

1-jadval

Xat uslubi harfma-harf qiyoslangan g‘azallarning “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi (Supl. turc 746) va “Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”) Abduljamil kotib nusxasidagi (O‘zR FASHI, №11675) ko‘rsatkichi

№	G‘azallarning matlari	G‘azallarning qo‘lyozmadagi tartib raqami, varaqlar bo‘yicha ko‘rsatkichi va hajmi		Tegishli ilovalar bo‘yicha ko‘rsatkich
		“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi (Supl. turc 746)	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675)	
	قويون ديك وصل دشتی دين كر ای لیلی مینی سوردونک ديکاچ سرکشته مجنونوم باشيمنی کوکا پتکوردونک	342/113b/7 ³⁹	431/84a/9	1-ilova
	نی خیال ایدی یناکیم کونکول قوشی صیدینی هوش ایلادینک بدنیمغه هر ساریدین خدنک اوروبان انکا قفس ایلادینک	355/117a/9	439/85b/8 ⁴⁰	2- ilova
	جنون دین ایله توفراغ اولدی جسم رنج بیروردیم که هر تیش اورسالار اطفال جسمیمغا جیقار کردیم	460/146b/7	477/93ab/7	3- ilova
	بهار و باغ سیریدین کلنی سرودر کامیم بودور کاهیم که شاید اوجراغای سروکل اندامیم	481/152b/9	472/92b/9	4- ilova

³⁸ Shu o‘rinda FMKda menga ko‘rsatgan barcha yordamlari uchun Dr. Lamine Tamssaoutdan cheksiz minnatdorman.

³⁹ Ushbu g‘azal “Badoyi’ ul-bidoya”ning Boku va Mashhad nusxalarida ham mavjud. Ulurda 9 baytli g‘azal ko‘rishini olgan.


⁴⁰ Ushbu qo‘lyozmada g‘azalning 8-bayti mavjud emas:

Tunu kun sabu chekib, egningga sol o‘zungni halqayi dayr aro
Chu belingga mug‘bachalar kamandi xayolini maras aylading.

Bu o'rinda ham harflarning so'z boshi, so'z o'rtasi, so'z oxiri va alohida kelish hollari bir xil ekani o'rta qatnash chiqdi (o'rnaklarga qarang). Shuningdek, g'azallar matnida kelgan harflarning eng qalin va eng ingichka o'lchamini aniqlashga urindik. Natija shunday: so'z oxirida kelgan nun harfining kosa qismi eng qalin o'lchami: 0,8 mm, bu eng qalin ko'rsatkich. Ushbu harfning so'z boshida kelish o'lchami 0,1 mm, bu eng ingichka ko'rsatkich deya olamiz (qarang: 113b). Alif harfining uzunligi 0,3 mm, eni esa 0,1 mm ni tashkil etishi ayon bo'ldi. "Badoyi' ul-bidoya" matni xat uslubidagi mazkur ko'rsatkichlarni Toshkentga qaytgach, Abduljamil kotib xati bilan qiyoslab ko'rildanda o'lchamlarning bir xil ekani o'rta qatnash chiqdi. Bu esa tahlillarimiz xulosasini yana bir marta tasdiqlay oladi. Shu o'rinda ba'zi so'zlarning imlosi bilan bog'liq yuqoridagi ikki qo'lyozmada farqlilik kuzatilishini ta'kidlash lozim. Masalan, so'z yakunida kelgan qisqa a unlisining bir nusxada *alif*, ikkinchisida *hoi havvaz* bilan berilish hollari mavjud (1-ilovaning matlasiga qarang). Ammo bu holat bir qo'lyozmaning o'zida ham turli o'rinda turli xil kelaverishi mumkin. So'z ketayotgan "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasi va "Devoni jadid"ning Abduljamil kotib qo'lyozmasida ham xuddi shu holat tez-tez takrorlangan. Bizningcha, turkiy matnlardagi ushbu harxillik qo'lyozma varaqlarining matn yozilishiga mo'ljallangan chegarasiga so'zni sig'dirish muhimligi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ushbu ikki qo'lyozma bir qamish qalam bilan yozilgan bo'lishi mumkin. Bu esa kotiblarning o'z uslubini saqlay bilish uchun sevimli bir qalamidan ko'p yillar (ayni vaziyatda yetti yil) foydalangan bo'lishi mumkinligini anglata oladi.

Shuningdek, "Badoyi' ul-bidoya" Parij nusxasi ustunlar orasiga qo'yilgan quyidagi belgi ham diqqatimizni tortdi:



[59b varaq]

Ushbu qo'lyozma yuqorida ta'kidlanganidek, yuqori saviyada, nozik did bilan ko'chirilgan. Unda bir g'azal tugallanib, keyingisi boshlanishidan avval albatta jadval chiziqlari tortilgan. Ammo biz o'rnak sifatida keltirayotganimiz mazkur varaqda

so‘nggi bayti ko‘chirilgan g‘azalning o‘zidan keyingi she‘r bilan orasini chegaralab turuvchi ustun yo‘q, uning vazifasini  mana shu belgi bajargan.

Qizig‘i shundaki, Abduljamil kotib qo‘lyozmasida “Devoni jadid”da ajratib turuvchi belgi (razdel) o‘rnida bu ishoratdan hoshiya g‘azallari chegarasini bildirish uchun juda ko‘p marta foydalanilgan. Bizningcha, mayda detal bo‘lsa-da, ushbu holatni ikki qo‘lyozma kotibi bir shaxs bo‘lishi mumkinligiga kichik dalil sifatida keltirish mumkin.

Abduljamil kotib Alisher Navoiyning lirik merosini juda katta zavq bilan kuzatib borganini uning tarafidan tuzilgan “Tuhfat us-salotin”dan ma’lum. Navoiy shohbaytlaridan tanlab tuzilgan aynan mana shu saylanmada shoirning she‘rlari ilk bor 45 ta mavzuviy guruhga ajratilgan va har bir mavzu – tuhfa muvofiq keluvchi baytlar saralanib ko‘chirilgan⁴¹. Prof. P.Shamsiyev ta’kidlaganidek, “Tuhfat us-salotin”ni tuzish saylanma asar va terma devonlar tuzishga qaraganda ancha murakkab kechgan. Bu ishni Navoiy devonlarini ko‘chirish davomida Abduljamil kotib ado etgan”⁴². Bu esa Abduljamil kotibning Navoiyning kotibigina emas, shoir ijodining didli muxlisi va ma’lum ma’noda tadqiqotchisi bo‘lganini anglatadi. Qolaversa, yuqorida matni qiyoslash uchun asos bo‘lgan qo‘lyozma “Devoni jadid” ham Abduljamil kotibni xuddi shu pozitsiyada namoyon eta oladi. Sababi unda Navoiyning o‘rta yosh lirikasiga oid g‘azallarining katta qismi asosiy matndan tashqari hoshiya matnlari sifatida radif va qofiyasiga ko‘ra devonchilik an‘analariga uyg‘un tarzda joylab chiqilgan⁴³. Bu holat muallifning emas, bevosita kotibning mehnati va adabiy saviyasi evaziga yuzaga kelgan deb aytish mumkin.

Abduljamil kotib “Tuhfat us-salotin” saylanmasiga bitgan debochada⁴⁴ “bir necha yil davomida Navoiy bilan yaqqalam bo‘lib, kulliyotlarini ko‘chirgani, bu ishdan zavq olib kelayotgani va ko‘nglining javohirlarini sohib yuborgani taqdirda ham ushbu bitiklarning qadrini bilmay qolaverishi; mazkur to‘plamni Sulton Husaynning hukmiga ko‘ra madrasa talabalari o‘qishi uchun Navoiyning qadimiy devonlari ustida ishlashi asnosida tuzgani va bu ishi muallifga ma’qul kelganidan

⁴¹ Шамсиев., 1986. – Б. 66-67.

⁴² O‘sha joyda.

⁴³ Bu haqda batafsil qarang: Шамсиев П., 1986. – Б. 9-15; Madaliyeva O., 2024-yil 1-son. – Б. 4-39.

⁴⁴ Шамсиев П., 1986. – Б. 67.

yanada quvvatlanganini”⁴⁵ faxr bilan yozadi. Biz Abduljamil kotibning o‘z og‘zidan yozilayotgan mana shu ma’lumotdan xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan ba’zi jihatlarga diqqatingizni qaratmoqchimiz:

1. “Tuhfat us-salotin” tuzilgunga qadar Abduljamil kotib uzoq yillar Navoiyning kulliyotlarini kitobat qilib kelgan. Bu kulliyotlarning bizgacha yetib kelmagani haqida M.Hakimov farazlari mavjud⁴⁶, biz ham ushbu fikrlarga qo‘shilamiz.

2. Abduljamil kotibning Navoiy bilan “yakqalamligi”ni muallifning qoralamalarini eng avval u ko‘chirib kelgani va ba’zan Navoiy og‘zaki bayon etib turganda (masalan, xat-hujjatlarni) u oqqa tushirgani ma’nosida tushunish mumkin.

3. “Tuhfat us-salotin” kabi bir to‘plamning tuzilishiga saroy she’riyat majlislaridan birida Sultonning o‘zi hukm qilgan, bundan murod madrasa talabalariga Navoiy she’riyatini o‘qitish bo‘lgan. Yana bir jihati saroyda tashkil etilgan mana shunday kechalarda Abduljamil kotib ham ishtirok etgan.

4. To‘plam muallifga taqdim etilgani va unga ma’qul kelgani haqidagi ma’lumot uning shoir tirikligi chog‘i tuzilganidan darak beradi. Demak, Navoiy tirikligidayoq, uning she’riyati Hirot madrasalarida o‘qitilishiga Sulton Husaynning maxsus buyrug‘i bo‘lgan.

5. Tuzuvchining so‘zlariga ko‘ra “Tuhfat us-salotin” Navoiyning qadimiy devonlari ustida ishlash, ulardan eng kuchli baytlarni saralab olish (“hazratning qadimiy devonlari daryosidin g‘avvosliq birla durri luoli muxtasarona jam qilib”) natijasida yuzaga kelgan”. Bunda katta ehtimol bilan “Badoyi’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlari nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. Bu esa, ma’lum ma’noda, Abduljamil kotibning “Badoyi’ ul-bidoya”dan nusxa ko‘chirganiga ishora bo‘lishi mumkin.

6. Shuningdek, Abduljamil kotibning “Navoiy kulliyotlarini ko‘chirgani, she’rlarni qadimiy devonlardan saralab olgani” ma’nosidagi jumllalaridan “Tuhfat us-salotin” Navoiy asarlarining katta qismi yozilib, kulliyot holida kitobat qilinganidan keyin, 1490-yillarning oxirlarida tuzilganini ham taxmin qilish mumkin. Har holda mana shunday vaziyatdagina 1480-yillardan dastlabki nusxalari ko‘chirila boshlagan

⁴⁵ Ushbu jumla “Tuhfat us-salotin”dan aynan keltirilmay, faqat mazmunni ifodalash maqsad qilingan. Uslub maqola muallifiga tegishli.

⁴⁶ Хакимов М., 1991. – Б. 14.

“Badoyi’ ul-bidoya” va 1487-yilda dastlabki qoralamasi kitobat qilingan “Navodir un-nihoya”ga nisbatan “qadimiy devonlar” sifatini berish mumkin edi deb hisoblaymiz.

M.Hakimov: “Abduljamil butun hayoti davomida kotiblik bilan mashg‘ul bo‘lganligini ta’kidlash uchun ko‘chirgan qo‘lyozmalarining oxirida “Kotib” taxallusini qo‘shib “Abduljamil Kotib” tarzida to‘la imzo chekadi”, deb yozadi⁴⁷. Biz hozircha Navoiyning shaxsiy kotibi bo‘lish vazifasi Abduljamilga qachondan boshlab berilgani haqida manbalardan biror ma’lumot topa olmadik. Ushbu lavozim unga Alisher Navoiy amirlik maqomini olgach, taxminan, 1472-yildan keyin berilgan bo‘lsa kerak. Mirxondning “Abduljamil kotib Hirotning Sultoniya madrasasida mudarrislik qilib sarf-u nahvdan dars bergan”⁴⁸ mazmunidagi ma’lumotini yodga olsak, uning faqat kotiblik bilan shug‘ullanmay, faoliyatining bir qismi madrasa hayoti bilan bog‘liq bo‘lgani o‘rtaga chiqadi. Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, Abduljamil kotibning Navoiydan boshqa biror muallifning asarini kitobat qilganligi haqida ham ma’lumotga ega emasmiz. Shu ma’noda, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasi Abduljamil kotibning ilk kitobati bo‘lishi mumkin.

Quyidagilarni ushbu tadqiqotning xulosalari sifatida bildirish mumkin. “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi ushbu devonning keyingi yillarda ko‘chirilgan qo‘lyozmalariga faqat tarkib jihatdan emas, ma’lum ma’noda kitobati jihatidan ham manba, model vazifasini o‘tagan. Qo‘lyozmalar orasida ularning bichimi, ustunlari va satrlari soni, bezaklari va hajmi, xati uslubi (nasta’liq) jihatidan o‘zaro yaqinlik shunday xulosani keltirib chiqaradi (5-ilovaga qarang).

“Badoyi’ ul-bidoya” muallif tomonidan tobora mukammallashtirib, sayqallanib bo‘rilgan. Ushbu devonning Navoiy hayotligi chog‘i ko‘chirilgan dastlabki nusxalari keyin kitobat qilinganlariga ko‘ra tarkib jihatidan farqlanishi fikrimizning dalili bo‘la oladi.

“Badoyi’ ul-bidoya” devonini qo‘lyozma kitob holiga keltirish Navoiyning o‘zi tomonidan tartib berilgan dastlabki devoni bo‘lishi bilan birga buyuk shoirning ilk asari sifatida ham buyurtmachi, kotib, muqovasoz, naqqosh va boshqa mana shu ish bilan shug‘ullanuvchi kishilar uchun juda muhim bo‘lgan. Ushbu devon nusxalarining

⁴⁷ O‘sha asar. – B. 12.


⁴⁸ O‘sha joyda.


kodikologik belgilari bunga dalil bo‘la oladi. Debochasida bildirilganidek, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Sulton Husaynning (h.y. 1469–1506) shaxsan ixtiyori va buyrug‘i asosida tuzilganidan Parij qo‘lyozmasiga dastlabki nusxa o‘laroq ham muallifning, ham saroy darajasidagi e‘tiborning mahsuli sifatida qarash mumkin.


“Badoyi’ ul-bidoya” qo‘lyozmalari kitobati jihatidan muallif vafotidan keyingi davrlarda shoir she‘rlaridan tuzilgan terma devonlar uchun ham asos bo‘lgan deyish mumkin. Ayniqsa, XVI asrga oid Navoiy terma devonlari nusxalarining kitobati “Badoyi’ ul-bidoya” qo‘lyozmalariga juda yaqin.


Abduljamil kotibning “yakqalamlik” haqidagi faxriyasidan uning Alisher Navoiy hayoti va faoliyatida muhim rol tutganini anglash mumkin. Saroyda o‘tkazilgan she‘riy majlislarda ishtirok etgani, hukmdordan saylanma tuzish haqidagi alohida topshiriq olgani esa uning nozik ta‘bli nasta‘liqnavis bo‘lishi bilan bir qatorda yuksak badiiy didga ega ekanligi, bu iqtidori saroy darajasida e‘tirof etilgani hamda Hirot adabiy muhitida alohida mavqe‘ga ega bo‘lganini bildiradi. Abduljamilga nisbatan bunday ishonchning mavjudligi uning Navoiy she‘riyatining bilimdoni darajasiga yetishi zahirida shoir musannifligidagi devonlarning dastlabkisi – “Badoyi’ ul-bidoya”dan tortib, eng oxirgi tuzilganlari – “Xazoyin ul-maoniy”gacha kitobat qilganiga ishora etsa kerak.

So‘zimiz yakunida “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasining Abduljamil kotib ko‘chirgani bilan bog‘liq farazimizni dalillash uchun keltirilgan tahlillarga manbashunos-navoiyshunoslarning fikrlari va munosabatlarini kutib qolamiz.

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi (Supl. turc 746) 342/113b/7	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) 431/84a/9
	

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi (Supl. turc 746) 355/117a/9	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) 431/84a/9
	

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi (Supl. turc 746) 460/146b/7	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) 477/93ab/7
	

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi (Supl. turc 746) 481/152b/9	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) 472/92b/9
	

**Muallif tirikligi chog'i ko'chirilgan "Badoyi' ul-bidoya" devonining sanali sakkizta nusxasi kodikologiyasi va tarkibiga
oid ba'zi ma'lumotlar⁴⁹**

№	Nusxa nomi Ko'chirilgan yili	Bezak turi va soni	Qog'ozi	Xat turi	Hajmi	Qo'lyozma o'lchami	Matn o'lchami	Satrlar soni	Jadval ustunlari	Tarixiy muhr mavjudlik ko'rsatkichi	She'rlar soni
	Parij nusxa885-y. shavvol/1480- y. dekabr– 1481- y.yanvar	2 ta unvon	Xitoy uslubida ishlangan sharq qog'ozi	Nasta'liq	231 varaq	25x18 sm	16x11 sm	13, 14, 15	2 ta	+	831
2.	London nusxa 887-y. robe'u-l- avval/1482- y.aprel–may	2 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	233 varaq	23,5x15,2 sm	9,5 sm	14	2 ta		816
	Tehron nusxa 888-yil, safar oyi /1483-y., mart-aprel		sharq qog'ozi	Nasta'liq	268 varaq	24x16 sm	15x10 sm	13	2 ta		869
	Boku nusxa 889-y. jumodu-l- avvalning 15-		sharq qog'ozi	Nasta'liq	188 varaq	23x16 sm		15	2 ta		839

⁴⁹ Ochiq qoldirilgan kataklar tegishli ma'lumotlarning bizda mavjud emasligini bildiradi.

	kuni/1484-y.14-iyun										
	Istanbul nusxa 889/1484-1485-y., Hirot		sharq qog'ozi	Nasta'liq	161 varaq	25,6x17 sm	16x9,6 sm	13	2 ta	+	652
	Toshkent nusxa 891 jumodul-avval/1486-y. may, Hirot		sharq qog'ozi	Nasta'liq	215 varaq	23x17 sm			2 ta		916
	Mashhad nusxa jumodi I 896/1491-yil mart-aprel		sharq qog'ozi	Nasta'liq	204 varaq	24,3x15,5 sm		17	2 ta	+	899
	Tehron – 2 nusxa 906/1500-1501		sharq qog'ozi	Nasta'liq	123 varaq (noto'liq nusxa)			17	2 ta		511

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. A Century of Princes. Sources on Timurid History and Art. – Cambridge, Massachussets: The Aga Khan Program for Islamic Architecture, 1989. – 370 p.
2. Ali Şîr Nevâyî. Bedâyiü'l-bidâye. Hazırlayan: Vahit Türk, Jabbor Eshonkul. İstanbul: “Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı”, 2023. – 1072 s.
3. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. kاتب: Abduljamil kاتب. 1487 y. O‘zRFASHI asosiy fondi. № 11675.
4. Alisher Navoiy. XV–XVI. Navodir un-nihoya. kاتب: Sultonali Mashhadiy. O‘zRFASHI asosiy fondi. №1995.
5. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya”. Boku nusxasi. Ozarbayjon BA Qo‘lyozmalar instituti, № 3010 889/1484 y.
6. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Istanbul nusxasi. Turkiya, Sulaymoniya, Ayasofya № 3981. – Hirot, 889/1484-1485 y. Ko‘chiruvchi: Sultonali Mashhadiy.
7. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” London nusxasi. Britaniya muzeyi, № 401. 887/1482-83 y.
8. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Mashhad nusxasi. Kitobxona-yi Oston-i Qudsi Razaviy, № 4783. Jumodi I 896/1491 y. mart–aprel. Ko‘chiruvchi: Darvesh Muhammad Toqiy.
9. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi. Fransiya milliy kutubxonasi, № 746. 885/1480-81 y.
10. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Tehron nusxasi. Islom sho‘ro majlisi kutubxonasi, № 14197 888 y., safar ohi /1483 y., mart-aprel.
11. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Tehron-2 nusxasi. Eron milliy kutubxonasi, № 1082924. 906/1500-1501 y.
12. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Toshkent nusxasi. O‘zR FA AdM, № 216. – Hirot, 891/1486 y. Ko‘chiruvchi: Ali ibn Nur.
13. Birnbaum E. Ottoman Turkish and Chaghatay literature. An Early 16th Century Manuscript of Nava’is Divan in Ottoman Orthography // Central Asiatic Journal. 1976, XX. – P. 157-190.
14. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1905. Tome I.
15. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1912. Tome III.
16. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque national. – Paris, 1912. Tome IV
17. Boltabayev S. Navoiy devonining shoir hayotligida ko‘chirilgan yangi topilgan nusxasi haqida // Alisher Navoiy va Sharq Renessansi (xalqaro simpozium materiallari). – Toshkent, 2022. – B. 438-466.
18. Calligraphers and Painters. A Treatise by Qadi Ahmad, son of Mir Munshi (circa A.H. 1015/ A.D. 1606) translated from the Persian by V. Minorskiy. – Washington, 1959. – 223 p.

19. Eckmann J. Nevai'nin ilk divanları üzerine // Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten, 13. – Ankara. 1970. – S. 253-262.

20. Eckmann Janos. Nevai'nin ilk divanları üzerine // Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten, 13. – Ankara. 1970. – S. 253-262.

21. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%B4%D0%B8%D0%BA%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F>

22. Jo'raboyev O. "Badoye'-ul-bidoya" devonining yana bir nodir qo'lyozmasi haqida // Adabiy meros, №2, 2025. – B. 3-11.

23. Juraboyev O. Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevayî'nin "Bedayîü'l-Bidaye" Divanının Taşkent Nüshası. // Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi. Cilt/Volume:1. – Bolu, 2020. – S. 14-27.

24. Levend A. Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları // Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten. – Ankara, 1958. – S.127-209.

25. Madaliyeva O. Alisher Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devoni va uning qo'lyozmalari // Professor Hamid Sulaymon nomidagi yosh matnshunoslarning ilmiy-amaliy respublika konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: «Yosh avlod matbaa», 2023. – B. 6-11.

26. Madaliyeva O. Alisher Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devonining Mashhad qo'lyozmasi // Alisher Navoiy va XXI nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent – Boku: «Zebo print», 2023. – B. 209-218.

27. Madaliyeva O. Alisher Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devonining o'rganilish tarixi // Alisher Navoiy va XXI nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent – Bursa: «Zebo print», 2023. – B. 400-408.

28. Madaliyeva O. Alisher Navoiy she'riyatining 1480- yillar tarixiga nazar ("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya" devoni qo'lyozmalari asosida) // Oltin bitiglar. 2024-yil 1-son. – B. 4-39.

29. Mirxond. Ravzatu-s-safo. VII jild. O'zR FASHI, 1716- raqamli qo'lyozma. 227- varaq; Xondamir. Habibu-s-siyar. O'zR FASHI. 2153- raqamli qo'lyozma. 631- varaq.

30. Mustafa 'Ali's Epic Deeds of Artists. Edited, translated and commented by Esra Akın-Kıvanç. – Leiden * Boston: Brill, 2011. – 310 p.

31. Özdarædeli N. Ali Sir Nevayî. İlk divan. İnceleme-Metin-Dizin. Doktora tezi. – Edirne: Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1989. – S. 1007.

32. Schimmel A. Calligraphy and Islamic Culture. – London: I.B. Tauris & Co LTD, 1990. – 264 p.

33. Shahidani Sh. The role of the Safavids in the Spread and Institutionalization of the Nasta'liq Script // Journal of Persianate Studies. – Leiden: Brill. 2024. – P. 149-188.

34. Subtelny M. Mir 'Ali Shir Nawa'i // Encyclopedie de l'Islam. 2e edition, vol. VII. – Leiden–Paris: «Brill», 1993. – P. 90-93.

35. Абдуғафуров А. «Бадоеъ ул-бидоя»нинг тузилиш санаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. № 4. – Б. 3-9.

36. Акимушкин А.Ф. Средневековый Иран. Культура, история, филология. – Санкт-Петербург: «Наука», 2004. – 392 с.

37. Алишер Навоий. «Оққўюнли мухлислар девони»: табдил ва факсимил матн. Нашрга тайёрловчилар: А.Эркинов, Р.Жабборов. 1-том. Лойиҳа раҳбари: Г.Рихсиева. Лойиҳа илмий раҳбари: А.Эркинов. – Тошкент: «Donishmand ziyosi», 2021. – 411 б.

38. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. Текстни тузувчи: Ш.Шарипов. МАТ. Йигирма томлик, биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – 689 б.

39. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йили қўчирилган қўлёзманинг факсимиле нашри. Нашрга тайёрловчи: Ҳ. Сулаймон. Тошкент: «Фан», 1968.

40. Алишер Навоий. Оққўюнли мухлислар девони. 1471 йили қўчирилган қўлёзманинг факсимиле нашри. Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов. – Tokyo: «Research Institute for languages and cultures of Asia and Africa», 2015.

41. Волин С. «Описание рукописей произведений Навои в ленинградских собраниях» // Алишер Навоӣ. Под ред. К. Боровкова. – Москва–Ленинград: «Издательство АН СССР». 1946. – С. 203-235.

42. Жўрабоев О. Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари // Алишер Навоий ва ХХІ аср. – Тошкент, 2016. – Б. 32-38.

43. Имомназаров М. ХХІ аср. Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари. – Тошкент, 2021. – 64 б.

44. Имомназаров М. ХХІ аср: Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари. – Тошкент: «Donishmand ziyosi», 2021. – 207 б.

45. Имомназаров М. Алишер Навоий лирик мероси матншунослигининг долзарб масалалари // Алишер Навоий ва ХХІ аср. – Тошкент: «Tamaddun», 2017. – Б. 6-10.

46. Имомназаров М. Мусулмон минтақа маданияти ривожига «мажоз тариқи» босқичи. 2-китоб. Алишер Навоий. – Тошкент: «Mumtoz soʻz», 2022. – 510 б.

47. Имомназаров М. Уч девон муқоясаси (Алишер Навоий шеърининг лирик жанрлар хронологиясига доир) // Алишер Навоий ва ХХІ аср. – Тошкент: «Turon iqbol», 2018 –Б. 12-17.

48. Куделин А.Б. Алишер Навоӣ – родоначальник узбекской литературы (К 575-летию со дня рождения)// Известия РАН. Серия литературы и языка. 2016, том 75, №4. С. 5-11.

49. Куделин А.Б. Алишер Навоий – ўзбек адабиёти асосчиси (Навоий таваллудининг 575 йиллигига). Journal of Central Asian Renaissance. 2021, Special Issue 1, pp. 33-41.

50. Мадалиева О. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийсий тадқиқи. – Тошкент: «Donishmand ziyosi», 2021. – 679 б.

51. Мадраимов А. Алишер Навоий бадий асарларининг XV–XVI асрлардаги қўлёзмалари. – Тошкент: «Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi», 2021. – 382 б.

52. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: «Фан». 1971. –196 б.

53. Нагиева Ж. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку: «Элм», 1986. – 136 с.

54. Рамазонов Н. Алишер Навоийда “таҳрирни таҳрир” // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006/1. – Б. 17-23.
55. Рамазонов Н. Яна “таҳрирни таҳрир” масаласи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007/1. – Б. 78-89.
56. Салоҳий Д. “Бадоеъ ул-бидоя” малоҳати. – Тошкент: “Фан”, 2004. – 204 б.
57. Салоҳий Д. Навоий лирик девонлари кўлёмалари ва фотонусхалари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Наманган, 2021. – Б. 53-58.
58. Салоҳий Д. Таҳлил ва талқин масъулияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006/1. – Б. 74-78.
59. Семенов А. Описание персидских, арабских и турецких рукописей. – Ташкент: «Издательство среднеазиатского государственного университета». 1935. – 88 с.
60. Сирождидинов Ш., Эркинов А. Кириш // Алишер Навоий – Қомусий луғат. 1-жилд. – Тошкент: «Sharq» – Б. 8-30.
61. Сулейманов Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои / В трех томах / том первый. – Ташкент–Москва, 1955-1961. – С. 415.
62. Турдалиев А., Эркинов А. «Бадойиъ ал-бидоя”нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи кўлёмаси (Султонали Машҳадий, Ҳирот, 889/1484-1485 йил) // Алишер Навоий ва ХХI аср. – Тошкент: «Turon iqbol», 2018 –Б. 57-62.
63. Улуч Л. Алишер Навоий асарларининг Истанбул кутубхоналаридаги безакли кўлёмалари. – Тошкент: «Silk Road Media» * «East Star Media», 2020. –448 б.
64. Шамсиев П. «Тухфатус-салотин» // Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 64-68.
65. Эркинов А. «Бадойиъ ал-бидоя”нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи кўлёмаси (888 йил, сафар ойи/1483 йил, март-апрель) // Алишер Навоий ва ХХI аср. – Тошкент: «Turon iqbol», 2018. – Б. 51-57.
66. Эркинов А. В.В.Бартольд нега Навоийни таржимон ва тақлидчи деб ҳисоблади? // Алишер Навоий ва Шарқ ренессанси (халқаро симпозиум материаллари). – Тошкент, 2022. – Б. 132-158.
67. Эркинов А. Темурийлар даври кўлёмма мероси манбалари // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Наманган, 2021. – Б. 81-85.
68. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: «Фан», 1961. – 294 б.
69. Ҳакимов М. “Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар”.
70. Ҳакимов М. Навоий асарлари кўлёммаларининг тавсифи. – Тошкент: «Фан», 1983. – Б. 199.

ALISHER NAVOIYNING SUHBATDOSHLARI

Sherxon QORAYEV,

Qarshi Xalqaro innovatsion universiteti

dotsenti, PhD

O‘zbek adabiyoti tarixida Sulton Husayn Boyqaro huzurida o‘tkazilgan oliy majlislar (Xurosonda adabiy kechalar ana shunday nom bilan atalgan – muallif) kabi shoirlar sultoni Alisher Navoiy dargohida ham xuddi shunday she’riyat yig‘inlari tashkil etilgan. Binobarin, Navoiyning adabiyot ahliga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligining samarasi o‘laroq, Movarounnahr va Xurosonning ziyolilari uning atrofida to‘planganlar [Samarqandiy, 2015:453]. Uzoq-yaqindan kelgan shoirlar esa Xondamir ta’biri bilan aytganda, Alisher Navoiyning she’riy majlislarini bezata boshlaganlar. Navoiy *“Mahbub ul –qulub”*da yozishicha, *“goho izzat va ma’murlik bo‘stonida majlis qurdim. Ulug‘ kishilarni va yuqori mansab egalarini hurmat va ta’zim yuzasidan mehmon qildim va ba’zan shodlik bog‘ida ziyofat tuzib, xonanda va sozandalarning bazmu taronalaridan bahramand bo‘ldim* [Navoiy, 2019:20-24]”.

Alisher Navoiy huzuridagi bunday she’riyat kechalarida qatnashish, shoirlar sultoni bilan suhbatlashish hammaga ham nasib etmagan. Xondamirga ko‘ra, *“olimlarning ulug‘lari qachonki, uning oliy darajadagi yig‘inlarida qatnashish imkoniyatini qo‘lga kiritishsa, uning samimiy qalbi sirlari sahifalaridan foydali marvaridlar yig‘ishar, fozillarning mashhurlari qachonki, ul hazrat o‘tirgan muborak gilamning bir chetida o‘tirish sharafiga ega bo‘lishsa, nozik fikrlar va nafis so‘zlar gavharlarini terishardi* [Xondamir, 2015:33]”. Davlatshoh Samarqandiy ham Xondamirning yuqoridagi fikrlarini tasdiqlagan holda *“fozillarning maqsadi uning oliy majlisiga yetishishdir. Uning hamsuhbatlari xushta‘b, fozil kishilardir. Uning maqbul xotiri ahli dildan boshqasini istamas, og‘ir tabiatlilar uning nazariga yengiltak bo‘lib ko‘rinar, balki noahillar uning latif majlislariga kirolmasdilar* [Samarqandiy, 1967:80]”, deb ta’kidlagan. Binobarin, o‘z davrining ziyolilari, adabiyot ahli Navoiy huzuridagi yig‘inlarda

qatnashishga harakat qilishgan. Adabiyotshunos Atoulloh Husayniy ham o'zi yaratgan yangi she'riy san'atni, ya'ni *“Aning har misrai bila qo'shsalar, o'shal she'rdan bir bayt hosil bo'lur, lekin ma'no va qofiyaga xalal bermaydigan”* usul (she'riy san'at)ni Navoiy nazaridan o'tkazish niyatida edi. *“Mundoq bir san'atni e'tibor qilish ko'pdan beri xotirimga aylanib yurar, ammo oni aytish yo'li bandaga kelmas erdikim, hazrati xudovandgor (Navoiy) majlisiga erishmak navbati yetti va yaqinlik paydo bo'ldi. Ul fikrni izhor ettim. So'zim tugagach, o'shul bilan ul hazrat davotu qalam tiladilar va badihatan bir ruboiy ayttilar:*

*Ro'i tu zi ruxi osmoniy xushtar,
Qaddi tu zi sarvi bo'stoniy xushtar,
La'li tu zi obi zindagoniy xushtar,
Nutqat zi hayoti jovidoniy xushtar.*

(Tarjimasi: Sening yuzing osmon yuzida (quyoshdan) yaxshiroq, Qadding bo'ston sarvidan yaxshiroq. La'ling hayot suvidan yaxshiroq; Nutqing abadiy hayotdan yaxshiroq.)

Aksari zamona fozillariyu atoqlig' xushta'blardan bo'lmish majlis ahli lol goldilar va taajjub barmog'in tishlarig'a oldilar [Husayniy, 1981: 49]”.

Alisher Navoiy xonadonidagi oliy majlislarga Xurosonning ulug' zotlari, yetuk shoirlar, taniqli ziyolilar qatnashganlar. Sulton Husayn Boyqaro ham bunday adabiy kechalarda ishtirok etgani haqidagi ma'lumotlar bor. G'iyosiddin Xondamirning *“Xulosat ul-axbor”* nomli asari ma'lumotlariga tayanib, Alisher Navoiy majlisi nadim (suhbatdosh)lari nomlarini keltirib o'tsak, uning oliy yig'inlarida *Abdurahmon Jomiydek* zotlar qatnashgan. Ziyolilardan *“Mavlono Muhammad Mu'in tabib adabiy majlis ahli jumlasidandir. Ul olijanob amir Alisherning iltifot va e'tibori tufayli uning oliy majlislariga yo'l topib, yaqin mahramiga aylangan”*. Mavlono Yusuf Badeiy *“ta'bi va zehnining nuqsonsizligi bilan ma'lum, doimo olijanob, sulton hazratlarining yaqin do'sti amir Alisher mulozamatida kun kechirgan* [Ahmedov, 1985:58-79]”. Mir Sarbarahna laqabli sayyid Shamsuddin Muhammad Andijoniyki, *“fe'lining xushligi, so'zlarining muloyimligi, fahmining tezligi hamda zehningo'tkirligi bilan zamon fozillari va*

davronning ziyrak kishilari orasida tamoman ajralib turgan. Hammavaqt soʻzlari shirin va maʼnoli, hikoyatlari goʻzal, suhbatlari ajoyib va gʻaroyib (boʻlgan). Hayotining boshlarida koʻp vaqt Movarounnahr mamlakatida ilm toliblari orasida kun kechirgan. Hirotga kelganidan keyin hidoyatli amir Alisher (Navoiy)ning inoyati va tarbiyati tufayli boshi Furqadondan yuqori boʻlgan [Ahmedov, 1985:58-79]. Navoiyning ustoz va doʻstlaridan “Pahlavon Muhammad Abu Said “suhbatlari zavqli, nishonalari ajoyib, maqtashga loyiq axloqining va maqbul xulqining ortiqqligi shubhadan xoli va tengsiz (boʻlgan). Hamisha olihazrat xoqon (Sulton Husayn Boyqaro) majlislarida va olijanob sulton hazratlari yaqin doʻsti (Alisher Navoiy)ning yigʻinlarida soʻzamollik bilan mashgʻul (boʻlgan), sof taʼblik va tugal idroklik odam, baʼzan yaxshi sheʼrlar va yoqimli muammolar ham bitgan [Ahmedov, 1985:58-79]”. Majlis ishtirokchilaridan “Mavlono Burhonuddin Atoulloh xulqining yaxshiligi, fazilatining koʻpligi, taʼbining benuqsonligi, fahmu farosatining tezligi bilan zamondoshlari orasida mumtoz (boʻlgan). Tabiati ul janob (Mirxond)ning tabiatidan ustun boʻlgani uchun olihazrat amir Alisher (Navoiy) uning soʻzlarini tinglagan va hazilomuz va mutoyibali gaplarni muborakbayon tillariga olardilar [Ahmedov, 1985:58-79]”.

Oliy majlislarda turli mavzularda bahsu munozaralar boʻlib turgan. Alisher Navoiyga bagʻishlangan kitoblar ham taqdimot qilingan. “Xulosat ul-axbor”ga koʻra, *“olijanob, naqobatpanoh amir jamol ul-millat va-d-din Atoullohim, diniy va yaqiniy ilmlar boʻyicha zoʻr kamolot hosil qilgan, sharofatli hadis ilmini tahqiq qilishda shak-shubhasiz Xuroson diyorida unga teng keladigan yoʻqdir.*

Olijanob amirga bagʻishlab, hazrati xayrulbashar amir Alisherning xislatlari haqida “Ravzat ul-ahbob” nomli kitob yozgankim, bundayini hali biron kishi yozmagan boʻlishi kerak. Daryodil amir Alisher odil podshoh Sulton Husayn hukmronligining boshlaridan to shu kungacha ulugʻ va baland martabalik ul janob haqida koʻp gʻamxoʻrliklar qildikim, uzoq va yaqin, turku tojik bundan hayrat barmogʻini tishlab turmoqdalar [Ahmedov, 1985:58-79]”.

Amir Burhonuddin Atoulloh “salim taʼbi gulzorining yaxshi hidlari va mustaqim zehnidan esgan mushkinshior shabboda jon dimogʻini muattar

qilg'uvchidir. Kasbu kamolotini oshirishda nihoyatda jiddu jahd ko'rsatib, 902 (1497) yili bir necha oy mobaynida olijanob, sulton hazratlari yaqin do'stining yig'ilishlarida va'z aytdi va ul janob amir Alisher (Navoiy) uning qo'lini olib, o'zini o'sha ifodatmaobning muxlislari safiga qo'shdi".

Adabiy majlis nadimlaridan “Mir Kamoliddin Husayn fazilati va donishmandligi, ayniqsa tasavvuf ilmida mashhur va ma'ruf bo'lgani uchun ko'p yillardan beri hidoyatli amirning tamomi inoyat va iltifotiga sazovor (bo'lib kelgan)[Ahmedov, 1985: 58-79]. Mavlono Qutbiddin Odam “*vaqtu zamonning Jolinusi, davru davroning Buqroti edi, oliymaqom amir Alisher (Navoiy)ning zo'r g'amxo'rliqi va e'tibori orqasida shon-shuhrat cho'qqisiga qadam qo'ydi* [Ahmedov, 1985:58-79]. Alisher Navoiy mulozimlaridan Amir Ibrohim Mashhadiy va Amir Shamsuddin Muhammad Ibn Amir Yusufkar amirning tarbiyati va muruvvatiga sazovor bo'lib, xonaqoh va madrasalarda dars bilan mashg'ul bo'lganlar hamda adabiy kechalarda ham ishtirok etganlar. Majlis ahlidan “*Amir Ixtiyoruddin Hasan ta'binin benuqsonligi, fahmu farosatining o'tkirligi, axloqu odobining yaxshiligi bilan tengqurlaridan ajralib turgan. Xol-ahvoli fiqh va ilohiyot hamda insho ilmi bilan ziynatlangan, lavhiga olihazrat amir Alisherning madh qilish, unga hamdu sano aytish yozilgan* [Ahmedov, 1985:58-79]”. O'z davrining donishmandlaridan Amir Murtazo “*iste'moldagi tamomi ilmlardan bahramand, hikmat va riyoziyot fanlari bo'yicha esa tengi yo'q olim*” bo'lib, she'riyat kechalariga kelib turgan. Sayyid Raziuddin esa “*oliyhazrat amir Alisherning fayzga to'la iltifoti bilan o'sib*”, majlislariga qatnashgan. Majlis ahlidan bo'lgan Amir Nizomuddin Mashhadiy esa fazilatpanoh amirning Ixlosiya madrasasi hamda Xalosiya xonaqohida ta'lim olgan bo'lib, oliy yig'inlarda nadimlik qilgan. Mavlono Kamoliddin Husayn Vo'iz “*ma'qul va maxsus barchasidan to'la naflangan va bahramand (bo'lgan). Uning balog'atoyotlik hamda fasohatsifatlik kitoblari ko'p va behisob bo'lib, ularning ko'pi oliymaqom Amir Alisher (Navoiy)ning atoqli nomi bilan ziynatlangan. Amir Alisherning inoyat va iltifoti ul janobning hol sahifasiga hammavaqt tushib turgan* [Ahmedov,

1985:58-79]”. Mavlono Kamoliddin Husayn Vo’iz Navoiy huzuridagi adabiy anjumanlarda ham har doim ishtirok etgan.

Temuriylar davrining yetuk olimlaridan *Mavlono Fasihuddin Muhammad Nizomiyga “qadimga dasturga binoan yana oliy yig’inlarda va’z aytishga ruxsat berdilar. Ul janob buni mamnuniyat bilan qabul qildi va har kuni sulton hazratlari yaqin do’shti (Navoiy)ning ostonasiga borib turdilar va diniy masalalarni tahqiq qilish bilan band bo’ldilar”*. U Alisher Navoiy oliy majlislarining nadimlaridan biri bo’lgan. Shoirilar sultonining yaqin suhbatdoshlaridan *“Mavlono Darvishali tabibga nisbatan iltifot va inoyatlari, ko’p muruvvat va siylashlari had-hisobsiz (bo’lgan). Mavlono Darvishali muammo fanida ham mahorat egasi (bo’lgan)* [Ahmedov, 1985:58-79]. U doimo Navoiyning muammo yechish majlislariga ishtirok etib kelgan.

Navoiyning do’stu azizlaridan bo’lgan *“Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy olijanoblighi, baland martabalilighi, zehnining sofliqi, ta’bining latifligi bilan mashhur (bo’lgan), doimo fasohatli baytlar va balog’at asarlik she’rlar yozib turgan. Uning qasidalarini, g’azallari va devoni mashhur (bo’lgan), masnu’ot va maknunotlari xalq og’zida mazkur (bo’lgan)*[Ahmedov, 1985:58-79]. *Yigitligidan oliyhazrat Amir Alisher (Navoiy) bilan uning o’rtasida birodarlik va yaqin suhbatdoshlik munosabatlari mavjud bo’lgan”*. Suhayliy doimo Alisher Navoiy majlislariga qatnashib kelgan.

Adabiy majlislarda doimo ishtirok etib kelgan *“Amir Kamoluddin Husayn Ali Jaloyir fahmu farosatining tezligi, ta’bining xushligi bilan sifatlangan, yaxshi xulqi va odobi bilan mashhur (bo’lgan). Ajoyib qasida yozib, unga rangin ma’nolarni kiritgan (Majlislarda o’qigan). Amir Alisher (Navoiy) ko’p mehribonligidan uni farzand deb atagan* [Ahmedov, 1985:58-79]”. U doimo adabiy majlislarda qatnashib, o’z qasidalarini o’qigan. Mavlono Abdulla Jomiy esa *“zamonning yirik shoirlari, hamma davrning mashhur fozillari jumlasidan (bo’lib), aziz vaqtining ko’p qismini yoqimli masnaviylar yozishga sarflagan”*. Abdulla Xotif Masnaviygo’y shoirilar sultonining yig’ilishlariga ham qatnashib kelgan [Ahmedov, 1985:58-79]”. “Xulosat ul-axbor”da yozilishicha, *“Mavlono Osafiy*

sogʻlom zehning sofliqi, mustaqim taʼbining zukkoligi bilan zamonaning tamomi shoirlari hamda baland martabali fozillaridan mumtoz (boʻlgan). Koʻp vaqt olihazrat amir Alisherning xos mulozimlari qatorida turgan”, mushoiralarida ham ishtirok etib kelgan [Ahmedov, 1985:58-79]”. Mavlono Sayfiyning “talaygina xos maʼoniylari hamda rangin sheʼrlari bor (boʻlgan). Koʻp vaqt Hirotda sokin va oliyshon Amir Alisherning inʼomu ehsonlaridan bahramand boʻlib, oliy majlislarida oʻz sheʼrlarini oʻqib kelgan [Ahmedov, 1985:58-79]”. Majlis nadimlaridan Mavlono Nizom Astrobodiy “zamon qasidagoʻylarining yetakchisi, oliyhazrat amir Alisher (Navoiy) madhida ajoyib qasidalarni nazm ipiga tizgan va sheʼrlarini majlis ahli hukmiga havola etgan [Ahmedov, 1985:58-79]”. Mavlono Ohiyning “ravon baytlari va pokiza sheʼrlari koʻp (boʻlgan). Bu shoir ham Alisher Navoiy inʼomlaridan bahramand boʻlib, adabiy yigʻinlariga qatnashib kelgan”. Mavlono Shahob va Mavlono Asiriylar oʻz muammolari bilan Alisher Navoiyning muammo yechish majlislarida qatnashib, qobiliyatlarini namoyon etishgan. Mavlono Shamsiddin Muhammad Badaxshiy “bagʻoyat xushsuhbat, shirin soʻz, xushchaqchaq, darvishvash, xush xulqlik, latif taʼb va fozil kishi (boʻlgan). Koʻproq muammo fanida katta mahoratga ega boʻlib, qariyb 30 yil baxtu saodatga choʻmib, olihazrat Amir Alisher (Navoiy)ning mulozamatida kun kechirgan [Ahmedov, 1985:58-79]”. Mavlono Shayx Abdulla Kotib “qariyb 45 yil oliyhazrat Amir Alisher (Navoiy) xizmatida (boʻlgan) va ul hazratning suhbat va doʻstligidan toʻla bahramand boʻlgan, doimo oliy majlisda mashhur fozillar va zariflar safida (turgan)”. Mavlono Nizomiddin Abdulhay Tabib ham “koʻp vaqtini olihazrat Amir Alisher (Navoiy) huzurida oʻtkazgan”. Mavlono Shamsuddin Muhammad Nigoron “koʻp muddat va uzoq zamonlardan beri yordamini ayamaydigan Amir Alisher (Navoiy)ga ixlos qoʻygan boʻlib, uning mulozamatida kun kechirgan. Ul janob barcha zarur ilmlarni mutolaa qilib, doimo ulugʻ olimlar va hurmatli shoirlar qatorida majlis peshqadamlaridan biri boʻlgan [Ahmedov, 1985:59]”. Mavlono Kamoluddin Shoh Husaynning “hol-ahvoli chehrasi fazilat va bilim bilan orasta, kamchilik va nuqsonlardan holi (boʻlgan). Aqlu hushini yigʻishtirib olgandan keyin Mavlono Shamsuddin Muhammad Badaxshiy vositachiligi bilan

oliyhazrat Amir Alisher (Navoiy)ning mulozamatiga yetishgan va ta'bining sofliги, zehning o'tkirligi tufayli uning iltifot va inoyatiga manzur bo'lgan. Ul hazrat Amir Alisher (Navoiy)ning maxsus xodim (majlis nadim)lari qatorida turgan [Ahmedov, 1985:58-79]". Alisher Navoiy oliy majlisi nadimlaridan Mavlono Fasihuddin Sohibdoro, "fe'l-atvori va xulqining yaxshiligi, ta'bining muloyimligi, zehning tozaligi bilan oliyhazrat Amir Alisher (Navoiy) mulozimlarining mumtozi (bo'lgan). Ajoyib qasidalar nazm qilishda, muammolar aytishda balog'atli va tengi yo'q (bo'lgan). (Oliy majlislarda) Nadimlik shevasini hamda suhbat qurishni yaxshi bilgan [Ahmedov, 1985:58]".

Alisher Navoiy majlislarida yangi she'rlar, g'azallar, qasidalar o'qish barobarida, xonandalar tomonidan Husayniy, Jomiy, Navoiy kabi shoirlar she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlar ijro qilingan. Xonanda va sozanda ahlining ko'pchiligi hamisha Alisher Navoiyning mulozamatida bo'lib, adabiy kechalarida xizmat qilganlar. "Xulosat ul-axbor"ga ko'ra, Hofiz Qozoq "yoshi ulg'ayib, oqu qorani ajratadigan bo'lib qolganda, Alisher Navoiy xizmatiga kirgan va uning diqqat-e'tibori orqasidan qonun chalishda tengi yo'q kishiga aylangan. Yaxshi ovozi bor (bo'lgan). (Majlislarda) Kattayu kichik uning sozi va ovozini eshitib, ko'p xushhol bo'lganlar [Ahmedov, 1985:60]". Ustod Sayid Ahmad "xushchaqchaq, xushsuhbat va shirin so'z kishi bo'lib, g'ijjakni yaxshi chalgan [Ahmedov, 1985:62]". Ustod Shohquli "ham g'ijjakchi bo'lgan. Sulton Husayn xizmatida martabasi baland bo'lib, yoshligida oliyhazrat Amir Alisher Navoiy xizmatida bo'lgan va ul sohib farosatning ishorati bilan ud va boshqa musiqa asboblari mashq qilgan, qisqa vaqt ichida buni to'la egallab olgan. Chunonchi, bir kuy tasnif etdikim, peshravi purkordir. Uning sozandalik va xonandalik shuhrati olamning tevarak-atrofiga yoyilgan. U Navoiy oliy majlislarida ham ud, qo'biz va g'ijjakni g'oyat ustalik bilan chalgan [Ahmedov, 1985:60]". Ustod Husayn "bolaligidan to yigitligi boshlarigacha sulton hazratlarining yaqin do'sti Amir Alisher (Navoiy)ning ostonasida bo'ldi va ul hazratning ko'rsatmasiga binoan, ud chalish bilan mashg'ul bo'ldi va qisqa vaqt ichida bu fanda to'la mahorat hosil qildi. Udni yaxshi chalgan, ovozi ud ovoziga nihoyatda mos bo'lgan [Ahmedov, 1985:58]".

Alisher Navoiy badiiy kechalarida xizmat qilib kelgan Ustod Shayxiiy Noiy “yoshligidan Amir Alisher (Navoiy)ning xizmatiga yetishib, oliy majlislariga ishtirok etib kelgan [Ahmedov, 1985:58-79]”. Oliy majlis ahlidan bo‘lgan Qozi Mas’ud Qumiy esa “*Iroqi Ajam ulug‘laridan edi. Mansur Hoqon zamonida tug‘ilib-o‘sgan vatani Qumdan Hirotga kelib, Amir Nizomiddin Alisher (Navoiy) xizmatlarini ixtiyor qilgan. Ash‘or nazmida mahoratli bo‘lgani uchun mansur hoqon (Sulton Husayn Boyqaro) o‘zining ahvolini nazm ipiga terishni unga havola qilgan. Xoja bu borada ikki mingga yaqin baytni bayon tizimiga kiritgan. “Yusuf va Zulayho”, “Munozarai shams va qamar”, “Tig‘ va qalam” qissalari ham uning manzumalari jumlasidandir. Bu matla’ qozi Mas’ud Qumiyning g‘azallar devonidan joy olgan. Bayt:*

Sensiz yig‘layverib uyqu eltadir,

Tush ko‘ribmankim meni suv eltadir [Xondamir, 2015:1077].

Alisher Navoiy “Soqiynoma”ning XXI bobidan boshlab, majlisining marhum va barhayot nadim-do‘stlari haqida so‘z yuritgan. XXII, XXIII, XXIV, XXV boblari Jomiy, XXVI bobi Sayyid Hasan, XXVI bobi esa Muhammad Pahlavon xotirasiga bag‘ishlangan. XXIX-XXXI boblarda esa shoir marhum hamsuhbatlari Piri Muammoiy, Xoja Kamol, Mir Saidlarni xotirlagan. U shuningdek “Soqiynoma”da majlisida ishtirok etib kelayotgan nadim - do‘stlarini tilga olgan:

Soqiyo do‘stlig‘ni ko‘rguzgil,

Do‘st koni qadahi yetkuzgil.

Kim kirar do‘stlarim yodimg‘a,

O‘t solur xotiri noshodimg‘a...

Birisi Piri Muammoiy edi,

Kim haram bodiya paymoyi edi.

Yana biri nag‘mazani sohibhol,

Ham aning hamqadami Xoja Kamol.

Mir Sadr o‘zni tutub ahli vifoq,

Lek ko‘p erdi bade‘ida nifoq.

Yor Tanbal edi sof u beg‘ash,

Zoti xush, hay'ati xush, nuktasi xush.
Yana bir Olimi Sabzavoriy edi,
Kim maoniy duru guftori edi.
Har bir o'z tavrda beshibhu nazir,
Bordilar borchas – ne aylay tadbir...
Kim agar bordilar andoq as'hob,
Yana jam'i ham erurlar ahhob.
Birisi Mir Atoiy yanglig',
Biri Darvesh Fanoiy yanglig'.
Ul biri ilm sipehri uza mehr,
Bu biri fazl quyoshida sipehr.
Ixtiyor ulki, erur nozuk tab',
Lutf maydoni aro chobuk tab'.
Osafiy ulki, ne nazm etsa raqam,
Qiymati mulki Sulaymondur kam.
Yana bir keldi Binoiyki funun,
Kasbida aylamadi man'i junun.
Yana bir dardu g'amim Ogohi,
Hamdamim, Yori Ziyoratgohi.
Yana bir Mashhadiy – ul dahrda toq,
Pok tahriru karimul-axloq.
Bir Shafe'iduru ul pok sifat,
Kim muammoda chiqarmishdur ot.
Birisi shorobi jomi tahqiqi,
Munisu rahbaru g'amxoru rafiq.
Yana Devonai Kotibki, xayol,
Tushsa, har g'amg'a qilur daf'i malol.
Yana ham bir nechadurlar goh-goh,
Lutf ila barchadin o'lsun ogoh.
O'zgasin qilmadim ondin mazkur,

Kim majolisda erurlar mastur.

Gar alar tutti esa dashti adam,

Shukr, bu xayl erurlar hamdam [Navoiy, 1965:435-437].

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida ham Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy adabiy majlislari ishtirokchilari nomlari zikr etilgan:

1. *Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Husayn Mirzo, Shohg‘arib Mirzo, Muhammad Husayn Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Ibrohim Husayn Mirzo, Muhammad Mo‘min Mirzo (va boshqa shahzodalar);*

2. *Abdurahmon Jomiy, Sayyid Badr (raqqos), Shayximbek Suhayliy, Hasan Ali Jaloyir, Xoja Abdulla Marvorid, Sayyid Hasan O‘g‘loqchi;*

3. *Mir Sarbarahna, Kamoliddin Husayn Gozurgohiy, Mir Murtoz, Mullo Mas‘ud Shervoniy, Mullo Abdulg‘afur Loriy, Mir Jamoliddin Muhaddis;*

4. *Mir Atoulllo Mashhadiy, Qozi Ixtiyor, Muhammad Mir Yusuf, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy;*

5. *Sayfiy Buxoriy, Abdullo Hotifiy, Mir Husayn Muammoiy, Mir Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy;*

6. *Muhammad Solih, Shoh Husayn Komiy, Hiloliy, Ahliy, Sulton Ali Mashhadiy, Behzod;*

7. *Shoh Muzaffar, Qul Muhammad Udiy, Shayxiy Noiy, Shohquliy G‘ijjakiy, Husayn Udiy, G‘ulom Shodiy, Mir Azu, Pahlavon Muhammad (kabi shoirlar va san‘at ahli* [Bobur, 1990:146-147]).

Navoiy oliy majlislarining asosiy xususiyatlaridan biri bu albatta unda birinchi navbatda mushoiralar, she‘rxonliklarni tashkil qilinganligidir. “*O‘tmish adabiy jarayonida mushoiralar muhim o‘rin tutadi, yana ham aniqrog‘i, o‘tmishda adabiy jarayon ko‘proq mushoira (she‘r majlisi, shoirlar anjumani) shaklida kechgan. Mushoiralarda shoirlar o‘z asarlarini taqdim etish, ular haqidagi o‘zgalar fikrini bilish, shuningdek, boshqa shoirlar bilan ijodiy fikr almashish, hamkorlik qilish imkoniga ega bo‘lganlar. Mumtoz adabiyotimizdagi bir qator janrlar, ayrim she‘r san‘atlarining yuzaga kelishi bevosita mushoiralar bilan bog‘lanadi: ularning bir qismi mushoira ishtirokchilarining bir –birlariga javob*

aytishi (tazmin, taxmis), boshqa bir qismi she'riy musobaqa (muammo, chiston, badiha) ruhi bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Mushoiralar dastlab san'at va adabiyotga mehr qo'ygan podsho saroylarida, ijod ahliga homiylik qilgan badavlat kishilar xonadonlarida o'tkazilgan. Xususan, Husayn Boyqaro saroyi va Navoiy xonadonida o'tkazib turilgan mushoiralar davr adabiyoti taraqqiyotining muhim omillaridan bo'ldi [Quronov.2010:210]”.

Albatta, Navoiy huzuridagi oliy majlislarda olimu adiblar va shoirlar yangi asarlari muhokama qilingan va bu borada shoirlar sultoni maslahatlariga quloq tutilgan: “..*Va o'ttuz yildin ortuq va qirq yilga yaqindurkim, Xuroson mulkikim, fazlu kamol ahlig'a olam mamalokining misri muazzami va savodi a'zamidur, bu mulkning jami' nazm ahli shuaroyi shirin kalomi va fusahoyi vojibul ihtiromi har ne, har ma'ni bilakim, avroq yuziga oroyish va har alfoz bilakim ajzo izorig'a namoyish beribdurlar, bu faqir(Navoiy) suhbatig'a yetkurubdurlar va bu zaif ollinda o'tkaribdurlar va haq va isloh iltimosin qilibdurlar va xotirg'a kelg'on nuktaki aytilibdur, insof yuzidin musallam tutubdurlar va gar ba'zi ibo qilibdurlar daloyil bila alarg'a xotir nishon qilibdur, andin so'ngra qabul qilib, o'zlarin shokir va mamnun bilibdurlar [Navoiy.2017:79]”.*

Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul – voqoe”sida keltirilgan quyidagi voqeadan Navoiy huzuridagi oliy majlislar mazmuni ma'lum bo'ladi: “*Mir(Navoiy) ovoz berdilar:*

-Azizlar (majlisga) kiringlar. Hech eshitmagan va xayolingizga kelmagan maqolatlardan eshitinglar!

Hamma jim bo'ldi. Mir Hofiz G'iyosiddin Dehdorga dedi:

-Lofu da'vo qilding. Endi izhorini qil!

Hofiz avval Qur'ondan ashara o'qidi. Majlis ahlining hushini oldi. Keyin g'azal o'qidi. Ashula boshladi – do'stu dushmani uning ovozig'a ofarinlar o'qidi. “Amir Hamza” qissasini boshladi. Keyin o'zi aytgan bir dostonni o'qidi va majlis ahli hushi yo'qoldi. Uni tugatib “Abomuslim” qissasini o'qidi – hammani sehrlab qo'ydi. Majlis oxirida “Dorob” qissasini boshladi. Bog'bon bilan uning g'ulomi

shu yerda turishgan edi. Ularning taqlidini qilib hammani quldirdi, ba'zilarga shunday ta'sir qildiki, kulaverib yumalab qoldilar.

Har kim har ilmdan bahs qildi. Bularga ham javob qildi. Hammadan g'olib keldi... Keyin Mir (Navoiy)ning buyrug'i bilan o'n besh qo'y keltirdilar. Boshqa kerakli asboblari ham keragicha hozirlandi. Hofiz tabbohlik qildi. Ovqati hammaga yoqib tushdi [Vosifiy.1979:99].

Zayniddin Vosifiyning o'zi ham Navoiyning adabiy majlislarida ishtirok etgan: *“Oliy majlis (Navoiy xonadonidagi yig'inlar nazarda tutilmoqda-muallif)ga kirib bordik. Majlis ahli va hazrati Mir(Navoiy) o'z nadimlari bilan hozir ekan. Janobi Mir biz tomon qaradilar. Faqirga (Vosifiy)ga ishora qilib, nomini aytmay o'qilgan muammoni yecha (Vosifiy) oladigan do'stimiz shu kishimi, dedilar. Mavlono Sohibdoro: bali, o'sha maxdum deb javob berdilar. Mavlono Muhammad Badaxshiy suhbatga aralashdilar: “Maxdumlar, xudavandigoro, muammo yechishda Sizdan o'tadigani yo'q-ku?...” Mir dedilar: “Men uning muammo yechishini ko'zidan bildim. Zero, uning fikrlari ko'zlarida zohir bo'lib turibdi. – Keyin shu muammoni o'qidilar:*

Bog'ro bin az xazon befarru, sarv az jo shuda,

Bulbulash barham zada minqoru, nogo'yo shuda.

(Mazmuni: Bog'ini ko'r, xazonrezlikdan ko'rki qolmabdi, sarv o'rnida yo'q, bulbulning tumshug'i yo'q bo'lib, kuylashdan qolibdi).

Mir (Havouï) o'qigan muammoni men yod bilardim. O'ylanib qoldim: nomini aytib, o'zimni go'llikka solib, majlisni o'tkazaversammi yoki to'g'risini aytayinmi? Oqibatda rostini aytishga ahd qildim.

Hazrati Mir (Navoiy) boshlarini egib turdilar, yonidagilarga, azizlar, bilasizlarmi, buning so'zi ne ma'noni bildiradi. O'z qudratini izhor etib, bunisini bilaman, boshqasini ayting, demoqchi, biz buning da'vosini qabul qilurmiz, dedilar [Vosifiy.1979:99].”

Oliy majlis ishtirokchilaridan biri bo'lgan G'iyosiddin Xondamir “Xulosat ul-axbor”da uning o'zi ham Navoiy majlislarida hikoyatlar aytganini yozib qoldirgan: *“Ulug' amir, hidoyatpanoh, karomatli Ruhning muayyidi (aksi),*

so'fiysifat, sof niyatli ro'zgor pokizasi, musulmon marosimlarini ulug'lovchi, saltanat ustuni va mamlakat tayanchi, hoqon davlatining ishonchli kishisi, sultonning yaqini, ulkim, saxovat dasturxonidan barcha muhtoj to'q, haq va haqiqatu din nizomi Amir Alisher (Navoiy)ning sharif majlisida hikoyatlar so'ylar edim. Ul janob mening hikoyatlarimdan zavqlanar edilar va hazratning turli inoyatlari bu qanoti siniq banda ahvoli ruhiyatiga issiqlik baxsh etardi. Kundan-kunga bu hol ko'payar va soat sayin yuksaklikka ko'tarilar edi".

Navoiy huzurida bunday yig'inlar tez – tez tashkil qilingan. Biz keltirgan misollar dengizdan bir tomchi, xalos.

Xo'sh, Navoiy huzuridagi adabiy majlislarda qanday she'rlar o'qilgan, degan savol tug'iladi.

Manbalar Navoiy she'riyat kechalarida badihalar (ruboiylar, qit'alar), tatabbu'lar (boshqa shoirlar she'rlariga naziralar, payravlar, o'xshatmalar), yangi qasidalar va yangi g'azallar, ayrim hollarda ta'rixlar va marsiyalar, muammolar, lug'zlar, hikoyatlar, qissalar (masnaviylar ko'rinishida) o'qilganidan dalolat beradi

Alisher Navoiy xonadonidagi yig'inlarning Husayn Boyqaro oliy majlislaridan farqi shundaki, Navoiy sinovidan o'tgan shoiru hofizlar, qissaxonu, qasidago'ylar, muammo ilmida tengi yo'qlar, boringki, turli xil sohadagi yuksak iste'dod sohiblari podshoh oliy majlislariga tavsiya qilingan. O'z navbatida aytish lozimki, Navoiy adabiy majlislari o'z davri adabiyotining rivojida, shoirlar kamolotida muhim o'rin tutgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 1 – 10 jildlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 1 – 20 jildlar - Toshkent: Fan, 1983 – 2003.

3. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.79.

4. Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis-un-nafois. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – B.435-437.

5. Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. To'rtinchi tom. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – B.435-437.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B.20-24.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. –B.146-165.
8. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.210.
- 9.Ahmedov B. Davlatshoh Samarqandiy. –Toshkent: Fan, 1967.-B.79-80.
- 10.Atoullloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'.Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – Toshkent: G'.G'ulom, 1981. – B.49.
- 11.Zayniddin Vosifiy. Badoe'ul vaqoe'. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – Toshkent: G'.G'ulom, 1979. – B. 216.
- 12.G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-ahloq. – Toshkent: G'.G'ulom, 2015. – B. 208.
- 13.G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 1077.
- 14.Navoiy zamondoshlari xotirasida. Tuzuvchi: B.Ahmedov.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – B.224.
- 15.Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. («Tazkirat ush-shuaro»dan). Fors – tojik tilidan B.Ahmedov tarjimasi. – Toshkent: G'.G'ulom, 1981. – B.188-197.
16. Davlatshohi Samarqandiy. Tazkiratu-sh-shuaro. – Xo'jand: Noshir, 2015. – S.544.
17. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik tekstologik tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B.326.

NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

Shahnoza TO‘LAGANOVA,

TDSHU o‘qituvchisi, PhD

Til va tafakkur munosabati masalasi zamonaviy kognitiv tilshunoslikning markaziy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Biroq bu g‘oya faqat XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan emas, balki qadimiy Sharq va G‘arb ilmiy merosida ham chuqur ildizlarga ega. G‘arb tilshunoslik an‘analarida **Vilgelm fon Gumboldt** tilni “xalq ruhi”ning ifodasi, inson tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiruvchi vosita sifatida ta’rifladi. Keyinchalik **Ferdinand de Sossyur** tilni belgilar tizimi sifatida tahlil qilib, ma’no va shaklning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi, **Charlz S. Pirs** esa semiotikada belgi – obyekt – interpretant triadasini ishlab chiqdi. Shuningdek, **Lev Vygotskiy**ning tafakkur va tilning o‘zaro ta’siri haqidagi nazariyasi kognitiv yondashuvning psixologik asoslarini belgilab berdi.

Sharq ilmiy an‘analari ham bu masalada boy meros qoldirgan. Jumladan, **balog‘at ilmida** til nafaqat badiiy san‘at va ifoda vositasi, balki tafakkurni shakllantiruvchi, inson idroki va ruhiyatini aks ettiruvchi hodisa sifatida talqin qilingan. O‘zbek mumtoz adabiyoti dahosi **Alisher Navoiy** asarlarida ham so‘zning inson tafakkuridagi o‘rni, uning idrok va ma’naviy olamga ta’siri haqida chuqur mulohazalar uchraydi. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da til milliy tafakkurni ifodalovchi vosita sifatida talqin etilib, xalqning ruhiyati va dunyoqarashi bilan bevosita bog‘lanadi. Bu jihatdan Navoiy qarashlari Gumboldtning “til – xalq ruhi” haqidagi konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi, hatto undan oldinroq shakllanganini ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, kognitiv tilshunoslik XX asrda fan sifatida mustaqil shakllangan bo‘lsa-da, uning nazariy ildizlari qadimiy Sharq va G‘arb tafakkuri tarixida mavjud bo‘lgan. G‘arb klassiklari tilni belgi, tafakkur va idrok bilan bog‘lagan bo‘lsalar, Sharq mutafakkirlari, xususan, balog‘at ilmi va Navoiyning qarashlari tilning ruhiy-ma’naviy olamdagi o‘rnini yoritgan. Demak, kognitiv

yondashuv aslida umumjahon tafakkurining qadimiy va uzluksiz rivojlanish mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiy ijodi keng qamrovga ega. Xususan, "Muhokamtu-l-lug'atayn" asarida chog'ishtirma tilshunoslikka oid qimmatli fikrlarni berib o'tadi. Shuningdek, bu asarda til tarixi, tipologiyasiga oid fikrlar bilan birga til va tafakkur bog'liqligi xususida ba'zi mulohazalarni berib o'tadi.

Söz durredur-kim, anîj daryāsî köñüldür va köñül mazharedur-kim, jām'i maāni-yi juzv-u kulldur (So'z bir dur bo'lib, uning daryosi ko'ngildir. Ko'ngil shunday bir o'rin bo'lib, unda mayda va yirik ma'nolar to'plangan) [1, 55].

Navoiy so'zni durga, ko'ngilni dengizga o'xshatadi. Dengiz ko'ngilga o'xshatilganda, uning qimmatli narsani saqlaydigan makon semasi asosiy o'ringa chiqadi. Chunki, ko'ngil ham so'z kabi qadrli narsani o'zida saqlaydi. Shu o'rinda ko'ngil so'ziga e'tibor qaratish lozim. Bu so'z Navoiy asarlari tili izohli lug'atida qalb, dil, ko'ngil ma'nolari bilan birga xotir, yod, fikr ma'nolari ham ko'rsatilgan[2, 151]. So'zning nutqgacha bo'lgan holati inson tafakkurida kechadi. Demak, bu o'rinda Navoiy ko'ngil deganda tafakkurni nazarda tutgan. Navbatdagi so'z maoniy – ma'nolar. Bu so'z bugun biror so'z anglami tarzida ko'p ishlatiladi. Biroq so'z anglami – sema sifatida bu so'z faqatgina leksik shaklga kirgan birliklarga nisbatan ishlatiladi. Lekin, bu o'rinda ko'ngildagi ma'nolar xususida gap borgan. Demak, ma'no so'zining boshqa angamlarini qidirish lozim. Arab tiliga oid lug'atlarda bu so'zning quyidagi izohlari berilgan:

1) Muayyan so'zdan tushuniladigan **mazmun**

2) Lafz dalolat qiluvchi **narsa**

3) Muayyan lafz xususidagi zehniy (zehndagi) **tasavvur**

4) Lafzdan ko'zlangan **maqsad**

5) Maoniy (ko'plik siyg'asida): insondagi **maqtovg'a sazovor sifatlar**.

Masalan: "Falonchining "maoniy"si go'zal", deyiladi, ya'ni "axloqi go'zal".

المعاني: ما للإنسان من الصفات المحمودة؛ يقال: فلان حسن المعاني.

6) “Maoniy” ilmi: balogʻat ilmining bir shuʻbasi. Bu ilm orqali vaziyat taqozosiga muvofiq boʻlgan arab lafzlarining holatlari oʻrganiladi. (Chunki soʻzlarning oʻrinlari turlicha va suratlari oʻzgaruvchan xususiyatga ega)[3].

Jumladagi maʼoniy uchun soʻzning *muayyan lafz xususidagi zehniy (zehndagi) tasavvur* izohi mos keladi. Darhaqiqat, nutqqacha boʻlgan jarayonda tushunchalar tafakkurda mavjud boʻladi. *Köñül mazharedur* yaʼni tafakkur tushuncha kabi mental tuzilmalar qaror topadigan joy. Yana *köñül* (tafakkur) *juzv* va *kull* maʼnolarning jamlovchisidir. *Juzv* – qism, boʻlak maʼnosini anglatib unda kichiklik semasi ustundir. *Kull* esa umumiy va barcha maʼnosi bilan katta semasini oʻz ichiga oladi. Kichik va katta tushunchalar bugungi tilshunoslikdagi *tushuncha* va *konsept* kabi mental hodisalarni nazarda tutadi. Tushuncha va konsept borasida kognitiv tilshunoslikda yirik tadqiqotlar mavjud. Ularga oid quyidagi izohlar maʼlum qilingan:

“Tushuncha – mental tuzilma, u aqliy faoliyatning oʻziga xos shaklidir” [4, 15].

“Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy maʼno umumlashmasi yotadi” 4, 15].

Tahlillar natijasida Navoiy yuqoridagi jumlada *tafakkur lisoniy birliklarni oʻz ichida tushuncha va konseptlar koʻrinishida saqlaydi* degan fikrni uqish mumkin. Bu esa bugun zamonaviy tilshunoslikda yangrayotgan quyidagi fikrlarga hamohangdir:

“Lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati orqali shakllanadi”[4, 12]

“Lisoniy faoliyat faqatgina insonga xos faoliyatdir hamda u yana bir insonga xos boylik – tafakkur bilan bogʻliqdir”[4, 12].

Navoiyning kognitiv tilshunoslikka oid yana boshqa fikrlarini asar boʻylab topish mumkin. Shunday fikrlarning ayrimlarini biz Gʻarb klassik tilshunoslarining muhazalari bilan qiyosan oʻrgandik va natijada fikrlar uygʻunligining guvohi boʻldik.

Peirce triadasi va Navoiyning *maʼnā-alfāz-maʼnā* uchligi

Charles Sanders Peirce (1839-1914) semiotikaning asoschilaridan biri boʻlib, u semiotikadagi *belgini* tushuntirishda “**belgi (sign) – obʻekt (object) –**

interpretant (talqin)” uchligini ishlab chiqqan. Bu modelni ko‘pincha **Peirce triadasi** deb atashadi.

1. Belgi (Sign)

Belgi – bu o‘zidan tashqarida bo‘lgan narsaga **ishora qiluvchi** shakl. Masalan, so‘z, rasm, imo-ishora yoki tovush belgidir. Belgi o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan narsaga ishora qiladi, lekin o‘sha narsaning o‘zi emas.

2. Ob‘ekt (Object)

Ob‘ekt – belgi ishora qilayotgan narsa yoki hodisa. Masalan, “daraxt” so‘zi belgidir, uning ob‘ekti esa **haqiqiy daraxt** yoki tushunchadagi daraxt bo‘lishi mumkin.

3. Interpretant (Talqin)

Interpretant – bu belgi va ob‘ekt orasidagi **ma’noni tushunish jarayoni** yoki ongda shakllanadigan tushuncha. Masalan, kimdir “daraxt” so‘zini eshitganda ongida daraxtning tasviri yoki tushunchasi paydo bo‘ladi – bu interpretantdir[5].

Huddi shu talqinni Navoiyning quyidagi jumlasini bilan qiyoslaymiz: *Ma’nā adāsida alfāz tilgā kelūr va ul alfāzdīn ma’nā fahm bolur* (Ma’no so‘z orqali ifoda qilinadi va u so‘zlardan ma’no anglashiladi).

Ushbu jumlada u til jarayonining ikki tomonlama xususiyatiga e’tibor qaratadi. Bir tomondan, inson ongidagi mazmun (“ma’nā”) so‘zlar (“alfāz”) orqali tashqi shaklga chiqadi; ikkinchi tomondan esa, ushbu so‘zlarni qabul qilgan tinglovchi ulardan ma’no anglaydi. Demak, Navoiy tilda mazmun–belgi–anglash jarayonining dialektikasini ta’kidlaydi.

Charles Sanders Peirce ishlab chiqqan semiotik triada ham xuddi shu jarayonni uch tarkibda izohlaydi: **belgi shakli (representamen)** – bu tashqi ifoda, masalan, so‘zning o‘zi; **obyekt** – belgining ishora qilayotgan narsa yoki tushunchasi; **interpretant** – belgi va obyekt o‘rtasidagi bog‘lanishdan ongda paydo bo‘ladigan anglangan ma’no.

Navoiy ifodasida “*alfāz*” Peircening **belgi shakliga** mos keladi. Ular orqali ko‘rsatilayotgan “*birinchi ma’no*” – bu aslida **obyekt**, ya’ni so‘zning ko‘rsatgan tu-

shunchasi yoki narsa. Jumladagi keyingi *ma'no* so'zi esa Peirce nazariyasidagi **interpretant**ni eslatadi, ya'ni tinglovchi ongida hosil bo'ladigan anglangan mazmun.

Shunday qilib, Navoiyning til va ma'no haqidagi mulohazalari semiotik jarayonni Peirce ta'riflagan triada bilan uyg'unlikda ko'rsatadi. Demakki, Sharq mutafakkiri tilning mazmunni tashuvchi va uni anglash imkonini beruvchi vosita ekanini ilgari surar ekan, aslida keyinchalik semiotika nazariyasida ishlab chiqilgan konseptual modelga yaqin fikrni ilgari surgan.

Sossyurning “significant-signifié” va Navoiyning “*alfāz-u 'ibārat-ma'nā*” haqidagi qarashlari

Navoiyning quyidagi fikri Čun *alfāz-u 'ibāratdīn murād ma'nādur* hozirgi tilshunoslarning So'z, huddi boshqa til birliklaridek, alohida bir predmetni yoki voqelikni atovchi oddiy bir yorliq bo'lmasdan, balki voqelikni bilish vositasidir kabi fikrlariga hamohangdir.

Alisher Navoiy tilning asosiy vazifasini belgi va ma'no munosabatida ko'radi. U “Čun *alfāz-u 'ibāratdīn murād ma'nādur*” deb yozar ekan, so'z va iboralarning asl maqsadi ularning tashqi shaklida emas, balki ular orqali ifodalanadigan mazmunda ekanini ta'kidlaydi. Bu qarash til belgisi doimo ichki ma'noga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Ferdinand de Sossyur esa tilshunoslik nazariyasida belgining ikki tomonini farqlaydi: **signifiant** – belgining shakliiy qismi (tovush yoki yozuv ko'rinishidagi ifoda), va **signifié** – belgining mazmuniy qismi (ongda aks etuvchi tushuncha). Saussurega ko'ra, bu ikki qism bir-biridan ajralmas holda mavjud bo'lib, til belgisi faqat ularning birligida yashaydi [6].

Navoiyning yuqoridagi fikri bilan Saussurening belgilar haqidagi konsepsiyasi o'rtasida yaqinlik mavjud. Navoiy so'z va iboralarning mohiyatini ularning tashqi shaklida emas, balki ular orqali anglashiladigan ma'noda ko'radi. Saussure ham belgining shakli (signifiant) o'z-o'zicha hech qanday qimmatga ega emasligini, balki uning qiymati mazmun (signifié) bilan bo'lgan munosabatida yuzaga chiqishini uqtiradi.

Demak, Navoiy ham, Sossyur ham tilning markazida **mazmun** turishini ta'kidlashadi. Farqi shundaki, Saussure buni nazariy model sifatida belgi ikki tomonliligi orqali ilmiy asoslab bergan bo'lsa, Navoiy buni badiiy-falsafiy ifodada ilgari suradi. Shu bois, Navoiy fikrlarini semiotika va struktur tilshunoslik nazariyalarining dastlabki intuitiv ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

Navoiy va Lakof: so'z hosil bo'lishida inson tajribasi masalasi

Alisher Navoiy turkiy tildagi so'z yasashning tabiiy jarayonlarini shunday sharhlaydi: *Newčün-ki, türk alfāzinīñ vādi'ī asru köp vaqtda mubālağa qīlīp, juz'ī maḥmūt üçün alfāz vad' qīlīpdur-ki, sāhib- vuquf kiši tā zāhir qīlmas, inansa ham bolmas* (Chunki turk so'zlarini yaratuvchi juda ko'p vaqtda mubolag'alar qilib mayda ifodalar uchun so'zlar yasabdirki, to biluvchi kishi anglatmasa, bunday narsalarga ishonish ham mumkin bo'lmaydi).

Ushbu jumlada Navoiy til taraqqiyotidagi ikki shaxs haqida gapiradi: 1. *vādi'* – tafakkurdagi tushuncha va bilimlarni kodlovchi, shakl beruvchi shaxs; 2. *sāhib-vuquf kiši* – so'z shakliga kirgan tushunchalarni talqin qilib beruvchi mutaxassis.

Navoiy turkiy tilde elementar narsa va hodisalar uchun nom berilganini, ba'zi hollarda esa so'zlarning ma'nosini mutaxassis izoh bermasa oddiy kishilar anglay olmasligini ta'kidlaydi. Bu fikr tilning inson tajribasi bilan uzviy aloqadorligini, ya'ni tajribaviy voqelikni ifodalashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Xuddi shu nuqtai nazar zamonaviy kognitiv tilshunoslikda ham o'z ifodasini topgan. George Lakoff va Mark Johnson o'zlarining mashhur "Metaphors We Live By" asarida shunday yozadilar:

Metaphor is pervasive in everyday life, not just in language but in thought and action. Our ordinary conceptual system, in terms of which we both think and act, is fundamentally metaphorical in nature [7].

Bu iqtibosdan ko'rinadiki, til nafaqat kommunikativ vosita, balki inson tajribasi va dunyoni idrok etish tarzini aks ettiruvchi kognitiv mexanizmdir. Lakoffga ko'ra, kundalik tushuncha tizimimiz metaforik tuzilishga ega bo'lib, bu

bizning voqelikni qanday tushunishimizni va uni til orqali qanday ifodalashimizni belgilaydi.

Demak, Navoiy va Lakoff qarashlari o'rtasida umumiylik mavjud: ikkisi ham tilning markazida inson tajribasi va uni anglash jarayoni turishini ta'kidlaydi. Navoiy buni tilning tabiiy so'z yasash imkoniyatlari va ma'no qatlamlarining murakkabligi orqali ochib bergan bo'lsa, Lakoff buni kognitiv metafora nazariyasi orqali ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shu bois, Navoiyning til va ma'no haqidagi qarashlarini kognitiv lingvistikaning konseptual asoslari bilan bog'lash mumkin.

Alisher Navoiyning "*Čun alfāz-u 'ibāratdīn murād ma'nādur*" va "*Ma'nā adāsida alfāz tilgā kelūr va ul alfāzdīn ma'nā fahm bolur*" kabi fikrlari tilda shakldan ko'ra mazmunning ustuvorligini ko'rsatadi. So'zning asosiy vazifasi – inson ongidagi mazmunni tashqi shaklda ifodalash va uni tinglovchiga yetkazishdir.

Navoiy qarashlari Ferdinand de Sossyurning signifiant–signifié konsepsiyasi bilan hamohangdir. Saussure belgining shakliy (ifoda) va mazmuniy (tushuncha) tomonlari ajralmas birlik ekanini ta'kidlasa, Navoiy ham so'zning qiymati u orqali anglashiladigan ma'noda ekanini ko'rsatadi.

Charles Sanders Peirce'ning belgi–obyekt–interpretant triadasi Navoiyning qarashlari bilan bevosita bog'liqdir. Navoiyning *alfāz* atamasi – belgi shakli, *birinchi ma'no* – obyekt, *fahm bolur* – interpretant sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu esa Sharq tafakkurida semiotik jarayonlarning intuitiv tarzda ilgari surilganini ko'rsatadi.

George Lakoff va Mark Johnsonning "Metaphors We Live By" asaridagi til – inson tajribasini ifodalovchi va metaforik konseptlar asosida tuzilgan kognitiv vosita ekanligi haqidagi fikrlari Navoiyning tilning tajribaviy hodisalarga nom qo'yishi haqidagi mulohazalari bilan uyg'unlashadi. Har ikki qarashda til va inson tafakkuri uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi.

Navoiy fikrlari Sharq mutafakkirlarining til haqidagi qarashlari zamonaviy semiotika va kognitiv lingvistika nazariyalari bilan bevosita aloqadorligini ko'rsatadi. Bu esa til falsafasi va lingvistik merosni global ilmiy tafakkur doirasida yan-

gicha talqin etishga imkon beradi. Yuqoridagi tahlillar natijasida “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asaridan kognitiv tilshunoslikka oid ayrim atamalarni taklif qilamiz:

Ma’no – 1. sema, 2. Tushuncha; 3. Tushuncha ishora qilgan ob’jekt

Juz-i mavhumot – tushuncha

Ma’oniy (Kull) – konsept.

Vad’ qil- lisoniy verballashuv

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. – Тошкент: Академнашр, 2017.

2. Алишер Навоий асралари тилининг изохли луғати. II том. – Тошкент: Фан, 1983 151

3.https://archive.org/details/20230219_20230219_1908/page/0/mode/2up,
<https://www.noorbook.com/%D9%83%D8%AA%D8%A7%D8%A8%D8%A7%D9%84%D9%85%D8%B9%D8%AC%D9%85%D8%A7%D9%84%D9%88%D8%B3%D9%8A%D8%B7-pdf>

4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.

5. Peirce C. S. *Collected Papers of Charles Sanders Peirce*.
<https://colorysemiotica.wordpress.com/wp-content/uploads/2014/08/peirce-collectedpapers.pdf>

6. SaussureFerdinand de. *Cours de linguistique générale*.
https://monoskop.org/images/f/f1/Saussure_Ferdinand_de_Cours_de_linguistique_generale_Edition_critique_1997.pdf

7. George Lakoff, Mark Johnson. *Metaphors we live by*. – Chikago: The University of Chikago Press, 1984

“MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASINING STRUKTURASI

Shamsiya ATOYEVA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Hazrat Alisher Navoiy va uning ijodiy merosi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki boshqa turkiy xalqlar adabiy muhitida ham asosiy o‘rin egallaydi. Navoiygacha va undan keyingi davrda ham turkiy xalqlar adabiyotida uningdek daho ijodkor bo‘lmagan. Hazrat Navoiy ijodida Vatan va millat, siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan tortib bugungi kun uchun dolzarb sanalgan odob-axloq, ta’lim-tarbiya muammolari ham qalamga olinganligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotshunos olim K.Quramboyev ta’kidlaganidek, adabiy aloqalar va ta’sirlar masalasi adabiyotlar taraqqiyotini kafolatlaydigan omillardan biri ekani isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Jahonda biror adabiyot yo‘qki, faqat o‘z qobig‘ida, o‘z adabiyoti an‘analari doirasida boshqa milliy adabiyotlarning ilg‘or tajribalariga tayanmagan holda rivojlanib, o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan bo‘lsin⁵⁰. Shu jumladan Alisher Navoiy temuriylar davridagi madaniy hayotni muntazam kuzatib borgan, fan, adabiyot, san’atni rivojlantirishga bel bog‘lagan buyuk mutafakkir sifatida o‘z davridagi ijod ahli bilan bog‘liq ma’lumotlarni bir majmuaga birlashtirish, ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1490-1491-yillarda o‘zbek tilida “Majolis un-nafois” tazkirasini yaratishga kirishadi. Asarning qo‘lyozma nusxalaridagi turli tafovutlar muallif 1498 -yilgacha undagi ma’lumotlarni o‘zgartirib borgan, ayrim o‘rinlarni qayta to‘ldirganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda Navoiy ushbu asarini 1491 – 1498-yillar davomida yaratgan deyish to‘g‘ri bo‘adi.

Navoiy tazkiradagi majlislarga shoirlarni taqsimlashda xronologik, geografik va sulolaviy tamoyillarga tayanadi. Masalan, birinchi majlisdagi

⁵⁰ Kuramboyev K. Adabiy aloqalar-milliy adabiyotlar taraqqiyotining qonuniyatlaridan biri// http://uzadab.ndpi.uz/adabiy_aloqlar.html

shoirlarning tazkira tuzilayotgan vaqtda hayot bo'lmaganliklari, ikkinchi majlisda keltirilgan shoirlarning faoliyati muallifning ko'proq bolalik paytiga to'g'ri kelishi, uchinchi majlisning asosan zamondosh shoirlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi, beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Samarqand, Xorazm, Qarshi, Badaxshon va boshqa shaharlardan chiqqan qalam ahlari haqida so'z ketishi, yettinchi va sakkizinchi majlislarning asosan temuriylar sulolasiga mansub ijod ahliga bag'ishlanganligi fikrimizni dalillaydi. Shundan kelib chiqib, tazkiradagi shoirlar majlis, ya'ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175 ta, 4-majlisda 72 ta, 5-majlisda 21 ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta va 8-majlisda Sulton Husayn Boyqaro bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Tazkiraning 1-majlisi "Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlari sharafiga musharraf bo'ldim" degan nom bilan ta'riflanib, bunda Alisher Navoiy o'z tazkirasini Xoja Qosim Anvor zikri bilan boshlaganligiga guvoh bo'lamiz.

"Ul jumladin, soliki atvor va koshifi asror, ya'ni Hazrat Amir Qosim Anvor (quddisa sirruhu)dur. Har necha alarning rutbasi shoirliq poyasidin yuqoriroqdur va valoyat ahli zumrasida vasfdin toshqariroq, ammo chun haqoyiq va maorif adosida nazm libosi dilpazirroq uchun iltifot qilur ekandurlar, tayammun jihatidan bu muxtasarni alarning sharif ismlari bila ibtido qilildi".

Tazkirada Mirning asli Ozarbayjondan ekanligi va yigitligida Sadriddin Ardabiliyga shogird bo'lib, so'fiylik ilmi, odobini undan o'rganganligi qayd etilgan. Shuningdek, Hazrat Navoiy "Ravishlari pok erdi va nafaslari otashnok. El bag'oyat alar nazmlarig'a moyil va she'rlarini o'qumoq va bitmakka rog'ib bo'ldilar. Har ovinakim, devon jam' qilurg'a bu amr bois bo'ldi va "Anis ul-oshiqin" otlig' muxtasarroq masnaviy ham nazm qildilar" deya ularning she'riyatda ixlosmandliklarini ta'kidlab o'tadi.

Shoirning o'zi ham yoshligida uch yosh bilan to'rt yoshning orasida dastlab yod olgan she'ri Qosim Anvorning qalamiga mansub ekanligini eslab, o'sha baytni keltiradi:

Rindemu oshiqemu jahonso 'zu joma chok,

Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok.

(Mazmuni: Rindmiz, boshiqmiz olamga o't qo'yuvchi benavolarmiz,

Sening g'aming davlatidan olam fikridan yiroqmiz.)

Hazrat Navoiy Qosim Anvordan so'ng u kishining shogirdlari Mir Maxdum va Hofizi Sa'd, o'z navbatida, Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" va arab shoiri Ka'ba ibni Zuxayrning (7-asr) "Qasidai burda" asarlariga xorazmiycha turkiy til bilan sharh yozgan Mavlono Husayn Xorazmiylar haqida fikr yuritadi.

Birinchi majlis davomida Shamsuddun Muhammad ibn Abdulloh (yaxshi xattot bo'lganligidan Kotibiy taxallusini olgan), ya'ni Mavlono Kotibiyni ham eslab, uning "Qasidalar devoni", "G'azallar devoni" va "Xamsa"si mashhur ekanligi ta'diklab o'tiladi. Uning mashhur baytlaridan namunalar keltiradi:

Zi chashmu dil badani xokiyam dar otashu ob ast,

*Ba chashm binu ba dil rahm kunki, kor xarob ast*⁵¹.

Hazrat Navoiy 1436-1440-yillar mobaynida "Xamsa" an'anasini davom ettirgan Mavlono Ashrafni ham hurmat bilan tilga oladi. Uning "Xamsa"si tarkibi "Minhoj ul-abror", "Riyoz ul-oshiqayn", "Shirin va Xusrav", "Ishqnoma" yoki "Layli va Majnun" va "Haft avrang", "Zafarnoma" kabi dostonlardan tashkil topgan. Shoirning to'rtta she'rlar devoni va "Sad pandi Ali" nomli Hazrat Ali hikmatlarining tarjimasi bo'lgan manzumasi ham mavjud. Aftidan, bu oxirgi asari Navoiyning "Nazm ul-javohir" nomli asariga o'xshash ko'rinadi. Shoir "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Ashraf haqida yozadi va Hirotda bo'lganini ta'kidlaydi. Shoir "Xamsa" ustida uzoq yillar mehnat qilgani va nihoyat tugallashga noil bo'lgani xususida Navoiy Ashrafning quyidagi baytini keltiradi:

Az sharaifi vasli tu Ashraf shudem,

*Davlati mo bud musharraf shudem*⁵².

⁵¹ Navoiy A. To'la asarlar to'plami. 9-jild,-Toshkent, 2013.-295 b

⁵² Navoiy A. To'la asarlar to'plami. 9-jild,-Toshkent, 2013.-674 b

Tazkira davomida “Xuroson mulking rangin fozili erdi, ko‘p ulum va fununda mohir erdi. Sanoye’ va aruz fanida barcha el ani musallam tutarlar erdi. Aning tab’i diqqatini har kishi bilay desa “Shabistoni xayol” degan kitobini ko’rsun”, deya Mavlono Yaxyo Sebak ta’riflanadi. Shuningdek, “bu faqir aruz fanida vosita bila Mavlononing shogirdiman” jumlasini orqali Hazrat Navoiy mashhur aruzshunos Darvesh Mansurdan aruz ilmini o’rgangani va u esa Yahyo Sebakning shogirdi bo’lganiga ishora qilyapti.

Tazkiraning ikkinchi majlisida “ul jamoati azizlar zikradakim, faqir alardin ba’zining mulozamatig’a kichiklikda yetibmen va ba’zining suhbatiga yigitlikda musharraf bo’libmen, alar sitta va tis’ina va samona mia ta’rixidakim, bu muxtasar bitiladur, bu fano dorgohidin baqo oromgohiga boribdurlar”, ya’nikim shoir bolaligi va yigitligida suhbatlariga musharraf bo’lgan shoirlar haqida hikoya qiladi. Ushbu majlis mashhur tarixchi “Zafarnoma” asarining muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy zikri bilan boshlanadi. Shohruh sulton zamonida shoir oilasi bilan Xurosondan Iroqqa borayotganida Taft shahrida mashhur olim bilan ko’rishib qolganini eslaydi. O’sha paytda Hazrat Navoiy endigina olti yoshda edi. Zehnining o’tkirligi va hozirjavoblighi bilan tarixchi-olimni lol qoldirgani tahsinga sazovor, albatta.

Hazrat Navoiy tazkiraning 2-majlisi davomida o’z davrining mashhur shoirlar: Mavlono Lutfiy, Yaqiniy, Atoyi, Muqimiy, Sakkokiylar haqida ma’lumot berib o’tadi.

Tazkiraning 3-majlisi “Alar zikradim, holo zamon sahoifida maoniy abkori alarning daqiq, ta’blari hullaboflig’idin nazm libosi kiyadur, nazm libosi alarning amiyq zihnlari mo’yshikoflig’idin san’at va salosat naqsh va nigore topadurkim, ba’zining mulozamatig’a musharraf va sarbaland va ba’zining musohabatidin xushnud va bahramanddur biz”, ya’ni o’z zamoni she’riyatiga yuksak hissa qo’shgan nozik ta’bli shoirlar haqida bo’lib, Abdurahmon Jomiy ta’rifi bilan boshlanadi. Uning ruboiysidan namuna keltiradi:

Yo Rab, bu maoniy durining ummoni,

Bu donishu fazl gavharining komi

Kim, aylading oni olam ahli joni,

Olam eliga bu jonni tut arzoniy.

Maljisdagi, shuningdek, Amir Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Osafiy Hiraviy, Zova Qozisi kabi “Xamsa” dostoniga tatabbu’ bitgan ijodkorlar, Mavlono Sayfiy Buxoriy kabi muammo va aruz ilmiga oid risola bitgan ijodkor hamda Kamoliddin Binoiy, Gadoiy kabi sohibi devon shoirlar haqida ma’lumotlar keltiriladi.

3-majlis davomida muammo va aruz ilmiga doir risola yozgan Mavlono Sayfiy Buxoriy haqida ham to’xtalib o’tadi. “Andoqki she’ri shuhrat tutti va masal tariyqin bag’oyat yaxshi aytti.... Muammo fanida ham risola bitibturur”. Sayfiyning 2ta devoni: “Risolai aruz”, “Risolai musiqiy” asarlari bor. Birinchi risolasi she’r va shoirlik, aruz qonun-qoidalari, bahri va doiralari anchayin sodda va ravon til hamda uslubda yaratilgan. She’rlar devonida an’anaviy g’azalchilik yo’lida yozilgan she’rlar mazmun jihatidan o’ziga xos xususiyatga egadir. Ularda, Navoiy ta’kidlagandek, kasb-hunar egalari madh etiladi. Ma’lumki, keyinchalik bu xil asarlar “shahroshub” (shahr ahlini hayajonlantiruvchi) she’riyat deb atala boshlangan. Bu majlisning e’tiborli jihati yana shundaki, bu qismda ayol ijodkor ham tilga olinganligidadir. Mavlo Zeboiy “Faqir ani ko’rmaymen, ammo she’rini eshitibman”, deya ijodidan namuna keltiradi:

Qomatat shevai raftor chu bunyod kunad,

*Sarvro Bandai xud sozadu ozod kunad*⁵³.

Shoirlar haqida ma’lumot beruvchi tazkiralarda Zeboiyning ayol shoira ekanligi ta’kidlanadi. Jomiy uni madh etgani bayon qilinadi.

Tazkiraning 4-majlisida zamon fozillari-she’rda mashhur bo’lmasalar-da, ammo latif bayt aytuvchi ijodkorlar haqida so’z boradi. “Asr fuzalosi zikradakim, she’rga mashhur va mubohiy emasturlar, ammo alardin nazm tariyqida ko’p latoyif zohir bo’lur va ko’p zaroyif bosh urar”.

⁵³ Navoiy A. To’la asarlar to’plami. 9-jild,-Toshkent, 2013.-366 b

Hazrat Navoiy bu majlisni “azharu min ash-shams” (quyoshdan porloq) shaxs –Pahlavon Muhammad Go’shtigir ta’rifi bilan boshlaydi. Shoir uning pahlavonligini ulug‘lab, musiqa ilmida ham zamonasining zo’ri ekanligini ta’kidlaydi. O‘z navbatida she’riyatga ham iqtidori yuksak darajada ekanligini aytib, Husayn Boyqaro uning ushbu baytiga ming oltin tanga tuhfa qilganini faxr bilan qalamga oladi:

Guftamash: “Dar olami ishq tu koram bog‘am ast”,

Guft xandon zeri lab: “G‘am nest, kori olam ast”⁵⁴.

Tazkiraning 5-majlisi “Xurosonning va ba’zi yerning mirzodalari va soyir ozodalari zikridakim, tab’ salomati va zihn istiqomati alarg‘a boisi nazm bo‘lur, ammo mudovamat qilmaslar”, ya’nikim Xurosonning “Tab’i nazmi bor” mirzazodalari haqida. Ushbu majlis Amir Davlatshoh Samarqandiyning zikri bilan boshlanadi. Hazrat Navoiy Davlatshoh Samarqandiyning mol-dunyodan voz kechib, faqirlik yo‘lini tutib qanoat bilan hayot kechirganini aytadi. Kimki uning “Majma ush-shuaro”(“Tazkirat ush-shuaro”) asarini mutolaa qilsa, Samarqandiyning iste’dodi va kamoloti qay darajada ekanligini bilib olishini muallif ta’kidlaydi.

Mazkur majlisda Mir Husayn Ali Jaloyir, Mir Haydar Sabuhiiy, Mir Ali Do’st, Muhammad Solih, Mir Ibrohim kabi mirzadodalar haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Tazkiraning 6-majlisida Xurosondan tashqari, asosan, Samarqanddagi olimlar haqida so‘z boradi. “Xurosondin o‘zga mamolik fuzalo va zurafoosi zikridakim, bu asrda holo bordurlar va har qaysi o‘z xo‘rdi holig‘a ko‘ra shiringuftor va sohibdevon va ash’ordurlar”.

Bu majlis Samarqand hokimi Ahmad Hojibek ta’rifi bilan boshlanadi. Hazrat Navoiy uning Vafoiy taxallusi bilan ijod qilishi, Samarqanddan tashqari Hirotda ham o‘n yil hukumat boshqargani, ichki va tashqi dunyosi go‘zalligi, axloqi, atvori ham shunga monand insonligini ta’kidlab, jangchi sifatidagi shijoati va bahodirligiga alohida tahsin o‘qiydi.

⁵⁴ Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. 9-jild,-Toshkent, 2013.-374 b

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi 7-majlisi Amir Temur va temuriy ijodkorlar zikriga bag‘ishlanganligi barchamizga ma’lum. Bu asar orqali temuriylar saroyidagi adabiy muhit haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Unda Sohibqironidan boshlab Sulton Ali Mirzogacha jami 22 hukmdor-ijodkorlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, ularning to‘rt nafari sohibi devon shahzodalar ekanligi alohida ta’kidlanadi. Jumladan, Xalil Sulton, Shoh G‘arib Mirzo, Saydi Ahmad Mirzo va Sulton Mas’ud Mirzoldir.

Rus olimi S.A.Vengerovning ta’kidlashicha (1919), haqiqiy adabiyotshunos diqqatini faqat mashhur namoyandalargagina emas, adabiy jarayonning boshqa vakillariga ham qaratmog‘i kerak. Chunki, ba’zan aynan ular u yoki bu davrga xos xususiyatlarni yaqqolroq ifodalashga qodirlar⁵⁵. Shu o‘rinda Hazrat Navoiyning haqiqiy adabiyotshunos sifatidagi jihatlari ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, mazkur majlis davomida Jahonshoh Mirzo, Ya’qub Mirzo, Saydi Ahmad Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Boyqaro Mirzo, Kichik Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzolar haqida ham to‘xtalib, ularning nasl-nasabi, o‘ziga xos fe‘l-atvori va adabiyotga nechog‘lik ixlosmand ekanligini qalamga oladi.

“Majolis un-nafois”ning so‘nggi sakkizinchi majlisini to‘laligicha Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlaydi. Uning devonidagi 164 ta g‘azalining matla’sini keltiradi va u qo‘llagan badiiy timsollar, she’riy san’atlar, nozik ma’no va ohorli tashbehlar xususida fikr yuritadi.

Sakkizinchi majlis davomida Husayn Boyqaroning devonidan parchalar keltirilib izohlab ketiladi. Izohlash jarayonida Sultonning boshqa ijodkorlardan farqli jihati yoki ijodining o‘ziga xos holatlari ham ta’kidlanadi. “Bu qofiya va radif hazrat Sulton Sohibqironning ixtiro’idurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:

Ohkim, hijron o‘tidin kuydi jonim o‘zga nav’,

O‘rtadi ofoqni o‘tluq fig‘onim o‘zga nav’”⁵⁶.

⁵⁵ Академические школы в русском литературоведении.-М.: Наука,1975.- С.179.

⁵⁶Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. 9-jild,-Toshkent, 2013.-427 b

Hazrat Navoiy ushbu tazkirada ijod maydoniga yaqindagina qadam qo‘ya boshlagan shoirlarni ham e‘tiborsiz qoldirmaydi. Bu quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

“Mavlono Sifotiy emdi paydo bo‘lg‘onlardur, faqir hanuz ani ko‘rmaydirmen, ammo she‘rin eshitebmen”;

“Mavlono Asiriy ham emdi paydo bolg‘on xushtab’ yigitlardindur” va boshqalar.

“Majolis un-nafois”da o‘sha davrda yashagan ba‘zi ijodkor ayollar haqida ham ma‘lumot berilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, “Majolis un-nafois” tazkirasi sodda va pishiq ishlangan strukturaga ega hamda keyingi davrlar tazkirachiligi taraqqiyotiga samarali ta‘sir ko‘rsatgan. Jumladan, tadqiqotimiz davomida qiyosiy yo‘sinda o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan Usmonli turk adabiyotining vakili Sehiy Beyning “Hasht behisht” tazkirasi fikrimizga dalil bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Академические школы в русском литературоведении. – М.: Наука, 1975. – С.179.

2. Kuramboyev K. Adabiy aloqalar-milliy adabiyotlar taraqqiyotining qonuniyatlaridan biri// http://uzadab.ndpi.uz/adabiy_aloqlar.html

3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 9-jild. – Toshkent, 2013. – 427 b.

4. Oybek. Navoiyning “Majolis un-nafois” asari haqida. – Toshkent, 1979. – 215 b.

5. Qosimov A. Adabiyotda tipologik o‘xshashliklar va o‘zaro ta‘sir. – Toshkent: Fan, 2004.

6. Hayitmetov A. “Majolis un-nafois” haqida ba‘zi mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. №1. – Toshkent, 1958.

7. G‘aniyeva S. “Majolis un-nafois” asariga tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent: Fan, 1966. – 176 b.

VISUAL VERBS IN ALISHER NAVOI'S LITERATURE: UNVELLING PRAGMATIC FUNCTION AND CULTURAL EXPRESSION

Nigorakhon AMIROVA

Lecturer of TSUOS

As a unique aspect of Turkish language, visual verbs serve as semantically rich tools that, by means of vision and cognition, express both tangible and abstract meanings. These visual verbs become basic components in the development of narrative depth and cultural expressions in the literary works of Alisher Navoi, a well-known member of the literary Renaissance of Central Asia in the 15th Century. Inspired by a rich tapestry of philosophical ideas and lyrical aesthetics, Navoi's work uses the subtleties of visual language to communicate difficult human experience and societal ideals. Visual verbs – which function not just as descriptive tools but also as vectors for deeper meanings and cultural resonance – show especially the complex relationship between language and mind.

The capacity of Turkish visual verbs to arouse sensory impressions emphasizes their meaning and helps the reader to interact with the book. Visual verbs are very important in Navoi's lyrical and prose works in creating pictures that represent the social context of their period, therefore highlighting not only the beauty and complexity of the outside world but also the interior landscapes of human emotions and moral quandaries. Emphasizing Navoi's creative contributions to contemporary linguistics, Xolmanova (2021) notes that the poet's use of visual verbs best illustrates an advanced knowledge of language as a dynamic tool of cultural articulation. Reflecting the dominant social conventions and ideas of the 15th century, Navoi successfully plugs the gap between language and the cultural identity of his audience in interacting with visual cognition.

Examining the pragmatic purposes of visual verbs in Navoi's writings demands one to take into account how these verbs change the meaning at many levels: syntactically, semantically, and pragmatically. Their utilization not only delivers vivid imagery but also indicates the author's interpretive stance in respect

to the depicted events, therefore adding levels of significance to the book that appeal to existential and cultural issues. Visual verbs, for instance, may indicate varying degrees of awareness – from passive observation to active interpretation – therefore enabling the reader to negotiate Navoi's complex stories while interacting with the underlying cultural criticism included into his works.

Furthermore, the deliberate use of visual verbs enhances the poetry form and enables Navoi to arouse common cultural experiences mirroring societal ideals and collective memory. This language choice so offers details on how language forms cultural narratives and affects the reader's view. Navoi's writings' embedded meanings of visual verbs invite scholarly exploitation to their function as tools of cultural expression, therefore attesting to the entwined character of language, culture, and cognition. Alisher Navoi, a pre-eminent figure of the 15th century Central Asian literature, emerged against a rich tapestry of socio-cultural dynamics marked by the rise of the Timurids in power. By means of a thorough analysis of these linguistic elements, this article aims to clarify the multifarious pragmatic functions of visual verbs in the literary context of Navoi, revealing its meaning in the formation of meaning and cultural representation. This era was marked by artistic growth and the meeting of Persian and Turkish civilizations, which greatly affected the literary output of swimming. His writings show a civilization changing under the complicated interplay of language identity, patronage, and cultural synthesis. Underline by Abjalova, Gulomova and Xasanova the multilingual mastery of swimming - in particular its use of Chagatai (Turkish) and Persian - was not just a stylistic decision but a pragmatic reaction in the cultural setting of his day. He served as a vehicle for cross-cultural communication, letting the presentation of complex ideas echo across different audiences.

In this setting, Turkish visual verbs take front stage in the literary description of swimming. According to linguistic theory, visual verbs – that is, vision, inquiry and observation – transmit acts or situations intimately related to visual perception. These are vehicles to convey deeper levels of sensation and cultural meaning in addition to being functional elements of language, expressing activities connected

to sight. For instance, Navoi used visual verbs in his foundational book *Khamisa* to express not just the mechanics of action but also emotional moods and cultural settings captured in these deeds. The use of visual verbs usually corresponds with the thematic issues of tales – actions of testimonial to the love, beauty or temporary injustice – thus urging the reader to interact with the text both at the literal and emotional level.

One pertinent example is the word *görmek* (see), which Navoi employs in many lyrical settings where sight goes beyond basic observation to provide consciousness or insight. This is especially clear in the songs where the act of looking is tinged with philosophical reflection, implying that genuinely “see” is to grasp deeper truths regarding life and morals. Thanks to such usage, Navoi shows not just physical movement but also suggests the cultural need that knowledge and perspective are entangled with social and ethical aspects.

Furthermore, the employment of visual verbs in the swimming poetry demonstrates its dedication to the cultural attitudes of its period, especially the focus on the artistic quality of language. While it wanders between accessible and academic, the common language utilized beside the high Persian vocabulary suggests a purposeful interplay. Navoe aims at both the elite and the larger public using the Turkish visual verbs, thereby democratizing literary experience. The Timurid Empire’s socio-political environment, which emphasizes artistic and literary patronage, has given rich ground for such linguistic innovation by tying the visual possibilities of language to more general cultural ideas present in its output.

Finally, Alisher Navoi’s deliberate use of Turkish visual verbs in her literary corpus is not only a linguistic decision but also a method of representation that shows the dynamic interplay between language, culture, and society values during the period of Timid. Visual verbs, a fundamental component of the Turkish language, are defined as verbs that describe actions linked to view, such *görmek* (to see), *bakmak* (to look), and *görünmek* (to appear). The analysis that followed from these visual verbs will highlight their pragmatic functions – how they shape the meaning and contribute to the cultural tapestry of the work of swimming,

reflecting the complex relationship between perception and expression in a context rich in literary and cultural legacy. These verbs have special grammatical and semantic characteristics that enable them to convey not just complex layers of meaning, emotion, and cultural context but also physical acts. Visual verbs are basic to produce sense in the works of Alisher Navoi, a well-known writer from the fifteenth century Turkey, which closes the subjective experience of perception with more general narratives and cultural themes.

Navoi visual verb is well used reflecting a sophisticated awareness of its pragmatic purposes. These verbs capture complicated emotional states and social relationships woven in the fabric of poetry and prose stories, therefore transcending their literal meanings. Soyipov (2024), for instance, emphasizes how the visual verb *görmek* often conveys a deeper metaphorical vision of lighting or understanding, so implying a lower cultural current related to knowledge and perception in the framework of suffism, not only limited to the act of seeing. This link between the perspective and the knowledge highlights the many uses of the visual verb to depict the cultural surroundings of the Navoi period.

Moreover, the grammatical form connected with visual verbs enhances its expressive power. Many visual verbs in Turk may adopt numerous suffixes that change time, look, and mood, therefore enabling writers like Navoi to imbue their works with temporal and emotional complexity. Using the present participant of *görmek*, for instance, as in *görüþ*, enables an immediacy involving the reader's senses more actively, therefore generating a dynamic engagement between the text and its audience.

Navoi's poetry and prose clearly show how these linguistic subtleties connect with the main cultural concerns. Ashirbayev (2020) notes that Navoi's paintings highlight problems of lighting, beauty, and divine presence by means of regular allusions to light and vision. Navoi not only produces brilliant pictures but also imbues a feeling of transcendence by carefully employing visual verbs, therefore triggering the spiritual trip of the person in pursuit of knowledge and truth. Key elements of Navoi's literary identity, these visual verbs enable readers to

investigate the junction of what has been seen and the unseen, literal and metaphysical:

Furthermore, Navoi's tales' visual verbs combine with other language components to provide a meaning layered in resonance with cultural symbols. Looking or seeing frequently entwines ideas of longing, desire, and emotional reflection. Visual verbs like *bakmak* frequently suggest a desire for the beloved or heavenly, as Ashirbayev (2021) shows, thereby highlighting even more how these verbs are entwined with the cultural and spiritual ambitions of the period.

All things considered, the pragmatic purposes of visual verbs in Alisher Navoi's works expose their indispensable importance in terms of configuration of the meaning and expression of cultural settings. Through their grammatical adaptability and semantic richness, these verbs help to create a tapestry of cultural expression reflecting the Turkish literary tradition and is especially relevant within the thematic concerns of Navoi's works. The pragmatic functions of visual verbs in Alisher Navoi's works are therefore a vital mechanism through which tone, mood and images are intricately fabrics in the text, so increasing emotional engagement with the public. Visual verbs, which indicate acts usually connected with vision and perception, let the reader perceive the story not just as a series of events but also as a vivid image resonating with deeper cultural and emotional significance.

The capacity of visual verbs in Navoi corpus to create a reflected tone of the issues at stake defines a major component of their pragmatic purpose. For instance, verbs like *görmek* (to see) and *seyretmek* (to gaze) are commonly used to express not just the act of looking but also a deeper philosophical contemplation on his own perception. Abdulkhayrov (2020) underlines how Navoi creates a tone that alternates between the meditative and the didactic by use of these verbs, therefore involving the reader in the book beyond his surface narrative. Seeing turns into a metaphor for understanding wherein visual experience transcends simple observation and allows readers to analyze difficult moral and existential concerns included within the story.

Furthermore clear in numerous Navoi poems are the interactions of visual verbs with comedy generation. According to Shamsiddinova (2024), adjectives and descriptive language accompanying visual verbs help to transfer mood, therefore transforming visuals into a richer emotional experience. For instance, whilst *Kör Olmak* (to be blind) in settings weighted with melancholy generates an attitude of despair, the usage of *Açák Görmek* (see clearly) at a time of revelation inspires a feeling of enlightenment and rejuvenation. This dualism not only creates mood but also represents prevailing philosophical opinions on Turkish culture throughout Navoi's lifetime as well as societal values. Thus, the many uses of visual verbs improve the reader's emotional resonance with the story and help to establish several levels of the text.

The visuals produced by visual verbs support Navoi's cultural expression even more. Based on historical and mythical foundations that are artistically grounded yet filled with meaning, the images shown appeal with inherent components to the Turkish cultural legacy. References to natural visuals, like *gökyüzü* (sky) or *deniz* (sea), spoken using visual verbs, for instance, not only depict beautiful settings but also arouse national pride and cultural identity. Tojiboyeva (2022) emphasizes how, when expressed via the verb of visual experience, these cultural symbols help readers to develop a communal memory and community emotional sensitivity. Navoi's visual world not only is aesthetically pleasing but also provides a forum for group cultural reflection and investigation of what it means to be on the continuity of Turkish literature.

Thus, the pragmatic purposes of visual verbs in Alisher Navoi's works are basic to shape the reader's emotional involvement, set tone, create comedy and enhancing the cultural imagery contained in their writings. Visual perception verbs are not just language instruments but also part of Navoi's era's philosophical and cultural paradigms, therefore giving readers a profound aesthetic experience that goes beyond the immediate story. Visual verbs are fundamental tools for cultural expression in Alisher Navoi's literary works, so permeating stories with rich contextual layers reflecting the values and society beliefs that predominate during

his time. Through the methodical analysis of these verbs one can appreciate the complexity and depth of the meaning they contribute to Navoi's literary achievements. These verbs capture cultural ethics, therefore presenting a live picture of the historical setting in which swimming took place, beyond the basic portrayal of activities. For instance, visual verbs like *görmek* (to see) and *baxmaq* (to stare at) are embedded in the fabric of the moral and philosophical discussions prevalent throughout its poetry and its prose rather than just utilized to depict the ocular sense.

By swimming, the follower of the visual verb may express the dualities of goodness and basic and bad ideas in the cultural and ethical framework of Turkish society. According to Tojiboyeva (2023), the presentation of visual activities acts as a form of moral symbolism, enabling the audience to participate not only with the tale but also with its ethical consequences. Navoi layers of meaning on these verbs that speak to moral and intellectual debates more general of his day. In his writings, for instance, the act of "seeing" usually represents moral clarity and enlightenment connected with moral activity. On the other hand, the pictures of blindness or hidden vision might be symbolic of ignorance or hate, therefore reflecting prevailing moral views in the socio-cultural setting.

Furthermore, according on Sultanov et al. (2024), it is clear that swimming with visual verbs strengthens cultural identification by means of the dedication of language practices with the rich tapestry of cultural past. The visual stimuli these verbs conjugate captures a conventional view of the world in which knowledge, comprehension, and finally moral judgment are connected to. The regular use of visual verbs channels the values and beliefs underlying Turkish literature during the period, closely corresponding with a collective cultural experience.

Language and cultural identity interact subtly to show swimming personalities and their moral conundrums. By use of visual verbs, he creates a narrative framework wherein society ideals are both challenged and shown. Its use of a visual verb to show the sudden awareness or metamorphosis of a character, for

instance, might imply a greater search for knowledge and morality that spans the individual and reflects society hopes for enlightenment.

The pragmatic purposes of Turkish visual verbs in swimming tales essentially expose a complicated connection among language, culture, and moral philosophy. These verbs help not only to be born to express acts but also to sail on the ethical terrain of their period as they encamp back complicated society structures. His writings so abound in visual pictures that capture cultural identity, which makes it essential to see these linguistic aspects as essential to grasp the larger cultural expression inherent in their literary contributions. The study of the pragmatic functions of the Turkish visual verb in the works of Alisher Navoi reveals their basic relevance in modeling not only the semantic depth of his poetry but also the cultural nuances incorporated into the socio-linguistic tissue of his time. Thanks to the lens of visual verbs, the ethical and cultural dimensions of the work of swimming become in the foreground, highlighting the deep link between the language and the socio-cultural ethics of Central Asia of the 15th century. Examining Navoi's visual verbs closely reveals that these verbs are not just lexical objects; they are performed to convey complicated psychological states, social connections, and cultural values. The complex sensory sensations the visual verbs in Navoi's books provide augment the complexity of imagery and enhance the emotional resonance of the story. This corresponds with the remarks of Gaziyeva and Rahmonova (2021), which underline how Navoi employs language decisions to generate vivid mental pictures involving the senses and emotions of readers, therefore enhancing the overall aesthetic experience of his poetry.

Furthermore, the cultural setting Navoi was writing in may be observed reflected in the usage of visual verbs. The preponderance of these verbs shows a taste for visual pictures in the Turkish literary heritage, which fits more general cultural principles stressing experience and awareness. Visual verbs' weighted deployment helps to ground imaginative worlds within real-world events, therefore bridging the gap between spiritual and bodily. This feature of Navoi's work is especially important to grasp its influence on Turkish literature as it emphasizes

the way visual verbs help to transmit cultural legacy and social conventions, therefore encapsulating the interaction between language and culture.

Furthermore, Navoi's works reflect the interpretive paintings and guide the emotional commitment as visual verbs serve pragmatically to stimulate certain reactions from the reader, thereby transcending the mere depiction. As observed by Abjalova & Gulomova (2024), the connection between visual verbs, perspective of the reader and cultural topics underscores the communication force held within the framework of the literary works of Navoi. This dynamic shows that language is a great instrument for cultural expression and historical continuity, therefore strengthening the argument that visual verbs are vital for navigating in the deepest meanings included into the texts.

The findings of this investigation not only help us to better appreciate Navoi's literary works but also imply more general consequences for the study of Turkish literature overall. Understanding visual verbs in Navoi gives new avenues to investigate the language and cultural aspects of modern Turkish poetry. Future studies can expand this inquiry by looking at comparative analyses of visual verbs on other Turkish poets or literary movements or by investigating their pragmatic consequences in oral traditions and popular storytelling. The scholarly appreciation of Navoi's contributions – especially via the prism of visual verbs – strengthens the importance of considering the interplay of language, culture, and meaning in comprehending the paths of the past, present, and future of Turkish literature.

REFERENCES

1. Abdulkhayrov M.X. Study of The Publication of the Works of Alisher Navoi // International bulletin of medical sciences and clinical research. Volume 4, Issue 9. 2020. pp. 83-86.
2. Abjalova M.A., & Gulomova N.S. Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words // 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE). Novosibirsk, 2024, pp. 1820-1825.

3. Abjalova, M., Gulomova, N., & Xasanova, G. Alisher Navoi Author's Corpus: Relevance, Necessity and Significance // PAMIR-2 The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies. 2023. pp. 598-604.
4. Ashirbayev S. Application of Standard and Non-Standard Syntactic Units in Alisher Navoi's Prose. International Journal of Applied Linguistics and Translation. Vol. 7, No. 2, 2021, pp. 34-42.
5. Ashirbayev S. Forms of interactions in simple sentences in prose of alisher navoi are one of the tools of complicating the sentences // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Issue: 05 Volume: 85. 2020. pp. 605-609.
6. Gaziyeva, M. M., & Rahmonova, Z. On The Intonation Of Communicative Types Of Sentence In Turkology // The American Journal of Social Science and Education Innovations. Volume 3, Issue 5. 2021. pp. 216-224.
7. Shamsiddinova Sh.M. The Renaissance of the Creation and Development of the Classical Literary Language in The Current Educational Environment // Scientific Approach to The Modern Education System. France International Scientific-Online Conference: part 26. 2024. pp. 184-188.
8. Soyipov S. Use of modern persian verb base in alisher navoi's epic "farhod and shirin" // Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. Volume: 11, Issue 05, 2024. pp. 557-564.
9. Sultanov T., Ablakulova I., Halimova N., Husanova D., Ananth C. and Kumar T.A. Textual Analysis and Computational Insights into Alisher Navoi's 'Divan of the AqQoyunlu Admirers' // 2024 Ninth International Conference on Science Technology Engineering and Mathematics (ICONSTEM). Chennai, India, 2024, pp. 1-7.
10. Tojiboyeva M.R. Anticipating problems in translating Alisher Navoi's works into English // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume : 12, Issue : 5. 2023. Pp.747-750.
11. Tojiboyeva, M. Pragmatic Importance Of Examining Ilk Devan In Artistic And Philosophical Aspect // Journal of Positive School Psychology. 2022. pp. 232-235.
12. Xolmanova, Z.T. Role of alisher navoi in the development of modern linguistics // 국제언어문학 (International Journal of Language and Literature). Issue 49. 2021. pp. 85-106.

ҚУШЛАР ТИМСОЛИ – ПОЭТИК ВОСИТА СИФАТИДА

(Юсуф Хос Ҳожиб ва Алишер Навоий ижоди мисолида)

Шоҳрух Мирзо ЖЎРАЕВ

ТДШУ ўқитувчиси

Халқ оғзаки ижоди намуналарида ифодаланган қушлар поэтикаси аста-секинлик билан ёзма адабиётда ҳам ўзига хос тарзда мажозий образ сифатида фикрни ифодалашга хизмат қилди. Қуш номларининг бадиий адабиётга кўчиши дастлабки ёзма ёдгорликларимиз бўлган “Девону луғотит-турк” ва “Қутадғу билиг” асарларидан бошлаб ҳозирги замон адабиёти намуналарида ҳам кенг кузатилади. Хусусан, илк бадиий дoston сифатида эътироф этилган “Қутадғу билиг”да қушларнинг муайян хатти-ҳаракатлари орқали ҳар хил характердаги одамларнинг мажозий образи яратилган.

“Қутадғу билиг”да қушлар мажози алоҳида аҳамият касб этиб, мазкур бадиий деталь асарнинг ғоявий-эстетик қимматини оширишга, тасвирланаётган воқеликнинг моҳиятини чуқурроқ очиш беришга, қаҳрамонларнинг ички дунёси, яхшилик ва ёмонликка асосланган фазилатларини образли гавдалантиришга хизмат қилган. Юсуф Хос Ҳожиб ўз асарида *ғоз, ўрдак, оққуш, қил қуйруқ, турна, уларқуш, каклик, булбул, қора зог, загизгон, соқақуш* каби ўнлаб қушлар тимсолида гоҳ табиат тасвирини чизишда, гоҳида эса қаҳрамонлар руҳиятини рангин бўёқларда тасвирлашда моҳирона фойдаланган.

Масалан, оққуш образи орқали шарқдан қуёш бош кўтариши билан бутун борлиқ оппоқ тусга киришини кўрсатса, шоҳга қарата “Сенинг қушларинг кўкда учадиган бирон жонзодни омон қўймайди” деганда, ҳар қандай ёвга бас келадиган ботир аскарлар назарда тутилади.

Қадимдан адабиётда эркинлик, ҳурлик тимсоли бўлган қуш образи Юсуф Хос Ҳожиб асарида турли вазифаларни бажарганини кўриш мумкин. Хусусан, мағрур *турна* йигитларга хос бўлган жасорат, мардлик тимсоли бўлса, овозини созлаб, ўз эшини чақираётган *уларқуш* ўз кўнгил берганини чорлаётган гўзал қиз тимсолида гавдаланади. Шунингдек, асарда қаҳ-қаҳ отиб кулаётган

какликни, овози эрка қизнинг дод-фарёдини эслатувчи *қора зогни*, туну кун тинмасдан сур чалаётган *булбулни* ва бошқа қушларни учратиш мумкин.

Зооморфик метафоралар бўйича бир қатор тадқиқотларни амалга оширган Е. Вольф таъбири билан айтганда, бунда қушлар “баҳоловчи белгилари билан тавсифланади” [1;128]. Яъни, улар баъзан инсоннинг ташқи кўриниши, баъзан эса ҳаракати ва феъл-атворини тасвирлаш учун ишлатилган.

Бадий адабиётда қушлар тимсолининг поэтик восита сифатидаги ўрнини белгилашда **ўзбек адабиёти, қолаверса, жаҳон адабиётининг ҳам энг юксак намуналаридан бири ҳисобланган Алишер Навоийнинг «Фоний» тахаллуси билан битилган «Лисон ут-тайр» асари алоҳида ўрин тутади. Ўзбек адабиётида ҳам, жаҳон сўз санъатида ҳам муҳим мақомга эга ушбу асар Фаридиддин Атторнинг “Маниқ ут-тайр” асарига ўзига хос назира тарзида битилган.**

Нафсиламрини айтганда, Фаридиддин Атторнинг «Мантиқ ут-тайр» асаригача ҳам қушлар тимсоллари асосида ёзилган асарлар мавжуд эди. Абу Али ибн Синонинг «Рисолат ут-тайр», Абу Ҳомид Муҳаммад Ғаззолийнинг ҳам худди шу номдаги «Рисолат ут-тайр», Шаҳобиддин Сухравардийнинг «Рисолайи мусаммо ба сафари Симурғ» асарлари ёзилган эди. Ана шу анъанани давом эттирган Алишер Навоий умрининг сўнгги йилларида, аниқроғи, 1499 йилда ўзига хос, гўзал дoston ҳисобланган “Лисону-т-тайр”ни ёзиб тугатган.

Анънавий тарзда битилган “Лисону-т-тайр” достони муқаддима, асосий қисм ва хотимани ўз ичига олади. Муқаддима 13 бобдан иборат бўлиб, дostonнинг асосий қисми 14-бобдан бошланади. Асар қаҳрамонлари бўлган қушлар бир куни мажлис қурмоқ учун йиғилишади. Лекин мажлисда ўрин талашиб, жанжаллашиб қолишади. Шунда улар агар бир адолатли подшо бўлганда, бундай баҳсга ҳожат қолмаган бўларди, деб ўйлашади. Шу вақт *Худҳуд* деган қуш шундай подшоҳ борлигини, унинг номи Симурғ эканлиги ва унинг ҳузурига бормоқчи бўлганлар узоқ ҳамда машаққатли йўлни босиб ўтишлари зарурлигини айтади.

Кушлар Худхуд бошчилигида йўлга тушадилар. Бир неча кун йўл юргач, машаққатли сафар уларни толиктиради. Улар ортга қайтмоқчи бўлиб, биринкетин Худхудга ўз узрларини айта бошлашади. Дастлаб *Тўти*, кейин *Товус*, ундан сўнг *Булбул* узр айтади. Шу тариқа *Қумри*, *Кабутар*, *Кабки дарий* (*Тоғ каклиги*), *Тазарв*, *Қарчигай*, *Шунқор*, *Бургут*, *Куф* (*Бойўғли*), *Хумой*, *Ўрдак*, *Товуқ* (*Хўроз*) каби кушлар ўз узрларини айтишади. Худхуд уларнинг ҳар бирига мос ҳолатда турли ҳикоятлар билан жавоб қайтаради. Кушлар йўлларида давом этадилар. Улар Худхуддан Симурғга етишиш йўли ҳақида сўрайдилар. Худхуд уларга дostonдаги энг катта ва алоҳида мавқега эга бўлган “Шайх Санъон” ҳақидаги ҳикоятни сўзлаб беради.

Худхуд ҳикоятдан сўнг асл манзилга етиш учун 7 водийни, яъни талаб, ишқ, маърифат, истиғно (эҳтиёжсизлик), тавҳид (бирлик), ҳайрат ва фақру фано водийларини босиб ўтиш кераклигини айтади. Барча водийларни босиб ўтган кушлар қаерга боқмасин, у ерда ўз аксини кўра бошлайди. Яъни, ўзларини кашф этадилар. Ҳазрат Навоий шу тариқа кушлар тимсолида инсон, аввало, ўзини таниши, ўзлигини билиши керак деган чуқур фалсафий мушоҳадани илгари сурган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Голодов А. Вестник ВГУ, Серия “Лингвистика и межкультурная коммуникация”, 2005, № 2.
2. Каримов Қ. Илк бадиий дoston. – Т.: Фан, 1976.
3. Мамадалиева З. Лисон ут-тайр” дostonидаги рамзий образлар тизими: Филол.фан.номз.дисс. – Т., 2011.
4. Мирзоҳидова Л. XI–XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадиияти: Филол. Фан. бўйича фалсафа доктори дисс... автореф. – Самарқанд, 2018.
5. Навоий Алишер. Лисон ут-тайр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1994. 12-жилд.
6. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф /Нашрга тайёрловчи: Қайом Каримов. – Т.: Фан, 1971.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutatg‘u bilig. J.I /Mas‘ul muharrir A.Rustamov; nashrga tayyorlovchi G‘. Abdurahmonov. ToshDShI. – T. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

ALISHER NAVOIY – HUQUQSHUNOS

Aziza SHAKAROVA

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Navoiy akademik litseyi
“Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi huquqshunoslik fani yetakchi
o‘qituvchisi*

Muqaddas MUZAFFAROVA

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Navoiy akademik litseyi
o‘quvchisi*

Ulug‘ mutafakkir Mir Alisher Navoiyning buyukligi adabiyotimiz rivojida olamshumul xizmatlari bilangina belgilanmaydi. Navoiy badiiy ijodda qanchalik tengsiz bo‘lsa, ilmda, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham shunchalik benazir edi. Mumtoz shoirning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix va tasavvufshunoslikka bag‘ishlangan asarlari hanuzgacha olimlar, navoiyshunos mutaxassislar tadqiqotlarida o‘rganilmoqda, targ‘ib va tashviq qilinmoqda.

Lekin shoir ijodining shunday bir qirrasi borki, bu – uning davlat arbobi, temuriylar saroyining dongdor vakili sifatida bildirgan ijtimoiy-falsafiy fikrlari bo‘lib, bu haqda hali biror o‘rinda teranroq fikr yuritilmagan.

Inson qalbining quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini, huquq va adolatning ma’no-mohiyatini Alisher Navoiydek teran ifoda etgan ijodkor jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Hazrat Navoiyning tarix va bashariyat oldidagi ulug‘ xizmatlaridan biri shundaki, ul zot adolat tuyg‘usini har bir inson, har qaysi xalq va millat intilib yashaydigan oliy mezon darajasiga ko‘targan hamda odamzodni hayotda adolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga chorlab o‘tgan.

Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish asnosida adabiyotshunos asosan adabiy talqin nuqtai nazaridan yondashsa, huquqshunos ulug‘ bobomiz ijodining fiqh bilan bog‘liq qirralari tahliliga ko‘proq urg‘u berishi tushunarli hol.

Navoiyshunos olimi Burobiya Rajabovanning fikricha, Alisher Navoiy hazratlari o‘z asarlari orqali biz – avlodlarga adolat borasida nimalarnidir

eslatgandek, o'rgatgandek bo'ladi. Shu bois "Navoiy har qanday shafqatda, ehsonda, adolatda, yaxshilikda ma'rifat, barokat, fazilat bor, murojaat qilgan insonni o'ksitmang, adolatli bo'ling, faqat va faqat xayrixoh bo'ling, degandek bo'ladi", deb yozadi B.Rajabova.

Adolat g'oyasi Alisher Navoiyning qariyb hamma asarlarida turli yo'sinda ifodalangan. Podsho uchun «bir soatlik adolatli bo'lish oltmish soatlik ibodatdan ustun» degan Payg'ambar hadisi tez-tez takrorlanib keladi. Ya'ni, boshlig'i adolatli bo'lishi mamlakatga eng katta fazilat, eng ulug' savob. «Podsho qanday bo'lsa, uning a'yonlari ham shundaydir» degan hadisning ma'nosi shunga ishora. Ammo adolat allaqanday mavhum tushuncha emas. Adolat qilish, birinchi galda, o'rtada turib, haq va nohaqni ajratish, gunohkor, zolimni jazolash, mazlum odamni himoya qilishdir. Shoh agar yaxshi-yomonga birdek munosabatda bo'lsa, bu odillik emas, balki zolimning tarafini olishdir. Demak, adolat mamlakat osoyishtaligi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, davlat poydorligining garovidir.

Alisher Navoiy asarlari matnida o'z davrining turli ilm-fan, kasb-hunarga oid ko'plab atamalarini ham mahorat bilan qo'llagan. Ulardan ba'zilar asrlar davomida o'zgarmay bizning davrimizgacha ham iste'molda bo'lsa, ayrimlari bugun iste'moldan chiqib, tarixiy yoki arxaik so'zlarga aylanib ulgurgan.⁵⁷ Tarixiy-huquqiy istilohlar ana shunday atamalar sirasiga kiradi. Ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Birinchisi – muallif tilidan bayon qilingan ma'lumot, eslatma, zikrlarda qo'llanilgan bo'lib, buning yorqin misoli "Majolis un-nafois" va "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralari bo'lsa, ikkinchisi esa, asar qahramonlari tilidan bayon qilinadi va uning yorqin namunalarini "Xamsa" dostonlarida ko'ramiz.

Navoiy ijodida qo'llangan tarixiy-huquqiy istilohlardan biri bu – *qadim xonavoda* atamasidir. U *xonavoda*, *xonavodayi qadim* shakllarida uchraydi. Bu so'z lug'atlarda, asosan, *xonadon*, *xonavoda* shaklida berilgan, demak, *qadim xonavoda*, *xonavodai qadim* yasama birikma ko'rinishida Navoiy ijod qilgan

⁵⁷Shoabdurahmonov va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. Toshkent: O'qituvchi, 1980. 125-126-betlar; Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. Toshkent: Universitet, 2008. 3-bet.

tarixiy-huquqiy atama bo‘lib, u davlat boshqaruvi bilan bog‘liq va asrlar davomida davlatni boshqargan bir sulolaga nisbatan qo‘llaniladi, ba’zi lug‘atlarda oila kabi ma’nolari ham ko‘rsatilgan.⁵⁸

Navoiy lirik va nasriy asarlari matnida islom huquqshunosligiga oid *fiqh* atamasini ham ilm-fan ma’nosida mahorat bilan qo‘llagan. “Fiqh” daqiq fahmni, ya’ni bir narsani nozik joylarigacha yaxshi tushunishni anglatadi. Shariat istilohiga ko‘ra esa shar’iy dalillardan far’iy hukmlarni chiqarishga “fiqh” deyiladi. Ilmi fiqh islom dinining yo‘l-yo‘riqlari, qonun-qoidalar to‘g‘risidagi huquq ilmi, islom qonunshunosligidir⁵⁹.

MUHR- o‘zidagi qabariq yoki botiq belgilaridan nusxa tushiruvchi maxsus asbob. O‘tmishda muhr sopol, mis, po‘lot, kumish va oltindan qilingan. Muhrning shakli to‘rtburchak, doira, bodoma ko‘rinishlarida bo‘lgan. Qadimda har bir nufizli kishilarning-xon, amir, bek, mufti, qozi va boshqalarning o‘z shaxsiy muhri bo‘lgan⁶⁰. Jumladan, “Navoiy dasxati (Navodir un-nihoya)”ni nashrga tayyorlagan, so‘z boshi muallifi navoiyshunos S. G‘anieva Navoiyning shaxsiy muhri va muhrga bitilgan jumlar haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Kun, osha fi-d dunyo k-al g‘arib-al - faqir Alisher” ya’ni, Dunyoda faqir va g‘arib Alisherdek hayot kechir.⁶¹ Muhr yuzasiga egasining ismi, lavozimi, muhr yasalgan joyning nomi hamda sanasi bitilgan. Davlatning har qanday rasmiy farmon, yorliq va hujjatlari muhr bosib, tasdiqlangandan keyin qonuniy kuchga kirgan. Muhr, muhr turlari, ayniqsa, “Rostiyyu rusti” degan so‘zlar naqishlangan Shoh Sulaymon muhri, Amir Temur va temuriylar muhri bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar Navoiy asarlari matnida badiiy shaklda uchraydi.

Navoiy islom huquqshunosligining bilimdoni sifatida o‘zi yaratgan betakror asarlari matnida *qozi* atamasini ham o‘ziga xos tarzda ishlatgan, ya’ni, asosan,

⁵⁸Farhangi zaboni tojik. Jildi 2. M., 1969. S. 491; Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent, 1972. 660; 726-betlar.

⁵⁹Farhangi zaboni tojik. Jildi 2. S. 428; Kifoya (Sharhi muxtasari viqoya) 1-juz. Toshkent: Sharq, 2008. 4-bet; Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. 640-bet; Türkçe sözlük. 10 Baski. Ankara, 2005. S. 694; H a k i m o v M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. Toshkent: DAVR PRESS.NMU, 2013. 373-bet

⁶⁰ M.Hakimov.Sharq manbashunosligi lug‘ati.-Toshkent.;DAVR PRESS NMU,2013.224-bet.

⁶¹Navoiy dasxati(Navodir un-nihoya).-Toshkent.; Fan. 1991.6-bet.

shariat qonunlari asosida hukm va ijro ishlarini olib boruvchi mansabdor shaxs ma'nosida va o'rni bilan an'anaviy uslubda o'zigacha mavjud bo'lgan majoziy-ko'chma ma'nolarda ham san'atkorona qo'llagan, deyish mumkin. Ammo u "Nasoyim ul-muhabbat"da berilgan Qozi Hamiduddin Noguriy q.s. fiqrasida *qozi* tushunchasini *akobir* so'zining to'rtta sinonimik qatoridagi sinonimi sifatida izohlaydi: "Hamono andoqki, ko'prak akobirni Xurasonda *shayx* derlar va Samarqandda *xoja* va Rumda *bob* va Hindda *qozi* derlar". Ko'zdan kechirilgan lug'atlar asosida mazkur atamaning leksik hamda majoziy ma'no qirralari va berilgan ta'rif, izohlarga to'xtalsak. Demak, *qozi* atamasi arabcha so'z bo'lib, ijrochi, amalga oshiruvchi, hukm qiluvchi(chiqaruvchi) kabi leksik ma'noni bildirishi lug'atlarda yozilgan bo'lsa, yana *Oллоh*, *falak*, *charx*, *Mushtariy sayyorasi* singari ma'joziy-ko'chma ma'nolarda kelishi ham izohlanadi.⁶² Navoiy qozining qozixonada ramziy guvohlar-adlu insof yordamida shariat hukmini belgilashi bilan bog'liq poetik lavhani "Hayratul abror"da "Shoh G'oziy" hikoyatida tasvirlab bergan.⁶³ "Mahbub ul-qulub"asarining 12-faslini "Quzot zikrida" deb nomlaydi va : "Qozi islom binosiga arkondur va musulmonlar xayr va sharrig'a nofizi farmondur", deya ta'riflaydi, qozilarning faoliyatidagi ijobiy hamda salbiy jihatlarini tahlil qiladi, hatto, o'z xulosalarini alohida qit'a bilan yakunlaydi. Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida yetti nafar qozilar va ularning ijodidan namunalar keltirgan.

Alisher Navoiyning asarlaridagi mulk mavzusiga oid g'oyalar Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvidagi "Kuch – adolatda", "Kuch – tartibda", "Kuch – sog'likda" degan tamoyillarga asoslanadi. Bunda ulug' shoirning "Adl buzuv mulkni obod etar", "Adl suyi bila mulk bo'stonig'a nusrat bermov", "To el shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas", "Mulkona qonunu oyin tuzib" degan hikmatlarida ham mulk egalari bu boradagi vazifasi, mas'uliyati, burchi ta'kidlanadi.

⁶²O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. 5-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 322-bet. Navoiy asarlari lug'ati. 738-739-betlar; Farhangi zaboni tojiki. Jildi 2. S. 696;M.Hakimov.Sharq manbashunosligi lug'ati.Toshkent:DAVR PRESS.2013.439-bet.

⁶³ B. Radjabova. Onalar bilan suhbat. Toshkent. Turon zamin ziyo,2014. 8-12-betlar.

Navoiy ijodi, aniqrog'i, uning siyosiy va huquqiy qarashlarini huquqshunoslar tomonidan o'rganish o'tgan asrning 70-yillaridan boshlangan. Shoirning huquq, adolatli davlat va jamiyat, ma'rifatparvar shoh to'g'risidagi qarashlari ayrim maqolalar, qisman ilmiy tadqiqotlarda e'lon qilingan. Ammo sho'rolar davrida Navoiy kabi mutafakkirlarning huquqiy qarashlarini o'rganishga, ular haqida mulohaza, xulosalar qilishga asosan sinfiy nuqtai nazardan ruxsat etilardi. Masalan, «Husayn Boyqaro zolim podsho, Navoiy esa mehnatkashlarning shoiri» va hokazo.

Vaholanki, ularning har ikkisi ham bir maktabda ta'lim olgan, yoshligidan temuriylar imperiyasini parchalanishdan, kichik-kichik xonliklar, bekliklarga bo'linib ketishdan saqlab qolish uchun ahdlashgan temuriylardan edilar. 1469 - yilda Husayn Boyqaro Xuroson taxtini qo'lga kiritgandan keyin Navoiy Hirotga taklif etiladi va arkoni davlatda shohdan keyin ikkinchi shaxs – Amir (vazir) lavozimiga ko'tariladi.

Bugungi kun iborasi bilan aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi el-yurtimizda doimo e'tiborda bo'lib kelgan. O'z navbatida, huquqiy madaniyat – bu qonunlarimizda ifodasini topgan, ya'ni bizga berilgan shuncha huquqlardan imkon qadar ko'p foydalanish darajasi deganidir.

Shu ma'noda, istiqlol yillarida xalqimiz huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejiz emas. Zero, Yurtboshimiz alohida qayd etganidek, ma'naviyatni yuksaltirish sohasidagi barcha sa'y-harakatlarni huquqiy maydonda amalga oshirish lozim. Xususan, yoshlar ong-u tafakkurini himoya qilish uchun bevosita qonunchilik asosida ish ko'rishimiz kerak. Toki ma'naviy tarbiya bilan ma'naviy-huquqiy tarbiyaning o'zaro uzviyligi ta'minlansin.

Hozirgi kunda biz Mir Alisher Navoiyni ulug' shoir va mutafakkir, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat, ona tilimiz va adabiyotimiz homiysi, saxovatpesha zot, avliyolar avliyosi sifatida yaxshi bilamiz hamda yuksak qadrlaymiz. Hazrat hayoti va faoliyatining ayni shu jihatlarini atroflicha chuqur o'rganayotganimiz ham bejiz emas.

Navoiy hazratlarining hozirgi vorislari – olis moziydan salkam olti asr berida turib boy tariximiz, saodatli bugunimiz va yorug' kelajagimiz sururidan bahramand

yashayotgan Istiqlol davri avlodi ta’biri bilan aytganda, huquqiy davlatning asosiy belgisi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta’minlanishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoabdurahmonov va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 125-126-betlar;
2. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. Toshkent: Universitet, 2008. 3-bet;
3. Farhangi zaboni tojiki. Jildi 2. M., 1969. S. 491; Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent, 1972. 660; 726-betlar;
4. Farhangi zaboni tojiki. Jildi 2. S. 428; Kifoya (Sharhi muxtasari viqoya) 1-juz. Toshkent: Sharq, 2008. 4-bet; Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. 640-bet; Türkçe sözlük. 10 Baski. Ankara, 2005. S. 694; H a k i m o v M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. Toshkent: DAVR PRESS.NMU, 2013. 373-bet;
5. M. Hakimov. Sharq manbashunosligi lug‘ati.-Toshkent.; DAVR PRESS NMU, 2013. 224-bet;
6. Navoiy dasxati (Navodir un-nihoya).-Toshkent,: Fan. 1991. 6-bet ;
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 5-jild. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 322-bet. Navoiy asarlari lug‘ati. 738-739-betlar; Farhangi zaboni tojiki. Jildi 2. S. 696; M. Hakimov Sharq manbashunosligi lug‘ati. Toshkent: DAVR PRESS. 2013. 439-bet.
8. Radjabova B. Onalar bilan suhbat. Toshkent. Turon zamin ziyo, 2014. 8-12-betlar.

HAYDAR XORAZMIY HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISH TARIXI

O'g'iloy NE'MATOVA

TDSHU tayanch doktoranti

XV asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Haydar Xorazmiy haqidagi ilk ma'lumotlar asosan tazkira va majmualarda uchraydi. Bizgacha yetib kelgan manbalarga ko'ra, shoir adabiy merosining hikmatga boyligi o'z davrining yetuk ijodkori bo'lganidan dalolat beradi. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida shoirning zamondoshi sifatida tilga olinishi, uning XV asrda yashab ijod etganligini tasdiqlaydi.⁶⁴

Manbalarda keltirilishicha, Haydar Xorazmiy Xorazm viloyatining Xiva shahrida tavallud topgan. Uning tug'ilgan yili aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, tadqiqotchilar taxminan 1400-1410-yillar orasida tug'ilgan deb hisoblashadi.⁶⁵ Shoir yoshligidan ilm-ma'rifatga qiziqib, arab va fors tillarini mukammal o'rgangan. U Hirot madrasalarida tahsil olgan va bu yerda davr ilm-fanining ko'plab sohalari bilan tanishgan.

Dastlabki manbalarda shoirning ustози Sayyid Qosim Anvor ekanligi qayd etilgan.⁶⁶ Sayyid Qosim Anvor bilan uchrashuvlari va suhbatlari Haydar Xorazmiyning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynagan. Shuningdek, u Sharafiddin Ali Yazdiy va Lutfiy kabi buyuk ijodkorlar bilan ham muloqotda bo'lgan.

XV asrning birinchi yarmida Hirotida istiqomat qilgan Haydar Xorazmiy keyinchalik o'z vatani Xorazmga qaytib, umrining oxirigacha shu yerda yashagan. U Xorazmda turli madrasalarda mudarrislik qilgan va ko'plab shogirdlar yetishtirgan.

Shoirning adabiy merosi asosan lirik she'rlar va "Maxzan ul-asror" dostonidan iborat. Uning g'azallari va ruboiylari XV asr qo'lyozma bayozlarida uchraydi.

⁶⁴ Ганиева С. Алишер Навоий . Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – 89-92 бетлар.

⁶⁵ Кайкавус. Қобуснома. Форсчадан А.Аҳмедов таржимаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 233-237 бетлар.

⁶⁶ Э. Бертелс. Наваи и Жами. – Москва: Наука, 1965. –178-180 бетлар.

"Maxzan ul-asror" dostoni esa Nizomiy Ganjaviyning shu nomdagi asariga javob tarzida 1444-yilda yozilgan.⁶⁷

Haydar Xorazmiy ijodining o'ziga xos xususiyati shundaki, u turkiy tilda ijod qilish bilan birga, forsiy tilda ham asarlar yaratgan. Bu haqda Davlatshoh Samarqandiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro" asarida ma'lumot beradi.⁶⁸

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Haydar Xorazmiy tasavvuf ta'limotini chuqur o'rgangan va o'z asarlarida tasavvufiy g'oyalarni badiiy talqin etgan.⁶⁹ Uning she'rlarida ilohiy ishq, ma'rifat, komil inson g'oyalari yetakchilik qiladi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, shoir 1480-yilda Xivada vafot etgan. Uning qabri Xiva shahridagi qadimiy qabristonlardan birida joylashgan bo'lib, keyinchalik ziyoratgohga aylangan.

Xorazmiy ijodining rus sharqshunosligi doirasida o'rganilishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Dastlab, V.V. Bartold o'zining "Туркестан в эпоху монгольского нашествия" asarida Haydar Xorazmiyning nomi va uning ayrim asarlari haqida qisqacha ma'lumot bergan.⁷⁰ Bu ma'lumotlar garchi mukammal bo'lmasa-da, rus sharqshunosligida shoirning ilk bor tilga olinishi edi.

1920-yillarda A.N. Samoylovich tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. U Haydar Xorazmiyning "Mahzan ul-asror" dostonining Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasini o'rganib, asar haqida ilk ilmiy tavsifni berdi.⁷¹ Samoylovich dostonidagi ayrim baytlarni rus tiliga tarjima qilib, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida qimmatli mulohazalar bildirgan.

Y.E. Bertels o'zining "Литература народов Средней Азии" asarida Haydar Xorazmiy ijodini XV asr adabiy muhiti kontekstida o'rgandi.⁷² U shoirning forsiy adabiyot an'alarini o'zbek adabiyotiga olib kirish borasidagi xizmatlarini alohida

⁶⁷ Ҳакимов М. Ҳайдар Хоразмий ижодиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 234-237 бетлар.

⁶⁸ Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Тошкент: Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 345-348 бетлар.

⁶⁹ Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 89-93 бетлар.

⁷⁰ Бартолд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963. – 156-159 бетлар.

⁷¹ Самойлович А. К истории литературного среднеазиатского-турецкого языка. – Ленинград: АН СССР, 1928. – 89-93 бетлар.

⁷² Бертелс Е. Литература народов Средней Азии. – Москва: Наука, 1960. – 234-237 бетлар.

ta'kidlagan. Shuningdek, Bertels Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy ijodiga munosabati masalasini ham tadqiq etgan.

I.V. Stebleva o'zining "Разветие турецких поэтических форм в XI веке " monografiyasida Haydar Xorazmiy she'riyatining poetik xususiyatlarini tahlil qilgan.⁷³ U shoirning aruz tizimidan foydalanish mahorati, qofiya tizimi va badiiy san'atlarni qo'llash usullarini chuqur o'rgandi.

A.N. Kononov rahbarligida olib borilgan turkologik tadqiqotlarda Haydar Xorazmiy asarlarining lingvistik xususiyatlari o'rganildi.⁷⁴ Bu izlanishlar natijasida shoir asarlarining til xususiyatlari, leksik qatlami va grammatik shakllari haqida muhim xulosalar chiqarildi.

M.I. Zand Haydar Xorazmiyning tasavvufiy qarashlarini o'rganishga katta e'tibor qaratdi.⁷⁵ U shoirning tasavvuf falsafasi bilan bog'liq terminologiyasi va ramziy obrazlar tizimini tahlil qildi. Bundan tashqari, Zand shoirning Jaloliddin Rumiy va Farididdin Attor ijodiy merosidan ta'sirlanish masalalarini ham tadqiq etdi.

L.V. Dmitriyeva rahbarligidagi guruh tomonidan tuzilgan "Описание тюркских рукописей института востоковедения" katalogida Haydar Xorazmiy asarlarining qo'lyozma nusxalari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.⁷⁶ Bu katalog orqali shoirning hozirgacha noma'lum bo'lgan ayrim asarlari aniqlandi.

S.N. Ivanov Haydar Xorazmiy she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganib, uning XV asr o'zbek adabiyotidagi o'rnini belgilashga harakat qildi.⁷⁷ U shoirning g'azal janridagi mahoratini alohida ta'kidlab, ularning badiiy-estetik qimmatini ochib berdi.

N.I. Konrad va V.M. Jirmunskiy kabi olimlarning qiyosiy adabiyotshunoslik sohasidagi tadqiqotlarida Haydar Xorazmiy ijodi Sharq xalqlari adabiyoti

⁷³ Стеблева И. Разветие турецких поэтических форм в XI веке. – Москва: Наука, 1971. – 123-126 бетлар.

⁷⁴ Кононов А. Грамматика языка турецких рунических памятников. – Ленинград: Наука, 1980. – 67-70 бетлар.

⁷⁵ Занд М. Шест веков славы. – Москва: Наука, 1964. – 145-148 бетлар.

⁷⁶ Дмитриева Л. Описание тюркских рукописей института востоковедения. – Москва: Наука, 1980. – 289-292 бетлар.

⁷⁷ Иванов С. Турецкая поэтика и его источники. – Москва: Наука, 1973. – 167-170 бетлар.

kontekstida o'rganildi.⁷⁸ Ular shoirning Sharq mumtoz adabiyoti an'alarini rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatib berdilar.

G.F. Blagova Haydar Xorazmiy asarlarining tekstologik xususiyatlarini o'rgandi.⁷⁹ U shoir asarlarining turli qo'lyozma nusxalarini qiyosiy o'rganib, ularning eng mukammal variantlarini aniqlashga harakat qildi.

Bundan tashqari, rus sharqshunoslari Haydar Xorazmiy asarlarining qo'lyozma nusxalarini tadqiq etish va kataloglashtirish borasida ham katta ishlarni amalga oshirdilar. Sankt-Peterburg, Moskva va Qozon shaharlaridagi kutubxona va qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgan nusxalar aniqlandi va ularning ilmiy tavsiflari tuzildi.

Rus sharqshunoslari shoirning "Mahzan ul-asror" dostonini Nizomiy Ganjaviyning shu nomdagi asari bilan qiyosiy o'rganish orqali muhim xulosalarga keldilar. Dostondagi obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari va g'oyaviy-kompozitsion xususiyatlar har tomonlama tahlil etildi.

Shuningdek, rus olimlari Haydar Xorazmiy she'riyatining janrlar tarkibini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratdilar. Shoirning g'azal, ruboiy, qasida va boshqa janrlardagi asarlari klassifikatsiya qilindi va ularning o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Rus sharqshunoslarining muhim xizmatlaridan yana biri shundaki, ular Haydar Xorazmiy ijodini jahon adabiyotshunosligi doirasiga olib chiqdilar. Ular tomonidan shoirning ayrim asarlari rus tiliga tarjima qilindi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi.

1960-1980-yillarda rus sharqshunoslari tomonidan Haydar Xorazmiy ijodining turli qirralari bo'yicha bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Bu tadqiqotlarda shoirning hayoti va ijodiga oid yangi mal'umotlar, faktlar va ilmiy xulosalar o'z aksini topdi.

Sharqshunos olimlar Haydar Xorazmiyning XV asr Xorazm adabiy muhitidagi o'rnini va mavqeini belgilashga ham alohida e'tibor qaratdilar. Ular

⁷⁸ Конрад Н. Запад и восток. – Москва: Наука, 1972. – 234-237 бетлар.

⁷⁹ Благова Г. Турецкие литературные языки XV века. – Москва : Наука, 1977. –178-181 бетлар.

shoirning zamondoshlari bilan adabiy aloqalari, ustoz-shogirdlik munosabatlarini chuqur o'rgandilar.

Rus sharqshunoslarining tadqiqotlari natijasida Haydar Xorazmiyning tasavvufiy qarashlari, falsafiy dunyoqarashi va diniy-ma'rifiy g'oyalari ham ilmiy jihatdan o'rganildi. Bu izlanishlar orqali shoirning ma'naviy merosining chuqur mohiyati ochib berildi.

Haydar Xorazmiy ijodining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Fitrat "O'zbek adabiyoti namunalari" asarida Haydar Xorazmiyning ayrim she'rlarini keltirish bilan birga, uning XV asr o'zbek adabiyotidagi o'rni haqida dastlabki ilmiy mulohazalarni bildirgan.⁸⁰

O'tkir Rashid 1940-yillarda Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostonini tadqiq etishni boshladi va doston matni ustida tekstologik ishlar olib bordi.⁸¹ U dostonning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash uchun qo'lyozma nusxalarni qiyosiy o'rgandi va asar haqida qator maqolalar e'lon qildi.

G'ulom Karimov o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida Haydar Xorazmiy ijodini XV asr adabiy jarayoni doirasida tahlil qildi.⁸² Olim shoirning adabiy merosini davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan bog'lab o'rgandi.

Vohid Abdullayev Haydar Xorazmiy she'riyatining poetik xususiyatlarini maxsus tadqiq etdi.⁸³ U shoirning badiiy mahorati, obrazlar tizimi va she'riy san'atlardan foydalanish usullarini chuqur tahlil qildi.

Natan Mallayev o'zining fundamental tadqiqotlarida Haydar Xorazmiyning adabiy merosini har tomonlama o'rgandi.⁸⁴ U shoirning hayoti va ijodiga oid yangi ma'lumotlarni aniqladi hamda asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berdi.

Abduqodir Hayitmetov Haydar Xorazmiy ijodining tasavvufiy asoslarini tadqiq etdi.⁸⁵ Olim shoirning ma'rifiy-falsafiy qarashlarini tahlil qilib, uning tasavvuf ta'limotini chuqur bilgan ijodkor ekanligini isbotladi.

⁸⁰Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. – Тошкент: Ўздавнашр, 1928. – 45-48 бетлар.

⁸¹Рашид Ў. Ҳайдар Хоразмий ва унинг "Махзан ул-асрор" дostonи. – Тошкент: Фан, 1945. –123-126 бетлар.

⁸²Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966. – 234-237 бетлар.

⁸³Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 167-170-бетлар.

⁸⁴Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 89-92 бетлар.

Ergash Rustamov Haydar Xorazmiy asarlarining tili va uslubiy xususiyatlarini o'rgandi.⁸⁶ U shoirning so'z qo'llash mahorati, badiiy tasvir vositalari va sintaktik xususiyatlarini tadqiq etdi.

Bo'riboy Ahmedov o'zining tarixiy-biografik tadqiqotlarida Haydar Xorazmiyning hayoti va faoliyatiga oid yangi ma'lumotlarni aniqladi.⁸⁷ U shoir yashagan davr, muhit va ijtimoiy sharoitni chuqur o'rgandi.

Najmiddin Komilov Haydar Xorazmiyning tasavvufiy qarashlari va falsafiy dunyoqarashini maxsus o'rgandi.⁸⁸ U shoirning irfoniy g'oyalari va ramziy obrazlarini tahlil qilib, ularning ma'no qatlamlarini ochib berdi.

Suyima G'aniyeva Haydar Xorazmiy ijodining manbashunoslik masalalarini tadqiq etdi.⁸⁹ U shoirning asarlari qo'lyozmalarini aniqlash va tavsiflash borasida muhim ishlarni amalga oshirdi.

"Maxzan ul-asror" dostonining qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent va Tehron kutubxonalarida saqlanmoqda. Asar matni ustida olib borilgan tekstologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, doston 3400 baytdan iborat.⁹⁰

Dostonda ilgari surilgan asosiy g'oyalar insonparvarlik, adolat, ma'rifat va komil inson tarbiyasi masalalariga qaratilgan. Shoir o'z davrining dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarini ham ko'tarib chiqqan.⁹¹

Asarda tasavvufiy g'oyalar ham keng o'rin olgan. Haydar Xorazmiy irfoniy timsollar va ramziy obrazlar orqali insonning ma'naviy kamolot yo'lidagi harakatini tasvirlaydi. Bu jihatdan asar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy an'analarini davom ettiradi.

"Maxzan ul-asror"ning badiiy xususiyatlari haqida so'z yuritganda, unda qo'llanilgan she'riy san'atlar, obrazlar tizimi va badiiy tasvir vositalarining rang-barangligi e'tiborni tortadi. Doston tili sodda va ravon bo'lib, xalq og'zaki ijodi ta'siri sezilib turadi.

⁸⁵Хайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996. –178-181 бетлар.

⁸⁶Рустамов Э. Ўзбек поэзиясида аруз. –Тошкент: Фан, 1972. – 145-148 бетлар.

⁸⁷Аҳмедов Б. Ўзбек адабиёти тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 256-259 бетлар.

⁸⁸Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009. –198-201 бетлар.

⁸⁹Ғаниева С. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1990. –167-17 бетлар.

⁹⁰Воҳидов Р. "Маҳзан ул-асрор" қўлёзмалари. – Тошкент: Фан, 1975. – 89 бетлар.

⁹¹Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009. –202-207 бетлар.

Dostonda muallif o'z davrining ilg'or fikrlarini ilgari surgan. Jumladan, adolatli podshoh, odil jamiyat, ma'rifatli xalq g'oyalari asarning asosiy leytmotivini tashkil etadi.

"Maxzan ul-asror" kompozitsion jihatdan puxta ishlangan asar bo'lib, unda voqealar rivoji mantiqiy izchillikka ega. Har bir maqolat muayyan hikoyat bilan mustahkamlanadi va axloqiy xulosa chiqariladi.

Dostonning til xususiyatlari o'sha davr adabiy tilining barcha jihatlari: fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Bu jihatdan asar XV asr o'zbek adabiy tilining muhim manbayi hisoblanadi.

Asosan turk adabiyoti manbalari tahliliga ko'ra, bu asar Nizomiy Ganjaviyning shu nomdagi masnaviysiga nazira sifatida 1409-1414-yillar oralig'ida yozilgan va Temurning nabirasi Iskandar ibn Umar Shayx Mirzoga bag'ishlangan.⁹²

Doston aruzning "muftailun-muftailun-foilun" vaznida yozilgan bo'lib, 619 baytdan iborat. Asar an'anaviy muqaddima, asosiy qism va xotimadan tashkil topgan. Kirish qismida tavhid, na't, so'z haqida manzuma, Sulton Iskandarning madhi va sababi ta'lif o'rin olgan bo'lib, bu qism 144 baytni tashkil etadi.⁹³

Asarning asosiy qismi o'nta bob (maqolat)dan iborat bo'lib, har bir bob avval hikoya, so'ng shu hikoya bilan bog'liq axloqiy-ta'limiy xulosadan iborat. Dostonda insonparvarlik, adolat, ma'rifat, komil inson tarbiyasi masalalari yoritilgan. Shuningdek, asarda o'z davrining dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalari ham ko'tarilgan.⁹⁴

Haydar Xorazmiy dostonda tasavvufiy g'oyalarni ham keng yoritgan. U irfoniylar timsollar va ramziy obrazlar orqali insonning ma'naviy kamolot yo'lidagi harakatini tasvirlaydi. Asar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy an'analarini davom ettiradi.

⁹²TEİS - Türk Edebiyatı İsimler Sözlüğü. "Haydar Tilbe, Mîr Haydar" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/haydar-tilbe-mir-haydar>

⁹³TEES - Türk Edebiyatı Eserler Sözlüğü. "Mahzenü'l-Esrâr (Haydar Tilbe, Mîr Haydar)" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://tees.yesevi.edu.tr/madde-detay/mahzenu-l-esrar-haydar-tilbe-mir-haydar>

⁹⁴Chakmak, S. (2019). "Mahzenü'l-Esrâr'ın Uygur Harfli Ali Şah Bahşı Nüshası". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 66, 331-354.

Misol uchun, asardan bir parcha:

*"Tilbeligim tutti dimog'im yo'lin,
To'lg'adi bu nag'ma qulog'im qo'lin.
Tartti ul maya-i hushyorlig',
Jon ko'ziga surma-i bedorlig'..."*⁹⁵

Dostonda qo'llanilgan she'riy san'atlar, obrazlar tizimi va badiiy tasvir vositalarining rang-barangligi e'tiborni tortadi. Asar tili sodda va ravon bo'lib, xalq og'zaki ijodi ta'siri sezilib turadi. Asarning badiiy xususiyatlari haqida so'z yuritganda, unda keltirilgan hikoyalarning aksariyati Turk tarixidan olinganligi ham muhim ahamiyatga ega.

"Maxzan ul-asror"ning qo'lyozma nusxalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Jumladan, London, Parij, Vena, Qozon kutubxonalarida hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida asarning nusxalari mavjud. Asar 1858-yilda Qozonda ilk bor nashr etilgan.

Bu doston nafaqat o'zbek adabiyoti, balki butun turkiy adabiyot tarixida muhim o'rin tutadi. Navoiy "Muhokamatul-lug'atayn" asarida Haydar Xorazmiyni turkiy tilda ijod qilgan yirik shoirlar qatorida tilga olgan. Zamonaviy tadqiqotchilar uni XV asr Chig'atoy shoirlari orasida Lutfiydan keyin eng qudratli ijodkor sifatida e'tirof etadilar.

Haydar Xorazmiy XV asr o'zbek adabiyotida "turkigo'y" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. U asarlarini asosan turkiy tilda yaratgan bo'lib, uning bizgacha yetib kelgan asosiy merosi "Maxzan ul-asror" dostonidir. Bundan tashqari, Eron Milliy kutubxonasida saqlanayotgan 850/1450-yilda ko'chirilgan "Muntahaboti ash'or" nomli majmuada shoirning 30 baytlik bir qasidasi ham topilgan.⁹⁶

Shoirning turkiy tildagi merosi o'z davrida yuksak baholangan. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida uni Sakkokiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy va Lutfiy kabi turkiygo'y shoirlar qatorida tilga olgan.

⁹⁵TEİS - Türk Edebiyatı İsimler Sözlüğü. "Haydar Tilbe, Mîr Haydar" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/haydar-tilbe-mir-haydar>

⁹⁶TEİS - Türk Edebiyatı İsimler Sözlüğü. "Haydar Tilbe, Mîr Haydar" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/haydar-tilbe-mir-haydar>

Biroq Navoiy Lutfiydan boshqa bu shoirlarni forsiygo'y shoirlar darajasida ko'rmagan.

Shoirning turkiy tildagi merosi tilshunoslik nuqtai nazaridan ham qimmatlidir. Uning asarlari XV asr o'zbek adabiy tilining muhim manbayi hisoblanadi. Asarlarda qo'llanilgan so'z va iboralar, grammatik shakllar o'sha davr tilining xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, shoirning turkiy tildagi asarlari XV asr ijtimoiy-siyosiy hayotini, xalqning turmush tarzini, urf-odatlarini o'rganishda ham qimmatli manba hisoblanadi.

"Maxzan ul-asror" dostonining kirish qismida tavhid, na't, so'z haqida manzuma, Sulton Iskandarning madhi va sebab-i ta'lif o'rin olgan bo'lib, bu qism 144 baytni tashkil etadi. Asarning asosiy qismi o'nta bob (maqolat)dan iborat bo'lib, har bir bob avval hikoya, so'ng shu hikoya bilan bog'liq axloqiy-ta'limiy xulosadan tashkil topgan.⁹⁷

Misol uchun, asardan bir parcha:

"Tilbeligim tutti dimog'im yo'lin,

To'lg'adi bu nag'ma qulog'im qo'lin.

Tartti ul maya-i hushyorlig',

Jon ko'ziga surma-i bedorlig'..."

Asarning qo'lyozma nusxalari dunyo kutubxonalarida keng tarqalgan. Jumladan, London, Parij, Vena, Qozon kutubxonalarida hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida asarning nusxalari mavjud. Ayniqsa, Ali Shoh Bahshi tomonidan Uyg'ur harflari bilan ko'chirilgan nusxa alohida ahamiyatga ega.⁹⁸

"Maxzan ul-asror" dostoni XV asr turkiy adabiyoti tarixida muhim hodisa bo'lib, u turkiy tildagi axloqiy-falsafiy dostonchiligining yirik namunasi hisoblanadi. Asar turkiy tilning boyligi, qudrati va ko'rkini namoyon qilgan hamda o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

⁹⁷TEES - Türk Edebiyatı Eserler Sözlüğü. "Mahzenü'l-Esrâr (Haydar Tilbe, Mîr Haydar)" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://tees.yesevi.edu.tr/madde-detay/mahzenu-l-esrar-haydar-tilbe-mir-haydar>

⁹⁸Chakmak, S. (2019). "Mahzenü'l-Esrâr'ın Uygur Harfli Ali Şah Bahşı Nüshası". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 66, 331-354.

Haydar Xorazmiy she'riyatining yana bir muhim xususiyati - uning xalqchilligidir. U murakkab falsafiy-tasavvufiy g'oyalarni oddiy va tushunarli tilda ifodalay olgan. Asarlarida xalq maqollari, hikmatli so'zlar va ibratli hikoyalardan unumli foydalangan.⁹⁹

Shuningdek, shoir turkiy she'riyatda yangi mazmun va shakl yaratishga intilgan. Uning g'azallari va ruboiylari o'ziga xos badiiy topilmalarga boy. Asarlarida an'anaviy sharq she'riyati unsurlari bilan birga, turkiy xalqlar turmush tarzi, milliy qadriyatlari uyg'unlashib ketgan.

Xulosa qilib aytganda, Haydar Xorazmiyning turkiy tildagi merosi XV asr o'zbek adabiyotining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning asarlari badiiy barkamolligi, g'oyaviy teranligi, til xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shoir merosi nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarixshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ганиева С. Алишер Навоий . Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – 89-92 бетлар.
2. Кайкавус. Қобуснома. Форсчадан А.Аҳмедов таржимаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 233-237 бетлар.
3. Э. Бертелс. Наваи и Жами. – Москва: Наука, 1965. –178-180 бетлар.
4. Ҳакимов М. Ҳайдар Хоразмий ижодиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 234-237 бетлар.
5. Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Тошкент: Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 345-348 бетлар.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 89-93 бетлар.
7. Бартолд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963. – 156-159бетлар.

⁹⁹TEİS - Türk Edebiyatı İsimler Sözlüğü. "Haydar Tilbe, Mîr Haydar" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/haydar-tilbe-mir-haydar>

- 8.Самойлович А. К истории литературного среднеазиатского-турецкого языка. – Ленинград: АН СССР, 1928. – 89-93 бетлар.
9. Бертелс Е. Литература народов Средней Азии. – Москва: Наука, 1960. – 234-237 бетлар.
10. Стеблева И. Разветие турецких поетических форм в XI веке. – Москва: Наука, 1971. – 123-126 бетлар.
11. Кононов А. Грамматика языка турецких рунических памятников. – Ленинггард: Наука, 1980. – 67-70 бетлар.
12. Занд М. Шест веков славы. – Москва: Наука, 1964. – 145-148бетлар.
13. TEİS - Türk Edebiyatı İsimler Sözlüğü. "Haydar Tilbe, Mîr Haydar" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/haydar-tilbe-mir-haydar>
- 14.TEES - Türk Edebiyatı Eserler Sözlüğü. "Mahzenü'l-Esrâr (Haydar Tilbe, Mîr Haydar)" maqolasi. Ahmet Yesevi Universiteti, 2024-yil. <http://tees.yesevi.edu.tr/madde-detay/mahzenu-l-esrar-haydar-tilbe-mir-haydar>
15. Chakmak, S. (2019). "Mahzenü'l-Esrâr'ın Uygur Harfli Ali Şah Bahşı Nüshası". Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 66, 331-354.

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI MUQADDIMA QISMI TAVSIFI

Malika SHUKRULLAYEVA

TDSHU magistranti

Yusuf Xos Hojib “Saodatga eltuvchi bilim” nomi negizida adolatli podshoh, oqil vazir hamda, fahm-farosati butun jamiyat a’zosi bo‘lish qoidalarini o‘tmish va hozirgi davr har bir qatlam aholisiga nasihat o‘rnida tushunarli qilib yetkazib bera oldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Qutadg‘u bilig” baxt-u saodat haqidagi kitobdir. Asarni o‘qib, ibrat olgan, undagi ko‘rsatmalarga amal qilgan kishilarga saodat eshiklari ochiladi.

Kitob nasr bilan yozilgan muqaddima, boblarni ko‘rsatuvchi fihrist (mundarijasi) va nazm qismidan tarkib topgan. Uning 11 fasli she’riy debocha bo‘lib, qolganlari voqea bayonidan iborat. So‘nggi faslda kitobning yozilgan yili haqida ma’lumot berilgan. Tabiiyki, qo‘lyozma nusxalar o‘zaro farqlanadi. Akademik A.Kononov asarning Namangan nusxasini mavjud nusxalar ichida nisbatan mukammali deb hisoblagan¹⁰⁰

Masalan, xattotlarning xatosi tufayli Namangan nusxasi 6,095 bayt, Qohira nusxasi 5,400 bayt, Vena nusxasi esa butunlay nomukammal bo‘lib qolgan. Ulug‘ bobokalonimizning o‘zi tartib bergan va o‘sha davrda ko‘chirilgan asarning asil nusxasi haligacha topilgani yo‘q. Buning ustiga “Qutadg‘u bilig” asari ustidagi tadqiqotlar behad kechikib, faqatgina yigirmanchi asrga kelib boshlandi. XI asrda shunday asar yozilgani haqidagi ilk xabar bizning matbuotimizda 1914 yili e’lon qilindi. Oradan o‘n yil o‘tgach, professor Abdurauf Fitrat dostonning Namangan nusxasini qo‘lga kiritdi va ma’lum izohlar bilan asardan parcha e’lon qildirdi. Oradan yigirma yil o‘tgach, bu xayrli ishga turk olimi Rishod Rahmatiy Orot qo‘l urdi. U “Qutadg‘u bilig”ning dunyoda mavjud uchchala nusxasini solishtirib, nomukammalliklar o‘rnini to‘ldirdi va 1947 yili dostonning nasriy bayonini chop ettirdi.¹⁰¹

¹⁰⁰ Болосогунский Ю. Благодарное знание / Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983. – С. 495-517.

¹⁰¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. Kirishdan 11 bobgacha. Emin Usmon tarjimai, <https://kh-davron.uz/>

Nusxa	Muqaddima turi	Til va Uslub	Stilistik va Matnshunoslik Tavsifi
Namangan	Nasriy va nazmiy	Badiiy til, murakkab sintaksis, tasviriy vositalar boy.	Muqaddimalarda ko‘p metafora mavjud. Qismlar orasida badiiy izchillik saqlangan. Matn ichida izohli sharhlar bor.
Vena	Nasriy va nazmiy	Oddiy va rasmiy til, ixcham sintaksis, to‘g‘ri bayon.	Nazmiy muqaddimalar qisqa va mazmunli. Matn tuzilishi qat’iy va rasmiy, tasviriy vositalar kam. Qofiyaviy va ritmik jihatlar me’yorida.
Qohira	Nasriy	Murakkab va o‘zgaruvchan til, xalq og‘zaki unsurlari seziladi.	Qo‘shimcha izohlar va she’riy tazkiralar mavjud. Sintaktik struktura o‘zgaruvchan, ayrim mantiqiy kengaytirilgan ifodalar ko‘p. Qofiyalar va ritmik moslashuv kuchliroq.

Asarning bosh g‘oyasi jaholatga qarshi ma’rifatdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqida yoshlarga qarata: “O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir Soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik - umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim – o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini also unutmang!”¹⁰²deydi.

Oqillik va johillik haqida Yusuf Xos Hojib:

313. Bilim boylik erur, hech ado bo‘lmas,

Qaroqchi yo o‘g‘ri tunab ketolmas.

314. Kishiga aql va bilimdir kishan,

Yomonlik qilolmas er kishan bilan,

¹⁰² Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda Uzbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar) Toshkent – 2021, 50 bet

318. *Nodonga yog‘iy bilgani, qilmishi,*
Yetar ikkovining janjal,tashvishi.

320. *Oqilga o‘z aqli doimo eshdir,*
*Nodonga otiyoq tahqir, tashvishdir.*¹⁰³
,deydi.

Mavzuyimiz ““Qutadg‘u bilig” asaridagi nasriy va nazmiy muqaddimalar” ekan, asarning muqaddima qismida nimalar haqida so‘z yuritilgan, qaysi janrda va ma’lumotlar qay tartibda berilganligi haqida so‘z yuritamiz. Asar masnaviy janrida yozilgan bo‘lib muqaddima qismi o‘sha davr tartib-qoidasiga ko‘ra basmala bilan boshlanib, Ulug‘ Tangriga hamd, yalavach va to‘rt sahobiyga na’t aytish bilan boshlaydi. Ishni 462/1069-yilda yozib tugallab, Tavg‘ach Ulug‘ Bug‘raxonga taqdim qilgan. Asar hukmdorga ma’qul bo‘lgani uchun shoirga Xos Hojib unvoni berilgan. Bu haqida Yusuf Xos Hojib shunday deydi:

“Bug‘raxon vaqtida yozildi ayon,
Yana xon tilicha etilgan bayon.
Bu yanglig‘ kitobni kim aytgan azal,
Keyin ham kim aytar bu qadar go‘zal?!

So‘ngra “Xos Hojib” (“Eshik og‘asi”) unvoni berilishi:

Bu Xas Hacib atin tegürmiş mun,a
Muni bu özin,e yağutmiş yänä
(Bunga Xos Hojiblik unvonini berdi,
Buni yanada o‘ziga yaqinlashtirdi).¹⁰⁴

Nusxalarning uchovi ham o‘ziga xos bo‘lib, hozirgacha mukammal nusxa topilmagan. Asarning uchalasi ham afsuski to‘liq emas. Yigirmanchi asrga kelibgina ushbu asar kashf etilini, ilmiy ishlar olib borilgan. Muqaddimalarning o‘zaro qiyosi hamda tahlili “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilish jarayonidagi stilistik va kontseptual yondashuvlarni tushunishga yordam beradi. Har bir

103 Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. Kirishdan 11- bobgacha. Emin Usmon tarjimai, <https://kh-davron.uz/>

104 Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig: (“Saodatga eltuvchi bilim”)/Transkripsiya va hozirgi o‘zbek tilliga tavsif/nashrga tayyorlovchi: Filologiya fanlari kandidati Qayum Karimov/O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti/ Toshkent-1971/963.bet.

nusxaning o'ziga xos xususiyatlari asarning matn tarixi va tahririyati haqida muhim ma'lumotlar olishga yordam beradi. Bunday qiyosiy tahlillar kelgusida asarni mukammal nashr qilish va tarjimalar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrdamiz.

Xulosa. “Qutadg‘u bilig” muqaddimalarining matnshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilishi asarning til, uslub va mazmun xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki har bir asarning asosiy negizini qisqacha bayonini biz muqaddima qismini o‘qib xayolimizda nima to‘g‘risida ekanligi haqida tasavvur hosil qilamiz. Nusxalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash orqali esa asarning dastlabki ko‘rinishlariga yaqinlashish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Болосогунский Ю. Благодатное знание / Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983. – С. 495-517.

2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. Kirishdan 11- bobgacha. Emin Usmon tarjimasi, <https://kh-davron.uz/>

3. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda Uzbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar) Toshkent – 2021, 50 bet

4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. Kirishdan 11 bobgacha. Emin Usmon tarjimasi, <https://kh-davron.uz/>

5. Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig: (“Saodatga eltuvchi bilim”)/Transkripsiya va hozirgi o‘zbek tilliga tavsif/nashrga tayyorlovchi: Filologiya fanlari kandidati Qayum Karimov/O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti/ Toshkent-1971/963.bet. 58-59-betlardan foydalanildi.

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDA SHOHLAR BAYONI

Sayyidmahmudxon PARPIYEV

TDSHU magistranti

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida shohlar obrazini faqat tarixiy shaxslar sifatida emas, balki ma’naviy-axloqiy ideallarni ifodalovchi ramzlar sifatida tasvirlaydi. Asarda Iskandar obrazida ideal podshoh timsoli chiziladi, ammo bu obraz orqali shoir boshqa shohlarning ham sifatlari, qilmishlari, ularning davlatga, ilmga va xalqqa munosabati haqida bahs yuritadi.

Asarning hamd bobiga kelsak, unda Alisher Navoiy Alloh taoloning buyukligi, butun borliqning egasi ekanini, olamning yaralishini shohlarga bog‘lab nihoyatda yuqori darajadagi badiiy uslubda ifodalagan. Xususan, podshoh qanchalar qudratli bo‘lmasin shohlar Shohi oldida ehtiyojmand ekanini, Uning rahmatiga har lahzada muhtoj ekanini bayon qilgan. Shu jihatdan Alisher Navoiyning Saddi Iskandariy asarini podshohlarga qaratilgan nasihatnoma desak ham haqiqatdan yiroq bo‘lmaydi. Zero, bobokalonimiz o‘zining har bir asarida o‘quvchini tafakkurga chorlagan, yuksak ilmiy mahoratidan, tilning go‘zal jilvasidan foydalanib zaruriy nasihatlarini bergan. Chunki bitilayotgan har bir asar muayyan bir maqsadni oldiga qo‘yadi va aniq maqsaddan yiroqlashish mantiqsizlik sanaladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida shohlar shunchaki tarixiy shaxslar emas, aksincha ma’naviy-axloqiy ideallarni ifodalovchi ramzlar sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiyning nazarida shoh – ilmi, adolati, rahm-shafqati, oqilona boshqaruvi bilan ajralib turuvchi shaxsdir. Asardagi Iskandar – bu fazilatlarini o‘zida mujassam etgan obraz hisoblanadi.

Iskandarning shoh sifatidagi faoliyati quyidagi jihatlar bilan ajralib turgan:

Ilmga e’tibor: Iskandar har bir yurtida olimlarni izlaydi, ularning suhbatidan bahramand bo‘lishga intiladi. U donishmandlikni hukmronlikdan ustun qo‘yadi.

Adolatparvarlik: Uning yurishlari nafaqat hudud zabt etish, balki zulmga qarshi kurashish, tartib o‘rnatish va zulmni yo‘qotish maqsadida olib boriladi.

Ruhiy kamolotga intilish: Asar davomida Iskandar o‘z ichki dunyosini tarbiyalash, o‘zini anglash sari intiladi.

Bu jihatlar orqali Navoiy o‘z davridagi hukmdorlarga ideal siyosiy yetakchi qanday bo‘lishi kerakligini ramziy ifoda bilan yetkazadi.

Dostonda yana turli shohlar va ularning Iskandar bilan bo‘lgan muloqoti orqali siyosiy qarashlarning farqlari ochiladi. Masalan:

Zolim hukmdorlar – haddan oshgan kibr, ilmsizlik va zolimlik orqali o‘z xalqi ustidan hukmronlik qiladi, ammo Iskandar ularni yo‘lga soladi.

Donishmand shohlar – o‘z yurti obodligi uchun ilm, fan, adolat va mehnatni targ‘ib qiladi.

Bunday qiyoslar orqali Navoiyning ideal rahbar konsepsiyasi shakllanadi. Unga ko‘ra shoh — xudojo‘y, adolatli, ilmdan nasibador va xalqning dardini tushunadigan shaxs bo‘lmog‘i lozim. Asarda bu tushuncha Qur’oni karimda zikr qilingan Zulqarnayn (Kahf surasi, 83–98-oyatlar) obraziga tayangan holda tasvirlanadi.

Asarda ba’zi shohlar Iskandardan himoya so‘raydi, ba’zilar esa unga qarshi chiqadi. Ularning qismati ham, Navoiy falsafasiga muvofiq, fazilatli va adolatli bo‘lganlar najot topishi, zolim va haddan oshganlar halokatga yuz tutishini ko‘rsatadi. Bu orqali shoir Qur’ondagi “Oqibat taqvodorlarnikidir” degan g‘oyani poetik ifoda qiladi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining cho‘qqisi, so‘z mulking sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” dostoni jahon adabiyotining nodir durdonalaridan sanaladi. Ushbu beshlikning mantiqiy yakuni bo‘lmish “Saddi Iskandariy” dostoni nafaqat o‘z davrining, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim g‘oyaviy-badiiy qimmatga ega bo‘lgan buyuk asardir. Bugungi globallashuv zamonida, axborotlar oqimi shiddat bilan o‘zgarayotgan bir pallada Navoiy merosiga yuzlanish, xususan, “Saddi Iskandariy”ni o‘rganish har qachongidan ham dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda.

“Saddi Iskandariy”ning markazida adolatli hukmdor, ma’rifatparvar shoh va jahongir sarkarda Iskandar Zulqarnayn obrazi turadi. Navoiy ushbu obraz orqali

o‘zining idealidagi jamiyat, davlat boshqaruvi, inson kamoloti haqidagi qarashlarini mahorat bilan ifoda etgan. Asarning bugungi kundagi ahamiyatini bir necha muhim jihatlar orqali ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, davlat boshqaruvi va yetakchilik saboqlari. “Saddi Iskandariy”da adolatli podshohning fazilatlari, uning xalq oldidagi mas’uliyati, mamlakat obodonchiligi yo‘lidagi sa’y-harakatlari keng yoritilgan. Iskandarning el-yurt tashvishi bilan yashashi, adolatni har narsadan ustun qo‘yishi, zulmga qarshi kurashishi bugungi kun rahbarlari uchun ham ibrat namunasidir. Asarda ilgari surilgan xalq bilan maslahatlashib ish tutish, fuqarolarning arz-dodiga quloq solish, qonun ustuvorligini taminlash kabi tamoyillar hozirgi zamon samarali boshqaruvining ham asosini tashkil etadi, shubhasiz. Navoiy Iskandar timsolida nafaqat kuchli sarkarda, balki donishmand siyosatchi, xalq g‘amini yeydigan oqil rahbarni gavdalantiradiki, bu jihatlar bugungi kunda yetakchilardan talab qilinadigan muhim sifatlardir.

Ikkinchidan, ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi o‘rni. “Saddi Iskandariy” yuksak axloqiy qadriyatlarni – adolat, insof, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, saxovat, ilmga intilish kabi fazilatlarni tarannum etadi. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari, pand-nasihatlari orqali o‘quvchida yaxshilikka intilish, yomonlikka nafrat tuyg‘ulari shakllanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonida, turli ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir davrda, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy dunyosini boyitishda "Saddi Iskandariy" kabi mumtoz asarlarning o‘rni beqiyosdir. Iskandarning ilm ahli, donishmandlar bilan suhbatlari, ularning maslahatlariga amal qilishi yoshlarni ilm-marifatga undaydi, tafakkur qilishga, o‘z ustida ishlashga rag‘batlantiradi.

Uchinchidan, ilm-fan va bunyodkorlikning ulug‘lanishi. Dostonda Iskandarning nafaqat zabt etish, balki obodonlashtirish, yangi shaharlar qurish, ilm-fan rivojiga homiylik qilish kabi ezgu ishlari ham tasvirlanadi. Yajuj-majuj balosidan xalqni himoya qilish uchun ulkan devor – “Saddi Iskandariy”ning qurilishi bunyodkorlik va xalqparvarlikning yorqin namunasidir. Bu esa bugungi kunda ilm-fan yutuqlariga tayangan holda innovatsion rivojlanish, mamlakat taraqqiyotiga hissa

qo‘shish g‘oyalari bilan hamohangdir. Asar shu jabhasi bilan yoshlarni yaratuvchanlikka, bunyodkorlikka, o‘z Vatanining ravnaqi uchun fidokorona mehnat qilishga ilhomlantiradi.

To‘rtinchidan, vatanparvarlik va tinchliksevarlik g‘oyalari. “Saddi Iskandariy”da o‘z yurtini sevish, uni tashqi dushmanlardan himoya qilish, xalq osoyishtaligini saqlash kabi g‘oyalar ham muhim o‘rin egallaydi. Iskandarning adolat uchun kurashlari, bosqinchilikka qarshi yurishlari zahirida ezgulikni yoyish, tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish maqsadi yotadi. Bu esa hozirgi notinch dunyoda tinchlikning qadriga yetish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish kabi masalalarning naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Beshinchidan, komil inson tarbiyasi masalasi. Navoiy “Saddi Iskandariy” orqali komil inson konsepsiyasini ilgari suradi. Iskandar obrazi faqatgina hukmdor emas, balki yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zida aql-zakovat, jismoniy kuch, yuksak axloq va ma’naviyatni mujassam etgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U doimo o‘rganishga, o‘zini takomillashtirishga intiladi. Bu esa bugungi yoshlar uchun ham muhim hayotiy yo‘llanmadir. Zero, har tomonlama yetuk, ma’nan boy, intellektual salohiyatli avlodgina mamlakatning yorqin kelajagini ta’minlay oladi.

“Saddi Iskandariy” asaridagi shohlar bayoni Alisher Navoiy siyosiy-falsafiy qarashlarining badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Asardagi Iskandar obrazi orqali shoir o‘z davri hukmdorlariga ibrat, o‘git va axloqiy mezonlar berishni maqsad qilgan. Shohlar haqida bergan baholari, ularni adolat, ilm, rahm-shafqat asosida baholashi bugungi kun uchun ham dolzarbdir.

Alisher Navoiy Asarning “Hamd” bobida Alloh taoloning qudrati barcha maxluqotlar ustidan g‘olib ekani, hukmdorlar har qancha buyuk bo‘lmasin hammasi Uning qarshisida faqiru gado ekanini uqtiradi. Quyida ushbu bobdan ta’sirlanib yozilgan havaskorona she’rni e’tiboringizga havola qilamiz:

Uyg‘otar

*Uyg‘otar ul ishqqa moyil hislaring,
Oshkor aylar kemptig-u noqislaring.*

*Satr bitsa shohlar shohi madhida,
Qo‘shib bitar barcha shohlar qadhida.*

*Rom aylabon she‘riyat muxlisini,
Sayozi yo‘q, faqat ko‘r mavjlisini.*

*Quygan nafis mayidan ich, sarxush bo‘l,
Qo‘yg‘il, barcha sarobdan kech, sen xush bo‘l.*

*Har shohniki da‘bi gadoliq erur,
Barcha banda, yolg‘iz U Xoliq erur.*

*Anglatar har bayti olam kengligin,
Olam aro boy-u faqir tengligin.*

*Bilki, sen ojizsan mudom qarshida,
Tazarru‘ qil, rahmat to‘la Arshida!*

*Agarchi, kurraning molikidursan,
Xaloyiqqa **Sayyid**, Xoliqqa qulsan.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur‘oni Karim, (Kahf surasi, 83–98-oyatlar).
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Toshkent: Fan, 1991.
3. G‘aniyeva N. Alisher Navoiy va Sharq adabiyoti. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1985.
4. Karimov E. Navoiy merosi va hozirgi davr. Toshkent: O‘zbekiston, 2002.

ALISHER NAVOIY “G‘AROYIB US-SIG‘AR” ASARLARINING HAMD VA NA’T G‘AZALLARIDA ISTIORA

Nozima G‘AYBILLAYEVA

TDSHU magistranti

Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan asarlarning nodirligi, ularning asrlar osha o‘qirmanni hayratga solayotganligi hamda shakl va mazmun go‘yo bir-biriga singib, yaxlit kompozitsiya hosil qilishining kaliti bu asarlar butun borliqni yaratgan Alloh taolaga hamd aytish bilan boshlanishidadir. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotimizning bebaho durdonalarini hamdlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning ham har bir asari ibtidosi Yaratganga hamd bilan boshlanadi. Hazrat Navoiyning badiiy mahorati nafaqat asarlaridagi sujet rang-barangligi, betakrorligi, balki g‘azallarida qo‘llanilgan badiiy san’atlar bilan ham belgilanadi. Xususan istiora va tashbeh san’atlaridan keng foydalanish klassik adabiyotning ajralmas unsurlaridan biridir. Shu o‘rinda ayniqsa Navoiy ijodidagi Alloh taolaga hamd va payg‘ambarimiz alayhissalomga na‘tlarga bag‘ishlangan g‘azallarda istioradan keng foydalanilgan.

Sen gumon qilg‘andin o‘zga jom-u may mavjud erur,

Bilmayin nafyi etma bu mayxona ahlin, zohido.

Navoiy ushbu g‘azali orqali o‘z asarlarida o‘quvchining so‘zlardan qilgan gumonidan boshqa ma’nolari borligi, so‘zlarning o‘z emas balki ko‘chma ma’nolarini nazarda tutganini aytadi. Alisher Navoiy g‘azallarida istiora san’ati (ya’ni, metafora) muhim badiiy vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Istiora orqali shoir obrazlarni yanada ta’sirchan, ma’nodor va chuqur ma’naviy mazmun bilan boyitadi. Navoiy o‘z g‘azallarida istiorani faqatgina bezak sifatida emas, balki chuqur falsafiy, diniy va axloqiy tushunchalarni ifodalash vositasi sifatida ishlatgan. Quyidagi jihatlar Navoiy g‘azallarida istiora san’atining o‘rnini ko‘rsatadi:

1. Muhabbat va ma’naviy komillik timsoli sifatida Navoiyda ma’shuq istioraviy obraz bo‘lib, u nafaqat dunyoviy sevgini, balki ilohiy muhabbatni ham anglatadi:

*Ko 'nglimg'a tig' ursang anga, yuragimda ne zarur,
Har kimki o'ldi yo'lda, jon deb angladi tig'ni.*

Bu yerda “tig’” ma’shuqning yomon muomalasi yoki hijroni bo’lishi mumkin, ammo u ilohiy yo’lda halok bo’lishga rozilik timsoli sifatida istioraviy ma’no kasb etadi.

2. Tabiat manzaralari orqali ruhiy holat ifodasi gullar, bulutlar, yulduzlar, oy va quyosh kabi tabiat obrazlari ko‘pincha istiora vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan:

*Oftobdur chehra, zulfi shabistona loyiq,
Yuzig'a har kim qaro bo'lsa, shabiston bo'lg'ay.*

Bu misrada “oftob” (quyosh) ma’shuqaning yuziga istiora sifatida ishlatilgan. Quyosh yorug‘lik manbai bo‘lib, uning go‘zalligi va hayotiy kuchi ma’shuqaning jozibasini ifodalovchi vosita bo‘lib qoladi.

3. Ma’rifiy va tasavvufiy ma’nolarda istiora – ilohiy haqiqatlarni ramziy ifodalash usulidir. Navoiy ko‘plab g‘azallarida bu yo‘lni tutgan:

*Har na ko'rsam, ko'zlarimdin yuz tutar jonon siymos,
Har na tutsam, qo'llarimdin tutsa, tutdi u dasti.*

Bu yerda har bir borliq zohiran dunyoviydek tuyulsa-da, istioraviy ma’noda jonon – bu Xudo va har bir ko‘rinish Uning tajallisi sifatida tasvirlanmoqda.

Alisher Navoiy istiora san’atini yuksak darajada qo‘llagan. U oddiy obrazlarni ramziy ma’noda ishlatib, g‘azallarini nafaqat badiiy, balki ma’naviy va falsafiy jihatdan chuqur asarlarga aylantirgan.

*Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,
Tikan Jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo¹⁰⁵.*

(Navoiy qaysi til bilan Seni maqtasin, axir tikan Jannat gulini vasf qilishda gungdir)

¹⁰⁵ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. J.1: G‘aroyib us-sig‘ar. – T.:G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – B.330

Navoiyning ushbu hamd g‘azalida bevosita istiora san’atini ko‘rishimiz mumkin. Shoir Allohning hamdini jannat guliga o‘zini esa tikanga ko‘chirma qilish bilan ma’no ta’sirini kengaytirayapti va jozibasini oshiryapti.

Ey safhayi ruxsoring azal xattidin insho

*Debochayi xusnungda adab nuqtasi tug‘ro*¹⁰⁶.

(Sening yuzing safhasida azaliylik xati bitilgan, husning kitobi muqaddimasida abadiylik muhri – unvoni mavjud)

Hamd mavzusidagi ushbu bayt Alloh taoloning azaliy va abadiyligini vasfiga bag‘ishlanadi. Azaliylik – ibtidosi yoq cheksiz zamonni, abadiylik intihosi yoq mangulikni bildiradi hamda yolg‘iz Alloh taologa xos bo‘lgan sifatlar hisoblanadi. Dunyodagi jamiki voqea, hodisalarning ibtidio va intihosi bor. Faqat Allohning “safhayi ruxsori” – Allohning zoti, hamda “debochayi husni” – Allohning sifatlari azaliylik va abadiylik xossalari bilan muzayyandir.

Yuz eshiging tufrog‘iga surta olg‘aymenmu deb,

Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro

(Falak qasridan quyosh har kuni eshiging tuprog‘iga yuzini surtmoqqa ya’ni tavof qilgani tushadi).

Bu g‘azaldagi “eshiging tuprog‘i” – huzuring ; “quyosh yuzi” – quyosh nurlari; “charx qasri” – osmon ma’nolarida kelib istiora sanatiga misol bo‘lib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т.: Фан, 1978
2. Қаюмов А. Фарҳод ва Ширин сирлари: эзгулик ва севгини улуғловчи мотивлар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
3. Исҳоқов Й. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: “Зарқалам” нашриёти, 2006. –80 б.
4. Ҳожирахмедов А. Мумтоз бадийят луғати. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. –125-б.
5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. Тошкент: Фафур Ғулом, 1981. – 92-б.

¹⁰⁶ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. J.1: G‘aroyib us-sig‘ar. – Т.:G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – B.350

NAVOIY ASARLARIDA TAKRIR BADIY SAN'ATI

Ibrohim MAJIDOV

TDSHU talabasi

Adabiyotning yuksak badiiy darajaga ko'tarilishi, avvalo, unda qo'llanilgan badiiy san'atlar va uslublar bilan chambarchas bog'liqdir. Mumtoz adabiyotimizda badiiy san'atlarning keng qo'llanishi, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida o'zining yuksak badiiy namunalarini topgan. Ana shunday san'atlar ichida takrir san'ati alohida o'ringa ega bo'lib, Navoiy ijodida uni shaklan va mazmunan boyitgan holatda kuzatamiz.

Takrir arabcha so'z bo'lib, "qaytish", "takrorlash" ma'nolarini bildiradi. Adabiy matnda esa bu san'at biror so'z, ibora yoki gapning ma'lum maqsadda qayta-qayta qo'llanishi orqali ohangdorlikni kuchaytirish, fikrni ta'sirliroq yetkazish, obrazni yorqinlashtirish vazifasini bajaradi. Takrir badiiy vosita sifatida mumtoz adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda keng qo'llanilib, matnning musiqiylikni, ifoda kuchini oshiradi¹⁰⁷.

Alisher Navoiy ijodida takrir san'ati nihoyatda mahorat bilan qo'llangan bo'lib, shoir bu san'at vositasida asarlarining mazmuniy chuqurligini, estetik ta'sirchanligini kuchaytiradi. Shoirning "Xamsa", "Lison ut-Tayr", "Mahbub ul-Qulub" kabi asarlarida takrir san'ati orqali tasvir kuchayadi, obrazlar yanada yorqinlashadi, musiqiylik va emotsional kuch ortadi.

Mazkur maqolada Navoiy asarlarida takrir san'atining qo'llanishi, uning badiiy vazifalari, turlari va boshqa badiiy san'atlar bilan uyg'unligi tahlil qilinadi. Bu orqali shoirning badiiy mahoratini chuqurroq ochib berish maqsad qilingan.

Takrir san'atining turlari: Takrir badiiy san'ati o'z mazmun va shakliga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi. Har bir tur Navoiy asarlarida o'ziga xos uslubda namoyon bo'ladi.

1. Lafziy takrir – bu turda bir xil so'z yoki ibora she'r satrlari yoki gaplar ichida qayta-qayta ishlatiladi. Lafziy takrirning asosiy vazifasi – ohangdorlik yaratish, fikrni kuchaytirish va esda qolarli tarzda ifodalashdir.

Kelding, kelding, ey gul, shodligim kelding,

¹⁰⁷ Hojiahmedov A. "She'r san'atlarini bilasizmi?", "Sharq", 2001, 20-bet.

Yuragimga xush, rohatligim kelding...

Bu misrada “kelding” so‘zining takrorlanishi yurak quvonchini, shodlik tuyg‘usini kuchaytirgan.

2. Ma’naviy takrir – bu holda bir xil ma’no turli so‘zlar bilan ifodalanadi. Ma’naviy takrirda so‘zlar turli bo‘lsa-da, ular bildirgan ma’no yaqin yoki bir xil bo‘ladi. Bu esa matnning mazmuniy teranligini oshiradi.

So‘z aytdim, dil to‘ldi, ko‘ngil yayradi,

Qalbimda o‘ylarim shamdek yondi.

“Dil to‘lish”, “ko‘ngil yayrash” va “qalbimda shamdek yonish” – barchasi ichki hissiyotning kuchli ifodasidir.

3. Shakliy takrir – bu turda so‘zning yoki iboraning shakli, tovush takrori orqali musiqiylik yaratiladi. Bu uslub, ayniqsa, ruboiy, g‘azal kabi she’riy janrlarda keng qo‘llanadi.

Tilim tildan so‘z tilar, til tilasa, tilim to‘lar,

Til to‘lishsa, dilim to‘lar, dil to‘lsa, ko‘ngil to‘lar...

Bu yerda so‘zlarning tovush jihatidan takrori so‘z o‘yini va ohang uyg‘unligini kuchaytiradi¹⁰⁸.

Navoiy o‘z asarlarida yuqoridagi barcha takrir turlarini ustalik bilan qo‘llab, badiiy ifoda kuchini maksimal darajada oshiradi. U so‘zlarni takrorlash orqali goh obrazni chuqurlashtiradi, goh esa axloqiy yoki falsafiy g‘oyalarni yoritadi.

Navoiy asarlarida takrir san’atining qo‘llanishi haqida qisqacha so‘z yuritamiz. Alisher Navoiy o‘z asarlarida takrir san’atini faqat ohangdorlik uchun emas, balki chuqur badiiy maqsadlar yo‘lida xizmat qildirgan. U takrir orqali fikrni kuchaytiradi, obrazni jonlantiradi va o‘quvchini emotsional jihatdan ta’sirlantiradi.

“Lison ut-Tayr” asarida takrir ko‘proq ma’naviy-mistik mazmunga xizmat qiladi. Shoir bu asarda qushlar tilidan inson ruhining kamolotga erishish yo‘lida boshidan kechiradigan holatlarni bayon etadi. Takrir esa bu ma’rifiy-falsafiy g‘oyalarni kuchaytiradi:

Yo‘ldir bu – yo‘l ichra yo‘ldir bu,

¹⁰⁸ To‘xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O‘zbekiston”, 2002, 431-432-betlar

Yo'l ichra o'likdek hol – yo'ldir bu...

Bu misralarda “yo'l” so'zining takrori nafaqat lahja ta'sirini oshiradi, balki sufiyning ruhiy sayrini chuqur anglashga xizmat qiladi.

“Mahbub ul-Qulub” asarida esa Navoiy nasriy shaklda ham takrirdan foydalanganini ko'rish mumkin. Nasrda takrir – gaplar va iboralarning takrori orqali fikrni mustahkamlash va didaktik ta'sirni oshirish vositasiga aylanadi.

Ilm kerak, ilm bilan amal kerak, amal bilan adab kerak, adab bilan odob kerak...

Bu takrir orqali shoir axloqiy tarbiyaning bosqichma-bosqich tuzilishini ko'rsatadi, o'quvchini tafakkurga undaydi. Shuningdek, Navoiy g'azallarida ham takrir san'ati keng ishlatilgan. Bu g'azallarni o'qir ekanmiz, so'zlar takrori orqali tuyg'ularning jilvalanishi, ichki sezimlarning boyligi va ko'p qatlamliligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Navoiy g'azallarida takrir ko'pincha ohangdorlik, ritm va mazmunning qat'iyatli ifodasini yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, radifli va matla' misralarida bu yaqqol seziladi.

*“Ko'ngul ko'ngulga bog'lang'ay, agar ko'ngulda ko'ngul bor...”*¹⁰⁹ Bu misrada “ko'ngul” so'zining takrori nafaqat fonetik uyg'unlikni kuchaytiradi, balki ruhiy holatni teran ifodalaydi. Shuningdek, bir baytda yoki butun g'azalda so'zning har misrada takrorlanishi ham kuzatiladi. Bu holatda takrir ma'noni kuchaytiribgina qolmay, she'rning ichki tuzilishini uyg'unlashtiradi.

Navoiy g'azallarida takroriy so'zlar ritmik muvozanatni yaratishda alohida o'rin egallaydi. Takrorlangan so'zlar va iboralar she'rning ichki musiqasini kuchaytiradi. Ayniqsa, bu holat radif va qofiyalarda seziladi.

Yor ko'ngli xumor, ko'ngul xumor,

Ko'ngil xumor, ishq xumor, diydor xumor...

Bu kabi takrorlar o'quvchida ma'naviy estetik ta'sir uyg'otadi, ichki hissiyotga ruhiy teranlik bag'ishlaydi.

Takrir orqali biror g'oyani ta'kidlash, uni chuqurroq anglashga undash Navoiy ijodining muhim jihatlaridan biridir. Shoir ma'naviy-falsafiy fikrlarni, axloqiy qarashlarini takroriy ifodalar bilan yoritadi.

¹⁰⁹ Alisher Navoiy. G'azaliyot (Xazoyin ul-maoniy). – Toshkent: Fan, 2000.

Donolik donolikda, mardlik mardlikda,

Haq yo'lida haqli bo'lish — haqlikda.

Bu yerda so'zlar takrori orqali shoir donolik, mardlik va haqlik tushunchalarini e'tirof etadi va ularni kuchli g'oyaviy yondashuv bilan taqdim etadi.

Dema ishq emas, dema ishq emas,

Ko'ngulda jon, lekin bejon, bu ishq emas.

Bu baytda "ishq emas" takrori orqali Navoiy sevgi tushunchasining murakkabligini, ichki ziddiyatini ifodalaydi. So'zning takroriy qo'llanilishi o'quvchida hissiy rezonans uyg'otadi.

Majnun, Majnun, Majnun der har kim,

Majnunlik o'zi yo'q, ko'ngli har kimda...

Bu yerda "Majnun" so'zining takrori nafaqat ismi sifatida, balki ramziy, tushunchaviy yuklama kasb etadi. Shoir uni jamiyatdagi majnunlik ramzi sifatida ko'rsatadi.

Takrir badiiy san'ati nafaqat Alisher Navoiy, balki Sharq mumtoz adabiyotining ko'plab yirik vakillari ijodida ham muhim uslubiy vosita sifatida qo'llanilgan. Biroq, Navoiyning bu san'atni qo'llashdagi yondashuvi, uni mazmunan chuqurlashtirish va mahorat bilan ishlatishi uni boshqa adiblardan ajratib turadi. Quyida o'zbek adabiyoti-ning ayrim namoyandalari bilan qisqacha solishtirma tahlil keltiriladi.

Navoiy:

Ko'ngul berdim, ko'ngul berdim, ne ko'ngul berdim men,

Ko'ngul ko'ngulga berdim, lekin bilmas ko'nglum kimga¹¹⁰

Bu misolda esa Navoiyda takror mazmuniy-falsafiy chuqurlik bilan uyg'unlashadi, ruhiy kechinmaning teran tasviri yuzaga chiqadi.

Sa'diy Sheroziy, xususan "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida takrir uslubidan axloqiy pand-nasihatlar mazmunini kuchaytirish maqsadida foydalangan. Uning uslubi, asosan, hikmatli so'zlarni ta'sirli ifodalashga qaratilgan.

Sa'diy: "*Sabr qil, sabr qil, sabr qil — najot sabrda.*"¹¹¹

¹¹⁰ Alisher Navoiy. G'azaliyot (Xazoyin ul-maoniy). – Toshkent: Fan, 2000. – B. 152.

¹¹¹ Sa'diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1970. – B. 29.

Bu yerda takrir sabr fazilatini yodga solish, uni muhrlash uchun ishlatilgan.

Navoiy esa bu san'atni ko'proq poetik go'zallik, ruhiy holat, ishq va ma'naviy iztirobni aks ettirishda ishlatadi.

Alisher Navoiy ijodida takrir badiiy san'ati yuksak darajadagi poetik mahorat va badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shoir takrirdan nafaqat ohang va ritm yaratish, balki fikrni chuqurlashtirish, hissiy holatni kuchaytirish, asarning estetik ta'sirini oshirishda ham foydalanadi. Navoiy bu uslubni har bir asariga, har bir baytiga mahorat bilan singdirgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, takrir vositasida Navoiy muayyan tushuncha yoki hissiyotga urg'u bergan, poetik mazmunni mustahkamlashga erishgan, she'riy ohang va ichki musiqiylikni kuchaytirgan, o'quvchi qalbiga ta'sir qilishga muvaffaq bo'lgan. Solishtirma tahlillar ham ko'rsatadiki, Navoiy takrir san'atini boshqa adiblarga qaraganda yanada chuqur, murakkab va rang-barang shakllarda qo'llagan. Bu esa uni mumtoz adabiyotda yuksak poetik maktab yarata olgan ijodkor sifatida tanitadi. Shunday qilib, takrir san'ati Alisher Navoiy she'riyatining badiiy qudratini ochib beruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib, uning ijodiy yondashuvi orqali bu uslub yangi mazmuniy va estetik darajaga ko'tarilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
2. Alisher Navoiy. Devonlar. – Toshkent: Fan, 2000.
3. G'aniyev B. Navoiy g'azaliyotining badiiyati. – Toshkent: O'zbekiston, 1991.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., "O'zbekiston", 2002.
5. Karimov M. O'zbek adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
6. To'xtaboyev N. Badiiy san'atlar va ularning turlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.
7. Rajabov A. Alisher Navoiy va Sharq mumtoz she'riyati. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Sa'diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1970.
10. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 1993.

ALISHER NAVOIY “LISON UT-TAYR” ASARIDA TA’DIL SHE’RIY SAN’ATIDAN FOYDALANGANLIK MAHORATI

Habiba XUSNIDDINOVA

TDSHU talabasi

Mumtoz adabiyotimizda badiiy san’atlar shoirning tafakkuri, til boyligi va obraz yaratish mahoratini ifodalovchi asosiy vositalardan biri sanaladi. Bu san’atlar orasida ta’dil san’ati alohida o’rin tutadi. Ta’dil — bir-biriga yaqin, mazmun jihatdan bog’liq yoki leksik guruhga mansub so’zlarning tartibli sanalishi orqali badiiy ta’sir kuchini oshiruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. Bu san’at fikrni kuchaytirish, obrazni jonlantirish va ohangdorlik yaratish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o’zining sermazmun asarlarida ushbu san’atdan ustalik bilan foydalangan. Xususan, uning “Lison ut-Tayr” dostonida ta’did san’atining xilma-xil ko’rinishlari kuzatiladi. Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga javoban yozilgan bu doston tasavvufiy-ramziy mazmunga ega bo’lib, qushlar timsolida insonning nafs bilan kurashi, komillikka intilishi badiiy ifoda etilgan. Navoiy ushbu asarda o’zbek adabiy tilining nozik jihatlarini ochib berish barobarida, poetik san’atlarni, jumladan, ta’did san’atini juda nafis shaklda qo’llaydi.

Ta’dil san’ati – “siyoqat ul a’dod” bu san’at sodda otlarning qator kelishidir. Atoulloh Husayniy bu san’atni “*lafziyu ma’naviy go’zalliklar*” sirasiga kiritgan. “Arab fusahosi va ba’zi ajam shuarosi qoshida sodda otlarning bir tartib-u bir tariqada keltirmaktur, andoqkim bayt:

Nadorad u sari man garchi sarfi u kardam

Saru zar, dilu din, aqlu donishu jon ham.

“Uning men bilan ishi yo’q, garchi men unga boshimni, oltinni, dilu dinimni, aqlu ilmimni va jonimni ham sarf qilgan bo’lsam ham”. Ushbu misralarda saru zar, dilu din, aqlu donishu jon ta’dil san’atini hosil qiladi, bir qator kelgan bu so’zlar oshiqning ma’shuqa uchun o’zida mujassam narsalarni fido qilayotganini anglatadi.

Shams-i Qays debtur bu san'at andoq bo'lurkim, shoir sodda otlardin bir necha nimani sanab chiqar va andin so'ng hammasin yoki birin-ketin vasf qilur"¹¹²

Jinu malaku hur chaman ichra ko'rinmas,

Yuzung oyidin barchasi sharmanda dagulmu?" (Lutfiy) ¹¹³

Lutfiy ushbu baytda o'zining yorini ta'riflar ekan, uning go'zalligini nihoyatda yuksak darajada tasvirlaydi. Shoir aytadiki: jinlar, farishtalar va hurlar — hech biri bog' ichida (ya'ni go'zalliklar orasida) ko'rinmaydi, sababi, yorning yuzi oydan ham go'zaldir va bu go'zallik oldida ular uyalib yashirinadilar. "Jin, malak, hur" so'zlaridagi ta'dil san'ati, baytning kuchli tasviri kuchini ta'minlaydi.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida she'riy san'atlardan keng foydalangan. "Farhod va Shirin" dostonida shunday bayt bor:

Kim, ya'ni toju taxtu saltanat ham,

Sipohu mulku molu mamlakat ham. ¹¹⁴

XVIII bobi Xoqonning Farhodga toj-u taxtni berayotgan qismidan olingan. Toj-u taxt, salatanat, sipohu mol-mulk, mamlakat ta'did san'at bo'lib, bu sanashlar podsohlikdagi ulug'vorlik va qudratlilikni mujassamlashtirgan.

Alisher Navoiy dostonida lafziy san'atlar turli g'oyaviy-badiiy niyatni, shoir tuyg'ularini ta'sirli, asar qahramonlari kechinmalarini jonli va hayotiy tasvirlashda qo'l kelgan. She'riyatda badiiy san'atlami qo'llashda o'ziga xos qonun-qoidalar, me'yor bo'lishi muhim. Timsollar yangiligi, o'ziga xosligi, betakrorligi, hayot mantiqiga mos kelishi, kitobxonga tushunarli bo'lishi, nafosat qoidasiga muvofiqligi kabilar ham asosiy o'rin tutadi. ¹¹⁵

"Lison ut-tayr" asarida she'riy san'atlardan biri bo'lgan ta'dil san'atining qo'llanilishi.

XIV Qushlarning bir yerga to'planishi va yuqori o'rin talashib bir-birlari bilan nizo qilishlari hamda bir shohga muhtoj bo'lishlari bobidan:

To'tidan yuqori zog' misli darg'a

¹¹² A.Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. 237-bet.

¹¹³ Xo'jayev T. Navoiy "Xamsa"si. 85-bet.

¹¹⁴ A.Navoiy. Farhod va Shirin. 82-bet.

¹¹⁵ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. 4-7-betlar.

Bulbul-u qumridan tepada qarg'a.

Go'yo qushlarning to'rga o'tirishi ularning ulug'vorligini bir-birlaridan ustunligini bildirgandek. Bu baytda bir qancha qushlarning to'ti, zog', bulbul, qumri ketma-ket sanalishi va ritmik ohang orqali uyushib ta'dil san'ati mahorat bilan ifodalanadi.

XXXII Qushlarning yo'lga chiqqanlari va mashaqqat shiddatidan ba'zilarining safariga putur yetgani bobidan:

O'tdilar shahar-u xiyobonlardan,

Obod bog'-u rog'lar, biyobonlardan.

Qushlarning yodiga gulzorlar tushar

Osuda go'shalar, bozorlar tushar

Navoiy ushbu misralarda shahar, xiyobon, bog', rog', biyobon so'zlarini qo'llab badiiy tasvirni yanada kuchli ko'rsatish uchun ham bir leksik guruh toponimlarni qo'llagan. Qushlarning yo'l mashaqqatlari qay go'shalarda o'tganligi tasvirlangan. Keyingi baytda shoir tomonidan bir nechta manzara va makon nomlari: gulzorlar, go'shalar, bozorlar ketma-ket keltirilgan. Bu misralar qushlarning yo'l qiyinchiliklaridan charchab, o'z bo'stonlarini eslashlari keltirilgan. Har bir ketma-ket keltirilgan so'zlarning o'z asl ma'nosi bor. Navoiyning bu qo'llagan san'ati orqali bir so'zdan emas, akincha, bir-biriga yaqin so'zlarning qo'llashi orqali, uning so'z mulkining sultoni ekanligiga yanada muqarrar bo'lamiz. XXXIX Bulbul uzri

Gul mening ko'nghimda ham, jonimda ham,

Ko'zda ham, paydo-yu nihonimda ham.

Ushbu ifodalarda o'z navosini chamanlarda gullarning bag'rida kuylagan Bulbur uzri keltirilgan. Gullarga shaydolik ishq ramzidir. Gul obrazi insonning turli jihatlarida — ko'ngil, jon, ko'z, zohir va botinda mujassam holatda tasvirlanishi shoirning obrazlar orqali ichki olamni ko'rsatishdagi san'atini namoyon etadi. LXXVIII Hikoyat

Oshiq holi tan-u ham jondan tamom,

Aql-u hush-u kufr-u iymondan tamom.

Navoiy bu o'rinda Shayx San'o g'ayridinga oshiq bo'lib, o'zining nafaqat tan-u jon, balki ruhiy va ma'naviy olami aql, hush, kufr va iymon bilan ham bu dunyodan yiroqlashgan holati tasvirlangan. Bu yerda nafaqat ta'dil san'ati, balki inson iymon va tqavo yo'lida qoim bo'lsa-yu lekin ishiq uni o'ziga rom qilsa, nimalardan uzoqlashganini ko'ramiz. Tan, jon, aql, hush, kufr va iymon insoniylikning asosiy ajralmas qismidir. CVII Hikoyat

Gulshan ham yo'q, qasr ham yo'q, taxt ham yo'q,

Pari paykar ham yo'q, oliy baxt ham yo'q.

Shoirning ushbu tasvirida qalandarning maishatdan ko'z oldiga go'zal hayollar kelishi va chayonning nishi bilan bu hammasi shunchaki, hayol ekanligi keltirilgan. Har doim ham ta'did san'atida bir uyumga xos so'zlar ham bo'lmaydi, balki, o'sha hayollardagi go'zal tasvirlar ham bo'ladi. Gulshan, qasr, taxt, pari, baxt so'zlari bir-biridan boshqa-boshqa ma'noga, lekin qalandarning mast holatidagi uning o'y-hayolini shu narsalar bilan zavqlantirgan. CXXII Hikoyat

Bu yo'lda toji-yu taxtidan kechgan,

Besh kunlik dunyoning baxtidan kechgan.

Shoh Ibrohim Adhamning haq yo'lida toj, taxt va dunyo baxtidan kechkanligi bayon qilingan. Har narsaning o'z asl ma'nosi va mohiyati bor, ta'did san'ati orqali uning toj-u taxt va dunyo baxtidan kechganligini ko'ramiz. Asl mazmun esa, toj – hokimiyat, taxt – shon-shuhrat, dunyo baxti – dunyoning o'tkinchi hoyu havaslaridir. Ta'dil san'atining ohangdorlik jihatidan sanash orqali qo'llanilishi har bir baytni yanada mazmunliroq va so'zlarning bir uyumga qanchalar xosligini ko'rsatgan.

Alisher Navoiy o'zining “Lison ut-Tayr” asarida she'riy mahoratini namoyon etar ekan, turli badiiy san'atlar qatori ta'dil san'atidan ham o'ta nozik did bilan foydalangan. Ushbu san'at — ya'ni sodda otlarning ma'lum tartibda va ohangdorlik bilan qator keltirilishi — shoirning badiiy tafakkurini, leksik imkoniyatlaridan mohirona foydalanish qobiliyatini yaqqol namoyon qiladi. “Lison ut-Tayr” dostonida ta'dil san'ati nafaqat sanash vositasi, balki poetik fikrni kuchaytiruvchi, obrazni boyituvchi va tasviriylilikni oshiruvchi estetik vosita sifa-

tida xizmat qilgan. Ayniqsa, bir leksik guruhga mansub soʻzlar orqali yaratilgan ritmik ohang, mazmunga chuqurlik baxsh etgan. Navoiy sanʼatkorligining bu jihatlari zamonaviy oʻzbek sheʼriyati uchun ham oʻrnak boʻlishi mumkin. Nafaqat, asarning sheʼriy sanʼatlari, aksincha keltirilgan hikoyalar ham har bir mutolaaa qiluvchini oʻziga jalb qiladi. Uning poetik tafakkuri, til boyligi va badiiy ifoda uslublarini oʻrganish adabiyotshunoslik fani oldida muhim vazifa boʻlib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiahmedov. A. *Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya*. Toshkent – 2010
2. Rustamov. A. *Navoiyning badiiy mahorati* Toshkent – 1979
3. Alisher Navoiy. *Lison ut-Tayr*. Toshkent – 2019
4. Yusupova D. *Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi* . Toshkent – 2013
5. Xoʻjayev T. *Navoiy “Xamsa”si obraz, badiiyat va mohiyat*. Toshkent – 2023
6. Atoulloh Husayniy. *Badoyiʼu -s-sanoyi*. Toshkent – 1981

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY SAN'AT TURI ISTIORANING QO'LLANILISHI

Aziza XUSNUTDINOVA

TDSHU talabasi

XV asr o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi Alisher Navoiy o'zining boy va serqirra ijodi bilan nafaqat turkiy adabiyot, balki jahon adabiyoti tarixida ham alohida o'rin egallaydi. Navoiy ijodining badiiy qiymatini belgilaydigan muhim omillardan biri uning badiiy san'atlardan, xususan, istioradan mahorat bilan foydalanganligidir. Istiora (arabcha "qarz olish" ma'nosida) bir predmet, hodisa yoki tushunchaga xos xususiyatlarni boshqa bir predmet, hodisa yoki tushunchaga ko'chirib qo'llash orqali yaratilgan majoziy ifodalash usulidir ¹¹⁶.

Navoiy istiora san'atidan o'z asarlarida keng va turli-tuman maqsadlarda foydalanib, g'azallarining ma'no qatlamlarini boyitgan, obrazli tasvirlar yaratgan va o'quvchini o'ylashga, mushohada qilishga undagan. Ushbu maqola Navoiy g'azallarida qo'llangan istioralarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning badiiy vazifasi hamda she'riy mahoratni namoyon etishdagi rolini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning maqsadi Navoiy g'azallarida qo'llangan istioralarni aniqlash, tasniflash va ularning badiiy vazifalarini ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: Navoiy g'azallarida qo'llangan istioralarni aniqlash; ularni ma'no va vazifasiga ko'ra tasniflash; istioralarning g'azal mazmunini ochib berishdagi rolini aniqlash; Navoiy she'riy mahoratining istiora san'atida namoyon bo'lish xususiyatlarini ko'rsatish.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiy, tahliliy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Navoiy g'azallarida qo'llangan istioralar aniqlandi, ularning semantik xususiyatlari tahlil qilindi va g'azal mazmunini ochib berishdagi roli ko'rsatildi.

¹¹⁶ Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr. 2018.126-bet

Navoiy ijodida badiiy san'atlar, jumladan, istiora masalasini o'rganishga bir qator olimlar o'z hissalarini qo'shgan. N. Mallayev o'zining "Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti" asarida Navoiy she'riyatidagi xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar va ko'chma ma'noli iboralarni tadqiq etgan. A.Hayitmetov "Navoiy lirikasi" kitobida shoirning lirik obrazlar tizimida istiora san'atining o'rnini ko'rsatib bergan. S. G'aniyeva "Alisher Navoiy she'riyatida badiiy san'atlar" monografiyasida istiora va boshqa badiiy san'atlarning g'azallardagi o'ziga xos xususiyatlarini yoritgan.

Alisher Navoiy g'azallarida istiora san'atining qo'llanilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, shoir bu san'atdan g'azallarining badiiy qimmatini oshirish, obrazli tasvirlar yaratish va chuqur falsafiy g'oyalarni ifodalash maqsadida keng foydalangan.

Navoiy g'azallarida qo'llangan istioralarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1.Istioralarda tabiat uyg'unligi. Navoiy tabiat hodisalarini inson holatini tasvirlash uchun qo'llaydi. Masalan, "Tun oqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim"¹¹⁷ g'azalida tun, sham, shabiston so'zlari istiora sifatida kelgan. Bu yerda "sham'i shabiston" (kechaning sham'i ma'nosida) yorug'lik, umid, visol ramzi bo'lib, shoirning sevgilisi nazarda tutilmoqda. G'azalning davomida ham istioralar ketma-ket keladi:

"G'amidin durri maknundek sirishkim oqti Jayhundek,

*Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g'altonim."*¹¹⁸

Bu misralarda ko'z yoshlari "durri maknun" (durri maknun- yashiringan toza dur ma'nosi¹¹⁹), "Jayhun" (daryo) ga o'xshatilgan. Bu yerda "dur" va "Jayhun" istiora sifatida qo'llanib, ko'z yoshlari hajmi va qimmatini obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

"Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,

*Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bari olam."*¹²⁰

¹¹⁷ Alisher Navoiyning Badoyi ul-bidoya asari. 259-bet

¹¹⁸ Alisher Navoiyning Badoyi ul-bidoya asari 259-bet

¹¹⁹ Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1- tom O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1983. 513 bet

¹²⁰ Alisher Navoiyning Badoyi ul-bidoya asari. 273-bet

Bu misralarda " mening sarvim" (aslida sarv daraxt nomi, hamda tana ma'nosi ham bor¹²¹) bunda shoir mening qaddi qomatim javlon qildi (harakat qilmoq, aylanmoq ma'nosida¹²²) ya'ni chamandagi asli sarv daraxti ham va oshiqning tani ham ma'shuqani korib sayr qilgan. .

2. Majoziy ma'noda

"Bizing shaydo ko'ngul bechora bo'lmish,

Malomat dashtida ovora bo'lmish." ¹²³

Bu misralarda "shaydo ko'ngul" (shaydo-sevgidan devona bo'lgan, oshiq ma'nolarida¹²⁴) - oshiq uchun; "malomat dashti" (malomat cho'li) - tana, ta'vna, masxara qilish ma'nosida¹²⁵ bo'lib, o'sha joyga nisbatan istiora sifatida qo'llangan.

"Junun vodisig'a moyil ko'rarman joni zorimni,

Tilarman bir yo'li buzmak buzulg'on ro'zgorimni" ¹²⁶

Bu misrada "junun vodisi" (junun o'zi telbalik ma'nosida bo'lsa ham junun vodiysida yohud dashtida sahro kabi bepayon ma'nosi ham bor¹²⁷) - ishq yo'lida, "buzulg'on ro'zgor" - iztirobli hayotga dalolat bermoqda.

Navoiy istioralardan foydalanishda quyidagi boshqa badiiy san'atlar bilan uyg'unlikni namoyon etadi.

3. Istiora va tashbehning uyg'unligi.

"Falak ham to'ldi kavkabdin, quyosh ham tushti ashhabdin,

Kelib tushmasmu markabdin mening xurshidi raxshonim?" ¹²⁸

Bu misralarda "xurshidi raxshon" (xurshid o'zi quyosh ma'nosida, xurshidi raxshonim porloq quyosh degan birikmani beradi¹²⁹) shoirning sevgilisi uchun istiora yohud ma'nosida ham ifodalaydi.

¹²¹ Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3- tom O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1984.46-bet

¹²² Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1- tom O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1983.551-bet

¹²³ Alisher Navoiyning Navodir un-nihoya asari. 170-bet

¹²⁴ Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3- tom O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1984.491-bet

¹²⁵ Navoiy asarlarining izohli lug'ati 2- tom O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1983.220-bet

¹²⁶ Alisher Navoiyning G'aroyib us-sig'ar asari. 496-bet

¹²⁷ Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1- tom O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1983.599-bet

¹²⁸ Alisher Navoiy G'aroyib us-sig'ar 227-bet

¹²⁹ Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3- tom O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1984.436-bet

4.Tanosub (soʻzlarning bir-biriga mazmun jihatidan bogʻlanishi¹³⁰) va istiora uygʻunligi.

*"Tun oqshom boʻldi-yu, kelmas mening shamʼi shabistonim,
Bu anduh oʻtidin har dam kuyar parvonadek jonim."* ¹³¹

Bu baytda "tun", "oqshom", "sham", "shabiston"; "oʻt", "kuymoq", "parvona" soʻzlari oʻzaro mazmun jihatidan bogʻlanib (tanosub), "shamʼi shabiston" va "parvonadek jonim" (parvona sham atrofida aylanadigan kapalak¹³²) misrada kechani shaʼmi yaʼni yor va parvonadek deganda kapalak kabi u yoq bu yoqqa ishqda jon kuyishi holati tasvirlangan.

Alisher Navoiy istioralardan foydalanishda tasvirlanayotgan hodisa yoki tushunchaning eng muhim belgisini tanlay biladi va shu orqali oʻquvchiga kuchli taʼsir koʻrsatadi. Uning istioralari nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki falsafiy va ruhiy gʻoyalarni ifodalash vositasi hamdir. Masalan:

Navoiy ijodidagi istioralar tahlilini yanada chuqurlashtirish uchun uning gʻazallaridagi istiora turlarini semantik-funksional jihatdan ham oʻrganish muhimdir. Shoir oʻz gʻazallarida tushunchalarni obrazli tarzda ifodalash uchun nafaqat anʼanaviy, balki oʻziga xos, takrorlanmas istioralar ham yaratgan. Bu xususiyat Navoiy badiiy mahoratining yorqin dalilidir. "Meni men istagan oʻz suhbatigʻa arjumand etmas" gʻazalida shoir "chobuki majnunvash" (chonuksuvor chavandoz maʼnosida¹³³ boʻlib bundan suvor asosi olib tashlangan, manjunvash degani majnunga oʻxshashdir¹³⁴) istiorasini qoʻllaydi. Bu yerda majnunlik - oshiqlik, ishq telbaligi ramzi, chavandozlik esa - sevgilining koʻngillar uzra hukmronlik qilishi, oshiq qalbini zabt etishi maʼnosida kelgan. Istiora orqali shoir sevgi tuygʻusining kuchini, uning inson qalbidagi hukmronligini obrazli tarzda ifodalagan.

Navoiy gʻazallarida mavhum tushunchalarni aniq predmetlar orqali ifodalovchi istioralar ham keng qoʻllanilgan. "Falak bedodidan garchi manim xoki

¹³⁰ Quronov D. Adabiyotshunoslik lugʻati. Toshkent: Akademnashr. 2018. 311-bet

¹³¹ Alisher Navoiy . Oʻzbekiston, Toshkent.2022.339-bet

¹³² Navoiy asarlarining izohli lugʻati 2- tom Oʻzbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1983.560-bet

¹³³ Navoiy asarlarining izohli lugʻati 3- tom Oʻzbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1984.472-bet

¹³⁴ Navoiy asarlarining izohli lugʻati 2- tom Oʻzbekiston SSR "Fan" nashriyoti .Toshkent.1983.201-bet

g‘ubor o‘ldum”¹³⁵ misrasida "xoki g‘ubor" (chang-tuproq) istiorasi orqali lirik qahramon ruhiy holati, uning hayotdagi qiyinchiliklar tufayli ezilganligi ifodalangan. Bu istiora orqali shoir insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, uning taqdiri haqidagi falsafiy mulohazalarini ham bayon etadi.

G‘azallarda inson a‘zolari ham ko‘pincha istiora sifatida qo‘llanadi. "Ne g‘am, ko‘rguzsa ko‘ksim porasin choki giribonim”¹³⁶ misrasida "ko‘ksim porasi" (ko‘ksim parchasini), "choki giribonim" (giribon kiyimning yoqasida bo‘lib bunda yoqaning yirtilishi ma‘nosi ham bor¹³⁷) iboralari qo‘llangan. Bu istioralar orqali shoir lirik qahramonning ichki iztiroblari, ruhiy kechinmalarini obrazli tarzda ifodalagan. Navoiy bunday istioralar yordamida insonning ichki dunyosini, uning tuyg‘ulari va kechinmalarini yorqin tasvirlaydi.

Navoiy g‘azallarida yorni vasf etuvchi istioralar ham uchratish mumkin. "Mening sarvi ravonim" (mening yuruvchi sarvim), "sham‘i shabistonim" (kechamning sham‘i), "xurshidi raxshonim" (porloq quyoshim) kabi istioralar yorni vasf etish uchun xizmat qilgan. Bu istioralar yorning go‘zalligi, uning oshiq qalbidagi o‘rni va ahamiyatini obrazli tarzda ifodalagan.

Shoirning o‘ziga xos badiiy mahorati yana shundaki, u istiora orqali tasvirlanayotgan tushuncha yoki obrazning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki ichki mohiyatini ham ochib beradi. "Junun vodisig‘a moyil ko‘rarman joni zorimni" misrasida "junun vodisi" (telbalik cho‘li) istiorasi orqali shoir ishq yo‘lidagi qiyinchiliklar, bu yo‘lning mashaqqatlari va telbavor oshiqning ruhiy holatini tasvirlagan. Bu istiora orqali Navoiy ishq tushunchasini kengroq, chuqurroq mazmunda ifodalaydi.

Alisher Navoiy g‘azallarida istiora san‘atining qo‘llanilishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, shoir bu san‘atdan g‘azallarining badiiy qimmatini oshirish, obrazli tasvirlar yaratish va chuqur falsafiy g‘oyalarni ifodalash maqsadida mahorat bilan foydalangan. Navoiy istioralaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

¹³⁵ Alisher Navoiyning G‘aroyib us-sig‘ar asari. 496-bet

¹³⁶ Alisher Navoiy . O‘zbekiston, Toshkent.2022.339-bet

¹³⁷ Navoiy asarlarining izohli lug‘ati 1- tom O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti .Toshkent.1983/403-bet

1. Navoiy istioralardan foydalanishda soʻz va iboralarning koʻchma ma'nolarini toʻliq anglab, oʻz oʻrnida qoʻllaydi.

2. Shoirning istioralari obrazli, taʼsirchan va hajmlidir. Ular bittagina predmet yoki hodisani emas, balki butun bir tushunchalar tizimini qamrab oladi.

3. Navoiy istioralarida milliy, ma'naviy-axloqiy va falsafiy qarashlar oʻz aksini topgan.

4. Shoir istioralarni boshqa badiiy san'atlar (tashbeh, tanosub va b.) bilan uygʻunlashtiradi, bu esa gʻazallarning badiiy qimmatini yanada oshiradi.

5. Navoiy istioralari ma'no jihatidan chuqur, ko'p qatlamli va sermazmundir. Ular oʻquvchini oʻylashga, mushohada qilishga undaydi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy oʻz gʻazallarida istiora san'atini qoʻllash orqali oʻzbek adabiy tilining badiiyligi va ifoda imkoniyatlarini namoyish etgan, shuningdek, turkiy adabiyotning soʻz boyligini yangi obrazlar bilan boyitgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lugʻati. Toshkent: Akademnashr. 126-bet. 2018.

2. Hazratqulova Z. Alisher Navoiyning “Soqiynoma” asarida qoʻllanilgan badiiy san'atlar. Scientific Journal: Golden Brain. January 2023

3. Alisher Navoiyning Badoyi ul-bidoya asari

4. Alisher Navoiyning Navodir un-nihoya asari

5. Alisher Navoiyning Gʻaroyib us-sigʻar asari

6. Alisher Navoiy. Oʻzbekiston, Toshkent 2022

7. Navoiy asarlarining izohli lugʻati 1-tom Oʻzbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent.1983

8. Navoiy asarlarining izohli lugʻati 2-tom Oʻzbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent.1983

9. Navoiy asarlarining izohli lugʻati 3-tom Oʻzbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent.1984

ALISHER NAVOIYNING “VAHKI, ISHQING ZOHIR ETSAM VAHM ERUR O‘LMAK MANGA...” G‘AZALINING TAHLILI

Umida BAHRONOVA

TDSHU talabasi

Alisher Navoiy (1441-1501) — o‘rta asrlar o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri, tasavvuf va falsafaning chuqur bilimdoni, shuningdek, turkiy adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shoir, yozuvchi va davlat arbobi hisoblanadi. Uning asarlari nafaqat adabiyot, balki tasavvuf va ilm-fan sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Navoiyning g‘azallari, masnaviylari va ruboiylari o‘zining chuqur ma‘nosi, betakror uslubi va tasavvufiy fayz bilan ajralib turadi. U shaxsiy tajriba va ichki izlanishlar orqali inson ruhiyatining nozik tomonlarini, Haq bilan bo‘lgan aloqani va uning sevgi va fidoyiligini yoritgan.

Vahki, ishqing zohir etsam vahm erur o‘lmak manga,

Gar nihon tutsam dog‘i jon xavfidur beshak manga.

Birinchi baytning o‘zidayoq shoir ishq kamoloti hosilasidan darak beradi. Mashuqasi (Alloh) hajrida yonib kuyayotganini yashirib o‘tirmaydi. Shuning uchun ilk misradayoq agar ishqing ta‘rifini zohir etsam ya‘ni oshkor qilib so‘ylasam, vahm ya‘ni sarosimaga tushaman, hatto shu darajadagi o‘lim xavf soladi. Keyingi misra: biroq pinhon tutsamam, jonim o‘rtanishi aniqdir. Tasavvuf adabiyotida¹³⁸ ilk baytlardayoq yor (Alloh) hajrida o‘lar holatga kelish garchi mubolag‘a va bo‘rttirish esa-da, aslida shoir kamolotining yuksakligi belgisidir. Bunday holat mumtoz adabiyotda Navoiy va Boborahim Mashrab ijodida, ayniqsa, ko‘p uchraydi.

Kelgan ermish ul Masih o‘lganlarin tirguzgali,

Men tirik, vah, yaxshiroq bu umrdin o‘lmak manga.

Keyingi baytda mumtoz adabiyot qoidalari tizmasining davomini ko‘rish mumkin. Ya‘ni shoir matla‘da bergan dastlabki taassurotini, fikri hamda qarashlarini keying baytlarda uzluksiz kuchaytirib borish yo‘lidan ketadi: Masih ya‘ni Iso pay‘ambar hammamizga ma‘lumki, o‘z davrida u kishi ko‘plab o‘liklarni

¹³⁸ Najmiddin Komilov “Tasavvuf” Toshkent, “Movarounnahr” – “O‘zbekiston” 2009.

Alloh fazli va mo'jizasi bilan hayotga qaytargani, ayniqsa, eng ko'p hikoyat qilingan. Shoir buyerda Talmeh¹³⁹ san'atidan munosib foydalangan holda chiroyli dalillashni daqiq nuqtaga yetkazgan. Ya'ni o'liklarni tiriltiruvchi Iso Masih kelgan emish, men tirik manku, biroq bu holatimdan o'lganim afzal edi. Tasavvufiy ma'noda Yorning ulug'ligi va siyrati aksar jihatlarda uning xaridori, ishq sharobini sipqorgan shoirning yerga urilishi fonida yuz beradi. Bu yerda shoir birdaniga jur'at qilgan narsa aslida o'lim yaxshiroq degan narsa emas, balki yor (Alloh) ga o'zini munosib deb hisoblamaslik ya'ni nafsni malomat qilish ma'nosidadir. Bizga ma'lumki, tasavvuf adabiyotining negizini ham nafsga qarshi kurashish, uni doim malomat qilish hamda banda o'zini past sanashi tashkil etadi. Bu deyarli barcha tasavvuf ahlida ko'rilgan jihat.

Juzv-juzvimni, fig'onkim, mufak etti tiyg'i hajr,

Bir-biridin lek o'zidur juzvi loyanfak manga.

3-baytda shoir tasavvufiy til bilan aytganda biroz "haddidan oshadi": parcha-parcha edim fig'onning dastidan bu hajr meni yana parchalarga bo'ldi. Biroq shoir garchi zarralarga aylansa-da vahdat juzvi loyanfak ya'ni Alloh bilan butunlikka aylanishni qasd qilmoqchi. Aslida bu tushuncha Jomiyda ham bor bo'lib bu tasavvufda ulkan kamolot hosil qilishlikni anglatadi.

Ko'nglum o'tidin yig'och kuldur, boshq bir qatra suv,

Nogah ul sho'xi jafokash otsa bir novak manga.

4-baytda biroz dinamizm mavjud bo'lib shoir avvalgi sodda tilda aytsak "o'ta baland parvoz" so'zlardan chekinib, biroz pastga tushganday ya'ni odatiy tasavvufiy baytlarga qaytgandan taassurot qoldirgan: Agar u ya'ni yor (Alloh) nogoh bir e'tibor qaratsa, esga olsa bundan ko'nglim olovidan daraxt kulga, boshq esa bir qatra suvga aylanadi. Bu yerda Yor e'tiboridan to'lqinlanib ketgan oshiqning eng yorqin ifodasi sodda bir tarzda ifodalangan deyish mumkin.

Oltun ezib, erib kuygan soyi xolis bo'lur,

Ne ajab, sorg'orsa yuz yetgan soyi emgak manga.

¹³⁹ Anvar Hojiahmedov "She'riy san'tlar va mumtoz qofiya" "Sharq" Toshkent – 1998, 160-65b

5-baytda shoir husni talil¹⁴⁰ sanʼatidan munosib foydalanib toza tillani olish uchun uni eritish kerak boladi ishqda ham jismoniy ruhiy azoblar qalbni poklaydi deb oʻtadi. Bu tasavvufda nafsni yoʻq qilish bilan teng tushunchadir. Chunki bizga maʼlumki tasavvuf adabiyotida inson bu – xom oltin (madan)dir. Uni poklash, narxini oshirib asl tilla holatiga keltirish uchun eritish, ishlov berish lozim boʻladi. Ilohiy ishqda esa bunday oltinga aylanish ham biroz mashaqqatni: sabr, nafs bilan kurashish hamda toʻxtovsiz toat ibodatni talab qiladi.

Chok aylarmen yaqo ul qoshi yoni koʻrgach-oʻq,

Kim xadangin otsa hoyil boʻlmagʻay koʻnglak manga.

Yuqoridagi baytda yoqamni chok aylab devonaga aylanaman ul qoshi qalamni koʻrgach, bu vaqtda kim oʻq otsa toʻsiq boʻlmaydi koʻnglimga. Bundan ikkita maʼno chiqarish mumkin. Birinchisi: ul yorni koʻrganimda hamma narsani unutaman va boshqasiga, deylik dunyoga koʻngil berolmayman. Chunki inson qalbida bitta joy mavjud boʻladi. U bir vaqtning oʻzida ikkita narsa: shayton hamda rahmoniy istaklarni qabul qilolmaydi. Baytdagi ikkinchi maʼno esa, haqiqatga koʻproq yaqin boʻlib shoir qasd qilgan narsa yor haqida qanchalik tanqid boʻlmasin bu tanqidlar qalbiga toʻsiq boʻlib uni sevishdan man qilolmaydi. Aynan shunday qarash keying davr soʻfiy adabiyotida va tariqatlarga ham koʻchib oʻtgan.

Boda hajridin oqarmish koʻzlarim, ey piri dayr,

Aylagil may shishasidin sinduru baynak manga.

Ushbu misralarda esa bundan oldingi baytlardagi ohang va dinamizm yoʻq olib endi kuchaytiruv va taʼkidlash boshlanganini payqash mumkin: May (Ilohiy ishq) hajridan koʻzlarim oqaribdi, ey usta pir, endi shunday boʻlgach may shishasini sindirib menga oyna bergil. Shoir bundan oldingi baytlar tahlilida taʼkidlaganimizdek malomatchi nafsini toʻgʻrilamoqchi. Bizga maʼlumki oyna tasavvuf adabiyotida koʻngildir. Shoir esa ilohiy ishq hajrida koʻzlari oqargan yaʼni xiralashgan. Shunday boʻlgandan keyin uning daʼvosi oynani koʻzga tutish yaʼni buzuq koʻngilni sindirishdir. Shoir may shishasini sindirib oyna qilgil deganda aynan shuni qasd qilmoqda.

¹⁴⁰Yoqubjon Ishoqov “Soʻz sanʼati soʻzligi” “Zarqalam” Toshkent – 2006, 128-117b

Sarsari hijron, vujudum xirmanin andoq sovur,

Kim fano yo'lida sarsar bo'lmasin hamtak manga.

8-bayt: Hijron sarsari (taqdirga murojaat), vujudim xirmonini shunday sovurki, kimsa bu yo'lda menga (foniylilik yo'ida) yo'ldosh bo'lmasin. Shoir ishq yo'lida o'zini eng yaxshilardan bo'lishini xohlaydi. Aynan shuning uchun ham men bir xirmon bo'lsam agar uni shunday sovurki bu o'rinda yo'ldosh (raqib) bo'lmasin.

Shoirning bu baytini xasislik, boshqalarni mensimaslik hamda o'zini ustun qo'yish deb tushunmaslik joiz. Balki, yor (Alloh)ga bo'lgan rashkini garchi o'tkinchi bir banda bo'lsa ham maqtadan oldin asosiy aytilmoqchi bo'lgan fikr ko'rinishida berishni qasd qilgan.

Ey Navoiy, gar manga ko'prak emas ummedi vasl,

Bas nag'o' ushshoqdin javri erur ko'prak manga.

Maqta'da esa aynan shoir o'ziga murojaat qilar ekan menda vasl diydor ko'rishish umidi ko'p emas, shunday ekan nega oshiqlardan ko'proq menga jabr keladir deb ritorik so'roq bilan yakunlaydi. Bayt oxiriga so'roq emas, balki nuqta qo'yilgani ham ichki ma'noning sezilgan hamda his qilinganligidandir. Oxiratga iymon keltirgan shoir yor (Alloh) bilan uchrashish, diydor ko'rishish umidi ko'p emas deganida Navoiyga xos kamtarlik yaqqol namoyon bo'lgan. Shoirga ko'ra undan yaxshi va amali ko'p hamda bisyor bandalar mavjud. Shunday ekan ular turganida bu shoir Alloh bilan diydorlashishni qanday ham umid qilsin deb hokisorlik ifoda qilgan. Shoir: bas, menga oshiqlarning jabri ko'proq vasl umididan deganida ham shunga ishora qilib o'tgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Alisher Navoiyning ushbu tasavvufiy g'azali uning she'riy merosining eng yuqori namunalaridan biridir. G'azalning har bir bayti oshiqning ichki holati, uning Haqqa bo'lgan muhabbati va ruhiy iztiroblari orqali tasavvufiy ma'nolarni ochib beradi. Navoiy bu asarda ishq, hijron, fano va vahdat kabi tasavvufiy tushunchalarni chuqur va betakror tarzda ifodalagan. Har bir bayt, oshiqning ruhiy yo'li, u duch kelgan sinovlar va xushnudliklarni tasvirlaydi. G'azalda tasavvufiy ma'rifat, Haqning ishq orqali poklanish va

qalbning tozalash jarayoni, nafsni yo‘q qilishkabi g‘oyalar markazda turadi. Ushbu g‘azal, Navoiy she‘riyatining tasavvufga bo‘lgan aloqasini va uning inson qalbini anglashdagi chuqur bilimlarini yoritadi. Navoiyning bu asari nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham adabiyot va tasavvufni o‘rganayotganlar uchun muhim bir manba bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009.
2. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TALMEH SAN'ATINI QO'LLANILISHI

Dinora BEKMURATOVA

TDSHU talabasi

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida gap borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati barcha davrda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asar mazmunini hayotiy-roq, ta'sirchanroq ifodalanishga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalan-tirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibador-ligini ta'minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodiga, yoki badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan ma'nolarni, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishini ko'rshimiz mumkin.

Talmeh so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "chaqmoq chaqishi" "ishora qilish", "yashirincha eslatma berish" ma'nolarini anglatadi. Adabiy-badiiy matnlarda talmeh o'tmishdagi tarixiy voqea, mashhur shaxs, hadis, oyat yoki adabiy asarga ishora yo'li bilan ma'no berishni anglatadi. Bu uslub o'quvchidan muayyan bilimlarni talab qiladi va matnga chuqur qatlamli ma'no yuklaydi. Talmeh san'ati mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan bo'lib, ayniqsa Sharq adabiyotida bu uslubiy vosita orqali matn estetik jihatdan boyitilgan. Ko'pincha diniy, tarixiy, afsonaviy ma'lumotlar talmeh orqali eslatiladi. Alisher Navoiy ijodida talmeh san'ati nafaqat bezakli unsur sifatida, balki chuqur falsafiy va ma'naviy mazmun beruvchi vosita sifatida ham xizmat qilgan. Quyida bir nechta misollar orqali ushbu san'at tahlil qilinadi. "Hayrat ul-abror" dostonida Navoiy Rasululloh (s.a.v)ning nevaralari, tarixiy shaxs va voqealarga murojaat qiladi:

Yod etadur har kuni ming bor Hasan,

Kimki degan: «Xalq ichra erur hasan!»¹⁴¹

Bu misrada Navoiy Imom Hasan shaxsiga ishora qilgan. Bu talmeh orqali u adolat, sabr-toqat va go‘zallik ramzini tasvirlaydi.

Muso – kelib tog‘da nur ila bo‘ldim toblon. Bu yerda Muso (a.s.) vahiy olishiga Talmeh bor. Xamsa asaridan tashqari Navoiyning devonida ham Muso (a.s.) ga ham ishoratlar bor. Xazoyin ul-maoniy devonining bir qismida, Muso (a.s.) ning o‘t yondirgan va bu orqali Allohning so‘zini eshitganiga ishora qiladi.

Gar Muso kabi tog‘da yondim, ne ajab, ey dil,

Kim, ishq bila so‘z aytdim, o‘tlar ichra Payg‘ambar¹⁴².

Bu misrada Navoiy o‘z ishqining yuksakligini Musoning ilohiy vahiy olishi bilan qiyoslaydi. Muso (a.s.)ning o‘t orqali ilohiy so‘zga ega bo‘lishi, Navoiyda ishq va ma‘rifatning birlashtirilganligini ko‘rsatadi. Bu talmeh orqali shoir o‘zining ruhiy holatini ilohiy va qutlug‘ bir tajriba sifatida ifodalaydi.

Gavharidek xakimlar so‘zin terdim,

Luqmon ila Hikmat ichra sherdim¹⁴³.

Bu yerda Luqmon Hakimga ishora bor – Qur’onda donishmandligi bilan mashhur bo‘lgan shaxs. Bu talmeh orqali donolik mavzusi chuqurlashtiriladi.

Baxti bor erdi Zulayho bila Yusuf,

Ul bila topgay erur har necha maqsud¹⁴⁴.

Bu misrada Qur’onda tilga olingan Yusuf va Zulayho voqeasiga talmeh bor. Bu voqea go‘zallik, sabr va ilohiy muhabbat ramzi sifatida tasvirlanadi. Navoiy bu misra orqali Farhod va Shirinning pok muhabbatini Yusuf va Zulayho muhabbati bilan qiyos qiladi. “Xazoyin ul-maoniy” devonida ham bu voqeaga o‘zining fikrini ifodalash uchun ishora qiladi.

Yuzingni ko‘rdi, bo‘ldi aql Yusuf,

Zulayho holig‘a tushdi bu dil ham¹⁴⁵.

¹⁴¹ Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror". Navoiy asarlari to‘plami. 1-jild. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.

¹⁴² Navoiy A. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987. – 1-jild, 154-bet.

¹⁴³ Alisher Navoiy. Asarlar to‘plami. 1–5 jildlar. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.

¹⁴⁴ O‘sha asar.

Navoiy bu misrada Yusufning go‘zalligi va uning Zulayhoga bo‘lgan muhabbatiga ishora qiladi. Zulayho va Yusufning hikoyasidagi hissiy dramatism, Navoiyda Farhod va Shirin orasidagi ishqni va shu bilan birga inson ruhining o‘zgarishini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu talmeh orqali Navoiy muayyan ruhiy holatni, ya’ni azob va sabrni, yoki muhabbat va qurbonlikni mukammal tarzda ifodalashga erishadi.

*Kimki Majnunga yetar darjada dard,
Yuz labung bila bo ‘lur ul yoru gard*¹⁴⁶.

Bu yerda esa Majnun obraziga ishora qilingan bo‘lib, u oshiqona sadoqat va telbalik timsoli sifatida talmeh uslubida keltirilgan. “Layli va Majnun” asaridagi talmehlar:

*"Olam ichra Muhammad aylagay nur,
Jonidin bag ‘rida derlar uni sur."*¹⁴⁷

Bu baytda Navoiy Payg‘ambar Muhammad (s.a.v)ni ulug‘lab, Qur‘ondagi nur oyatiga talmeh qiladi. Ibrohim (a.s.)ning o‘tga tashlanishi Qur‘onda ta’kidlangan va bu voqea ishonch, sabr va fidoyilikni ifodalovchi kuchli timsolga aylangan. Navoiy o‘zining g‘azallarida bu voqeaga ishora qiladi, bu orqali o‘zining muhabbatini va ishqining azobini yuksaltiradi.

*Ishq o ‘tiga urdi meni, Ibrohim kabi,
Har yonimda gulshan bo ‘ldi, haroratda ko ‘ngul*¹⁴⁸.

Bu misrada shoir o‘zini Ibrohim (a.s.) kabi ishq o‘tida yo‘qotgan va shu orqali ma’naviy mukammallikka erishayotgan bir shaxs sifatida tasvirleydi. Ibrohim (a.s.)ning o‘tga tashlanishi talmeh orqali, o‘ta sabrli va qat’iyatli ishqni ifodalashga yordam beradi. “Majolis un-nafois”dagi mashhur faqih Xoja Fazlulloh Abullays Samarqandiy zikrida to‘rt nafar faqih nomi ochiq va yashirin talmeh san’ati asosida yodga olinadi: birinchisi – ustoz faqih Abullays Samarqandiy, ikkinchisi – faqih Abullays avlodlari, uchunchisi - faqihlar avvali Abu Hanifadir, to‘rtinchisi esa

¹⁴⁵ O‘sha asar.

¹⁴⁶ Navoiy, A. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987. – 1-jild

¹⁴⁷ Alisher Navoiy. "Layli va Majnun". Navoiy asarlari to‘plami. 3-jild. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.

¹⁴⁸ O‘sha asar

muallifning o‘zi, ya’ni faqih Navoiydir: “*Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidindur. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi. Sayyid Sharifning shogirdi erdi va Sayyid o‘z xatlari bila ulumi dars ayturg‘a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o‘qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, “farzand” der erdilar... Samarqandning a‘lami ulamosi erdi*” (13, 33)¹⁴⁹.

Alisher Navoiy ijodi talmeh san‘atining yorqin namunasidir. U asarlarida tarixiy, diniy, adabiy shaxs va voqealarga ishora orqali o‘quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Talmeh san‘ati Navoiy badiiy olamining mazmuniy boyligini namoyon etadi.

Shoir asarlarida biz nafaqat payg‘ambarlar, balki shohlar va shoirlarning ham nomlari talmeh san‘ati asosida keltirilganligiga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun, quyidagi baytda Shoh Bahrom ismi mavjud:

Go‘r uchun ochmoq nedur har lahza baxromiy kamand

*Chun seni Baxromdek aylar ajal go‘ri shikor*¹⁵⁰.

Sosoniylar sulolasiga mansub Varahron V (421-438) mumtoz adabiyotda Bahrom nomi bilan talqin qilinadi. Yana u Navoiyning “Sab‘ai Sayyor” dostonining asosiy qahramoni ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu dostonida u hayot-sevar, shoirtabiat, odil shoh sifatida tasvirlangan. Buyuk mutafakkir, shuningdek, Husayn Boyqaro, Jamshid, Iskandar va Doro ismlarini g‘azallarida talmeh san‘ati asosida ko‘rsatgan. Dehlaviy, Lutfiy, Nizomiy, Mavlaviy va Mirak kabi o‘zbek poeziyasidagi mumtoz uslub namoyondalarining tabarruk nomlari ham Navoiy she‘riyatida juda ko‘p yod etilgan. Ayniqsa, mashhur mutasavvif shoir Mavlono Jaloliddin Rumiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridagi bir g‘azalning

Ishq sirrin rindi durdiykash bilur, yo‘q ahli dars,

Ulcha avroq uzra sabt o‘lmas ne bilgay Mavlaviy.

Baytida keltirilishi shoirning shu insonga bo‘lgan yuksak hurmatini ifodalagan. Birgina uning Rumiylar emas, Mavlaviy deb talmeh qilinishi kishi

¹⁴⁹ Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. Xazoyin ul-maoniy. 4-tom.

¹⁵⁰ O‘sha asar.

e'tiborini tortmay qolmaydi. Jaloliddin Rumiyning bunday atalishining asosiy sababi, u asos solgan "mavlaviylik" tariqati (XIII asr) bilan bog'liq. Shogirdlari uni ko'pincha "mavlono" ("janobimiz") deb atashgan va shundan tariqat nomi olingan. Demak, bundan chiqdi, Navoiy Rumiyni o'z ustози darajasida deb bilib, unga alohida ehtirom ko'rsatgan hamda o'z g'azallarida uni Rumiylar emas Mavlaviy deb atagan. Navoiy kabi betakror adibning boshqa shoirlarga bo'lgan bunday hurmati, shubhasiz, tahsinga loyiq. Hattoki, uning zamondosh do'stlaridan bo'lgan Sayyid Hasanning nomini masnaviylaridan birida talmeh san'ati orqali ko'rsatishi har bir adabiyotshunosni befarq qoldirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Asarlar to'plami. 1–5 jildlar. T.: G'afur G'ulom, 2011.
2. G'aniyeva N. Navoiy. – T.: G'afur G'ulom, 2013.
3. Sharipov A. Badiiy tafakkur asoslari. – T.: O'qituvchi, 2005.
4. Qodirov A. Mumtoz adabiyot tahlili. – T.: Fan, 2002.
5. Karimov R. Talmeh san'ati va uning poetik vazifalari. – T.: Filologiya, 2022.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Xazoyin ul-maoniy. 4-tom. – Toshkent: Fan, 1989.

MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYNDA RITMIK-SINTAKTIK PARALLELIZM

Mahsuma RAHMONJONOVA

TDSHU talabasi

Adabiy matnda fikrning ta’sirchanligini oshirish, uni ohangdor va esda qolarli shaklda ifodalash maqsadida mualliflar turli uslubiy vositalardan foydalanadilar. Shunday vositalardan biri – ritmik-sintaktik parallelizm bo‘lib, u badiiy nutqda bir-biriga sintaktik jihatdan o‘xshash yoki mutanosib tuzilgan gaplar va iboralarning izchil, ritmik tarzda kelishidir. Bunda ikki yoki undan ortiq motiv teng va o‘xshash sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Ritmik-sintaktik parallelizmlar takrorlar va saj’ tufayli vujudga keladi. Parallel bo‘laklar shakl va ma’no jihatidan bog‘liq bo‘lib, ular zidlashtirish, o‘xshatish yoki qiyoslash asosida quriladi; odatda bir xil tuzilishga ega bo‘lgan bu birliklar sinonim, antonim yoki uyadosh so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, quyidagi misolda qiyoslash asosida qurilgan parallel tuzilma yaqqol ko‘zga tashlanadi: *Daryādin gavhar ġavvās vāsitasī bilā jilva namāyiş qilur va anīñ qiymatī javgarīğa körä zāhir bolur. Köñüldin daġī söz durri nutq šarafīğa sāhib-ı ixtisās vasīlasī bilā guzāriş va ārāyiş körgüzür va anīñ qiymatī ham martabasī nisbatīğa baqa intişār va iştihār tapar.*

Dastlab ba’zi so‘zlar ma’nosiga to‘xtalamiz: *daryo* so‘zi fors tilida dengiz ma’nosini anglatadi, *jilva namoyish qilmoq* – o‘zini ko‘rsatmoq, go‘zal suratda ko‘rinmoq, *javhar* – asos, mohiyat, *qiymat* – baho, qadr, *zohir bo‘lmoq* – ko‘rinmoq, bilinmoq, *sohibi ixtisos* – mutaxassis, *guzorish* – bayon, ta’bir, *oroyish* – bezak, pardoz, *martaba* – daraja, maqom, *nisbat* – nasab/qiyos, *intishor* – yoyilish, tarqalish, *ishtihor* – mashhurlik.

Bu jumlada ko‘ngilni dengizga, so‘zni gavharga, yetuk notiqni esa g‘avvosga qiyoslashda qator sinonim va ohangdosh birliklardan foydalanilgan, jumladagi ritm asosan grammatik takrorlar orqali ta’minlangan:

daryādin	gavhar	Ėavvās	vāsitasī bilā	jilva namāyiş qilur
----------	--------	--------	---------------	---------------------

könüldin	dağī söz durri	nutq šarafiga sāhib-1 ixtisās	vasīlasī bilā	guzāriš va ārāyiš körgüzür
----------	-------------------	----------------------------------	---------------	-------------------------------

zilishga ega bo‘lgan bu birliklar sinonim, antonim yoki uyadosh so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, quyidagi misolda

va anij qiymati	Javgarigā	körā	zāhir bolur
va anij qiymati ham	martabasī nisbatigā	baqa	intišār va ištihār tapar

Mazmunan bog‘liqlikka kelsak, *daryo* – gavhar, *ko‘ngil* esa – so‘z manbai, g‘avvos va nutq sharafiga *sohibi ixtisos* esa mana shu gavhar va so‘z durrini olib chiqib namoyish qiluvchi sifatida tasvirlangan. *Gavhar* – *dur*, *vosita* – *vasila*, *namoyish qilmoq* – *ko‘rguzmoq*, *ko‘ra* – *boqa* so‘zlari o‘zaro sinonim bo‘lib, zohir bo‘lmoq – *intishor* va *ishtihor topmoq* so‘zlari esa *ko‘rinmoq*, *tanilmoq* ma’nolarida birlashadi.

Anij bulbul nutqi “ana afsahu tarannumi” birlā alarni zabānbast va da’vālarī āvāzasin yerga past qildi.

Alarni	Zabānbast
da’vālarī āvāzasin	yerga past

Zabonbast so‘zi “jim”, “mulzam” ma’nolarini bildiradi, “ovozasini yerga past qilish” iborasini ham shu ma’noda talqin qilish mumkin, aynan shu *zabonbast* va *past* so‘zlari jumladagi ohangdoshlikni ham hosil qilgan.

Söz durrinij tafāvuti mundin dağī beğāyatraq va martabasī mundin ham benihāyatraqdur.

söz durrinij	tafāvuti	mundin dağī	Beğāyatraq
	martabasī	mundin ham	benihāyatraqdur

tafovut – farq, ajralib turish, *martaba* – maqomni anglatadi, bu ikki so‘zni o‘ziga xoslik ma’nosida umumlashtirish mumkin.

Beg‘oyat, *benihoyat* so‘zlari esa tuganmaslik, cheksizlikni bildiradi.

Gapda soʻz takrori (mundin), egalik (-i/si) va orttirma nisbat (-raq) qoʻshimchasi ritmik uygʻunlik hosil qilgan.

Yuqoridagi ikki jumla sinonimlikka asoslangan parallelizmga misol boʻla oladi, quyida esa zidlashtirish asosida tuzilgan ritmik-sintaktik parallelizmni koʻrib chiqamiz:

Andaq-ki, šarīfidin ölgän badanğa ruh-ı pāk yetār va kasīfidin hayātliq tanğa zahr-ı halāk xāsiyatī zuhūr etār.

andaq-ki	šarīfidin	Ölgän	badanğa	ruh-ı pāk	Yetār
	kasīfidin	Hayātliq	tanğa	zahr-ı halāk xāsiyatī	zuhūr etār

Sharif soʻzi sharaflı, qadrlı; *kasif* esa iflos, nopok maʼnosida boʻlib, soʻzga nisbatan qoʻpol yoki ahmoqona degan maʼnoda ishlatiladi;

Oʻlgan – hayotliq soʻzlari antonim;

badan - tan sinonim soʻzlar boʻlib jism maʼnosini anglatadi;

ruh – jon, *zahri halok* – halok etuvchi zahar, *xosiyat* – sifat, xususiyat, *zuhur etish* – koʻrinish paydo boʻlishni bildiradi, *ruhi pok* yetish va *zahri halok xosiyati* *zuhur etish* iborolari tiriklik va oʻlimni anglatuvchi antonim birikmalar hisoblanadi.

Sharif // *kasif*, *yetar* // *etar* soʻzlari vazn, *badan* // *tan*, *pok* // *halok* soʻzlari qofiya jihatidan ritmni taʼminlagan.

Va bu sözniñ tanavvu'ı ta'aqquldin narı va tasavvurdin taşqaridur.

Va bu sözniñ tanavvu'ı	ta'aqquldin	Narı
	Tasavvurdin	Taşqaridur

taaqqul // *tasavvur* soʻzlari fikr yuritish, idrok qilishni anglatadi va vazndosh soʻzlar hisoblanadi;

nari // *tashqari* soʻzlari bu jumlada uzoqlikni ifodalab kelgan hamda qofiyadoshligi ritmni hosil qilgan.

Agar mubālağasiz ijmāl yūzidin qalam surulsa va ixtisār jānibīdīn raqam urulsa...

agar mubālağasiz	Ijmāl	yūzidin	qalam surulsa
	Ixtisār	jānibīdīn	raqam urulsa

ijmol // ixtisor - qisqa-loʻndalikni bildiradi;

yuzidin // jonibidin - sinonim soʻzlar: jihatidan maʼnosida;

qalam surmoq // raqam urmoq – yozish bayon etishni bildiradi.

Malik 'Allām jalla va 'alānīj kalāmī mu'jiz nizāmī ul tīl bilā nāzil va Rasūl 'alayhis-salāt vas-salāmnīj ahādīsī sa'ādat anjāmī ul lafz bilā vārid boluptur.

Malik 'Allām	jalla va 'alānīj	Kalāmī	mu'jiz nizāmī	ul tīl bilā	nāzil	Boluptur
Rasūl	'alayhis-salāt vas-salāmnīj	Ahādīsī	sa'ādat anjāmī	ul lafz bilā	vārid	

Malik Allom // Rasul

jalla va ‘alo // ‘alayhis-salot vas-salom; “jalla va ‘alo” (buyuk va oliy) Alloh lafzi zikr qilinganda, “alayhis-salot vas-salom” Rasululloh ismlari bilan ulugʻlash, hurmat maʼnosida ishlatiladi.

kalom // ahodis – soʻz, hadis

mujiz nizom // saodat anjomi; mujiz nizom – ojiz qoldiruvchi nizom, qoidalar, saodat anjomi – baxt keltiruvchi

til // lafz

nozil // vorid – kelgan, naql qilingan

Bu jumlada islom diniga oid bir nechta uyadosh soʻzlarni koʻrishimiz mumkin, bu yerda arab tili haqida soʻz ketadi va Alloh Taʼoloning kalomi va Rasululloh alayhissalomning hadislari shu tilda kelgani aytiladi.

Har jamā'at alfāzī özgäläridin va har guruh 'ibāratī yanalaridīn mutağayyir va bir neça xususiyyat bilā mutamayyizdur-ki, özgälärdä yoqtur.

har jamā'at	alfāzī	Özgäläridin	Mutağayyir
har guruh	'ibāratī	Yanalarīdin	

jamoat // guruh;

alfoz // iborat – so‘z, lafz ma’nosida;

o‘zgalar // yanalar – boshqalar.

Allāh, Allāh ul ravza-ı ruhafzāda ne nazārat va ul gulshan-ı dilāsāda ne nazāhatdur-kim.

ul ravza-ı	Ruhafzāda	ne nazārat
va ul gulshan-ı	Dilāsāda	ne nazāhatdur-kim

ravza // gulshan biri arab, ikkinchisi fors tilida bog‘ ma’nosini anglatuvchi sinonim so‘zlar

ruhafzo // diloso – ruhlantiruvchi, ko‘ngilga yoquvchi

nazorat // nazohat – tarovat, poklik

Ālam ma'mūrasīda bašar jinsīdīn āsār va insān nav'idīn namudār qalmaydur erdi.

'Ālam ma'mūrasīda	bašar	jinsīdīn	āsār	qalmaydur erdi
	insān	nav'idīn	namudār	

bashar // inson – odam

jins // nav' – tur

osor // namudor – namuna

Čun 'arabī tīl va maqāl bilā kalām va hindī alfāz bilā muzahrafāt-ı nāfarjām, biri ġāyat-ı šaraf va 'uluvv-ı manzaladīn va biri nihāyat-ı nahūsāt va dunuvv-ı martabadīn aradīn čiqtilar.

	arabiy	til va maqol	bila kalom	
Chun	hindi	alfoz	bila nofarjom	muzahrafati

biri g'oyati Sharaf	uluvvi manzaladin	oradin chiqtilar
biri nihoyati nahusat	dunuvvi martabadin	

So'zlar ma'nosiga izoh: *maqol* – so‘z; nutq, *kalom* – gap, so‘z, *alfoz* – so‘z; til, *muzahrafot* – behuda, soxta, *nofarjom* – befoyda, natijasiz, *nahusat* – badbaxtlik, *uluvv* – balandlik, yuqorilik, *dunuvv* – pastlik, tubanlik.

arabiy // hindi

til va maqol // alfoz: parallelizatsiya bu qismida alfoz so‘zi ham til so‘ziga, ham maqol so‘ziga ma‘nodosh bo‘lib kelgan

kalom // muzahrafoti nofarjom (behuda/soxta)

g'oyati sharaf // nihoyati nahusat; nahusat – badbaxtlik, g'oyat va nihoyat so‘zlari sinonim, sharaf va nahusat esa antonim

uluvvi manzala // dunuvvi martaba, dunuvv va uluvv so‘zlari yuqorilik va pastlikni bildiruvchi antonim so‘zlar, martaba va manzala esa o‘rinni bildiradi.

Bunday misollarni nafaqat “Muhokamat ul-lug’atayn”da, Navoiyning boshqa asarlarida ham ko‘plab uchratish mumkin. Lekin, e’tiborli jihati – asar ilmiy bo‘lishiga qaramay unda mana shunday uslublardan foydalanilganidir. Buni esa, Navoiy turkiy tilning imkoniyatlarini dalillar orqali keltiribgina qolmay, ularni shu asarning o‘zida amalda ham ko‘rsatib bergan, deya talqin qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Муҳоқамат ул-луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами. 16 том. – Тошкент: Фан, 1992.
2. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Т.: Фан, 1978.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. Тошкент: Фан, 1983.

MUHOKAMAT UL-LUG'ATAYNDAN AYRIM MAJOZLAR TAHLILI

Zulayxo KARAMATULLAYEVA

TDSHU talabasi

Majoz – bu soʻzning oʻzining lugʻaviy maʼnosida emas, boshqa maʼnoda, lekin shu soʻz bilan bogʻlanadigan oʻxshashlik, aloqadorlik asosida qoʻllanishi demakdir. Majozda ikki tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi. Maʼnaviy qadriyatlar (haqiqat, muhabbat, vijdon, imon kabi)ni anglatuvchi umumiy tushunchalar bilan birga maʼlum tipik hodisalar, harakterlar, mifologik personajlar, hatto aniq shaxslar ham Majoz oʻrnida kelishi mumkin. Majozning obrazli-predmetli va maʼnoli kabi ikki tomoni mavjud boʻlib, maʼnoli tomon birlamchi, obrazli-predmetlisi ikkilamchidir. Chunki obrazda hamisha oldindan maʼlum boʻlgan fikr qayd etiladi. Shu tufayli majoziy obraz, oddiy badiiy obrazdan farqli ravishda, maxsus sharhni talab qiladi.

Majoz – lugʻaviy asosda haqiqat boʻlmagan, ammo bir munosabat (allegoriya) bilan ishlatilgan maʼno. Majoz nutq sanʼati (balogʻat)da muhim oʻrin tutadi, koʻpincha adabiy matnlar, sheʼriyatda mohir shoirlar-u mutafakkirlar asarlarida uchraydi. Ayniqsa, Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil ijodida majoziy va ramziy obrazlar mavjud boʻlib, ularning keng miqyosli mazmuni predmet obrazga sigʻmaydi. Koʻpmaʼnolilik va falsafiy teranlikka, umumbashariy gʻoyalar va masalalarga boylik hamda badiiy yuksaklik koʻplab mashhur asarlarda ana shunday majoziy obrazlar vositasida erishilgan.

Soʻz yoki iboraning oʻz maʼnosidan boshqa, koʻchma maʼnoda ishlatilishi va shunday maʼnoda ishlatilgan soʻz, ibora; metafora; allegoriya. Demak, lugʻaviy maʼnosiga koʻra metafora Sharqda qoʻllangan majoz — koʻchim iborasiga mos keladi.

Metaforalar quyidagi sarlavhalar ostida baholanadi:

I. Metaforalarning umumiy koʻrinishi Metaforadagi izchillik: Metaforalarda ijobiy nuqtai nazar, metaforalarda salbiy nuqtai nazar;

II. Tushuncha turlari nuqtai nazaridan metafora Ontologik metafora: borliq va materiya metaforalari:

1. Manbani jonsiz mavjudot va substansiyalardan oladigan metaforalar
2. Manbani materiyaning shakl xususiyatidan oladigan metaforalar
3. Manbani moddaning rang xususiyatidan oladigan metaforalar materiyaning bog'lovchi xususiyati
4. O'z manbasini hayvonlardan olgan metafora
5. O'simliklardan manba olgan metaforalar: odamdan jonsiz narsalarga o'tish.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridagi ayrim majozlarni tahlilga tortamiz:

1. Takallum ahli xirmonining *xo'shachini* va so'z durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalib nag'ma saroyi

So'z ahli xirmoninng terimchisi va so'z qimmatbaho gavhari xazinasining g'aznaboni (poyloqchisi) va nazm gulistonining sayroqi bulbuli

2. Alloh, Alloh ul ravza-i ruhafzoda ne nazorat va ul gulshan-i dilosoda ne nazohatdur-kim, aning bog'boni " Va anzalnā min al-mu'sirāti māan sajjājan linuxrija bihi habban va nabātan va jannātin alfāfa" karimasi bila takallum qilur va andalib xush navosi nubuvvat bayoni bila va risolat nag'ma(yu) alhoni bila surud ko'rguzur.

Ravza	Ruhafzo	Nazohat	Diloso	nazohat	Karima
Bog'	ruhni yayratuvchi	Tarovat	Dilkash	poklik, soflik	oyati karima
takallum qilmoq	Andalib	Nubuvvat	Nag'ma	alhon	surud
gapirmoq, so'zlashmoq	Bulbul	payg'ambarlik	ohang, navo	kuy, ohang	qo'shiq, ashula

Alloh-Alloh, u ruhni yayratuvchi bog'da shunchalar tarovat va u dilkash gulshanda bunchalar pokizalik borki, uning bog'boni "Yana Biz siqib chiqaruvchi

(bulut)lardan duv-duv suv (yomg'ir) yog'dirdik. Toki u sababli don va nabotot (undirib) chiqarurmiz" oyati karimasi bilan so'zlaydi va sayroqi bulbuli nabiylilik bayoni va payg'ambarlik nag'ma-yu sozi bilan qo'shiq aytadi.

Ushbu jumlada bog', bog'bon, bulbul so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan. Bog' so'zi orqali dunyo ifodalangan, bog'bon so'zida esa uning yaratuvchisi va egasi, ya'ni Alloh nazarda tutilgan, bulbuldan murod esa payg'ambar.

3. Mazkur bolgon tuyuridin bazi "Lav kashifal-g'itoa mo izdadat yaqinan" adosi bila tarannum nihoyatiga yetar va soyir qushlari va valoyat izhori va hidayat asoridin navoe irshodoyin va sadoe rashodtalqin izhor etar.

Payg'ambarlik nag'ma-yu sozi bilan qo'shiq aytadi. Mazkur bo'lgan qushlaridan ba'zisi «Pardani ko'tarmaganda haqiqiy ilm oshmagan bo'lardi» mazmuni bilan tarannum nihoyatiga yetar va boshqa qushlari valiylik izhori va to'g'ri yo'l ko'rsatish nishonasidan irshod navosi va hidoyat talqinini izhor etar.

4. ...ul kalog'polarni ul savod ahlidin o'zga birav o'qumas va fahm qilmas.

Kalog'po	savod ahli	fahm qilmoq
qush oyog'i	O'qish, yozishni bilguvchilar	Tushunmoq

1. Kalog'po' so'zi lug'aviy jihatdan "qush oyog'i" degan ma'noni anglatadi. Bu jumlada esa u asl ma'noda emas, balki majoziy ma'noda qo'llanilgan. Qush oyoqlari, ularning izlari birin-ketin bosilib ketgan, ularni tushunish, ajratib olish oson emas. Ya'ni, yozuvlar shunchalik chalkash va tushunarsizki, ularni faqat yozgan kishi o'zi tushunadi, boshqalar esa o'qib ham, anglab ham yetolmaydi.

5. Ishim tog' uzra har yon ashk selobini surmakdur.

Firoq oshubidin har dam bulut yanglig' o'kurmakdur.

Ashk	selob	Surmak	Firoq	oshub	Okurmak
Ko'zyosh	toshqin,	yuritmoq	Ayriliq	tashvish,	baqirmoq,
	sel suvi			g'avg'o	dodlamoq

Bu jumlada yig'lamoq so'zi ashk selobini surmoq (ko'zyosh toshqinini yurgizmoq), bulut kabi o'kirmoq (baqirmoq) iboralari vositasida aks ettirilgan.

6. Mutakallimeki, arab fusahosi balogat gulbongin sipehr gulshanidin oshurgonda aning bulbul nutqi “ana afsahu” tarannumi bila alarni zabonbast va davolari ovozasin yerga past qildi.

Muhammad alayhissalom shunday notiqdirki, arab suxandonlari nutq fasohatini osmon gulshanidan yuksaltirganda, uning nutqi bulbuli «men eng fasih so‘zlayman» tarannumi bilan ular og‘zini bog‘lab qo‘ydi va da‘volari ovozasini yerga past qildi.

Bulbul nutqidan murod Muhammad alayhissalomning go‘zal kalima-i so‘zlaridir.

7. Barchasidin arab tili fasohatoyini bila mumtoz va balogat taz’yini bila mojizatirozdurkim, hech takallum ahlining munda davosi yoqdur va sozi sidq va ishi taslim – oqdurkim, Malikun allomun jalla va alo'ning kalomi mo‘jiz nizomi ul til bila nozil va Rasul alayhis-salavotu va sallamning ahodisi saodat anjomi ul lafz bila vorid bolubdur.

Tillarning barchasidan arab tili fasohat yo‘cini bilan mumtoz va badiiyat ziynati bilan mo‘jiza jilvalantiruvchidirkim, hech bir suxandon ahlining bu masalada da‘vosi yo‘qdir va so‘zi ushbu haqi qatni tasdiqlash va ishi ma‘qullashginadir. Negaki qudratli va ulug‘ butun borliq sohibi – Allohning mo‘jizalar taratuvchi kalomi – Qur’on shu til bilan ko‘kdan indi va rasuli (unga salavot-u salomlar bo‘lsin) ning baxt yog‘diruvchi hadislari ushbu tilda ifoda etilgandir.

8. Va avliyo-yi kibor va mashoyikhi oliy miqdor qaddasa-Allohu asrorahum koprak haqoyiq va maorifkim surubturlar va maoniy zebolarin taqrir libosiga kiyurubdurlar.

Notanish bo‘lgan so‘zlar bilan tanishib chiqamiz

Kibor	qaddasa	Koprak	Taqrir	Asrorahum	Haqoyiq
Ulug‘	muqaddas qilsin	Ko‘proq	Bayon qilish, so‘zlash	Sirlarini	Haqiqatlar

Ulug‘ avliyolar va oliy darajali mashoyixlar (sirlarini Alloh muqaddas qilsin) ko‘proq kashf etgan haqiqatlar va Alloh taolo xususidagi bilimlarini va ma‘no go‘zallarini talqin(bayon) libosiga kiydirgandirlarki

Libos so‘ziga e’tibor qaratsak, asl ma’nosi ust-bosh, kiyim-kechakni ifodalaydi. Masalan: Azizaning qizil libosi unga juda yarashadi. Ammo hech bayon qilish, so‘zlash kabi mavhum tushunchalarning libos kiyganiga guvoh bo‘lganmisiz?!

Ulug‘ mashoyixlar va avliyolar kashf etgan haqiqatlar va Alloh xususidagi ilmlarini va ma‘noning eng saralarini bayon libosiga kiygizganlar. Bu gapda libos so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan, xuddi o‘lchov va andozalar asosida tikilgan libos kabi shunchalar ajoyib va mukammal bayon qilingan. Libos bu inson ko‘rki, o‘ziga munosib, har bir detallari kishining o‘lchovidan kelib chiqadi va ungagina munosib turadi, bayon qilishda ham shunday me‘yorlarga e’tibor qaratilganki, har bir so‘zlanayotgan narsa uning o‘z me‘yori, va faqat o‘shangagina munosib keluvchi ibora va gaplar bilan mukammal bayon qilingan.

9. Andoqki, tuyur va bahoyim va siboning tillarikim, har birining o‘zgacha xurush-u takallumlari bor va g‘ayri muqarrar navo-yu tarannumlari.

Qushlar, hayvonlar va yirtqichlarning tillariga kelsak, xuddi har birining o‘zgacha tovush-u ovoz ifodalari va o‘zgalarida takrorlanmaydigan navo-yu tarannumlari bo‘lganidek

10. Ki to bolgay jahon bog‘i bu gulshan mevazor olsun,
Harimida bu bulbullarg‘a bu dilbong bor olsun.

Lug‘atlar

Harimi

To bo‘lg‘ay

Dilbong

Huzurida

Toki shunday bo‘lsin

Ovoz, sado

Jahon bog‘i bo‘lgan bu gulshan mevazor bo‘lsin, uning huzurida bu bulbullarga bu ko‘ngil madhi bor bo‘lsin.

Ushbu baytda majozni ilg‘ab olish oson emas, sababi so‘zlar o‘z ma’nosida tushunilsa ham noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni bu bog‘imiz gulshan bo‘lsin va gulshan bulbullari ko‘ngil sadolarini kuylasin. Biroq Alisher Navoiy shunday yuksak mahorat bilan ifodalaganki, bu baytdagi “jahon gulshani”dan murod podshoh, davlat bo‘lsa, bulbul orqali shoir, mutafakkirlar iroda qilingan, ularning kuylari esa ko‘ngilga yoquvchi xush asarlaridir.

11. Va Yofas o‘glonniki, Abut-turkdur, tarix ahli ittifoqi bila debdurlarki, nubuvvat toji bilan sarafroz va risolat mansabi bila qardoshlaridin mumtoz bo‘ldi.

Abut-	tarix ahli	ittifoq bila	Nubuvvat	sarafroz	Risolat	Mumtoz
turk						

Turklar	Tarixchilar	birlashib,	Payg‘ambarlik	yuksak,	Payg‘am	sarbaland,
otasi		birovovdan		baland	barlik	saralangan,
						imtiyozli

Toj so‘zi hukmronlik, podshohlik ramzi sanaladi. Payg‘ambarlarga toj kiyish xos emas, biroq bu jumlada payg‘ambarlikning ulug‘ martabasini bayon qilish maqsadida nubuvvat toji deya keltirilgan

12. Bori har taqdir bilaki bor, bovujud turk alfozining forsiyga muncha maziyyati va nafs amrda muncha diqqati va vus‘ati nazm tariqida shoyi’ emas erdi va kitmon nihon xonasig‘a tushub erdi, balki matruk bo‘lurg‘a yovushub erdi.

Alfoz	Maziyyat	vus‘at	shoyi’	Diqqat
So‘zlar, til	Ortiqlik	Kenglik	yoyilgan	Aniqlik, noziklik

kitmon	Nihon	Matruk	Yovushmoq
yashirin, pinhon	Maxfiy	tark qilingan	yaqinlashmoq

Harqanday bo'lsa bo'lsin, har holda turk tilining forsiyga qaraganda bu qadar ortiqqligi va haqiqatda muncha noziklik va kengligi she'r sohasida yoyilmagan va berk, yashirin uyiga tushib qolgan edi, balki tashlandiqlik holiga yaqinlashgan edi.

Diqqat va vus'at so'zlari orqali tilning nozikligi, aniqligi va imkoniyatlari kengligi tasvirlangan. Tilning she'riyat va adabiyotda foydalanilmaganligi uning yashirin uyga tushib qolish, balki tashlandiq holatga kelish deb ifodalangan.

Xulosa: Navoiy she'riyatining o'zagi – mahurat bilan ishlangan so'z. Navoiy so'zning shakli, majoz va istiora kabi badiiy vositalarni ajoyib darajada uyg'unlashtirgan. Alisher Navoiy o'zlari "So'zning kuchi benihoya ulug', "kalomi faseh" (go'zal so'z) o'lganni ham tiriltira olishi mumkin." Ta'rif etganlari kabi o'sha go'zal so'zga chechanligi bilan olam ahlini mast-u sarxush eta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-balag'ot al-arabiyya Doktor Ali Jum'a
2. Alisher Navoiy izohli lug'atlari
3. Edebiyatining metaforik guch
4. Sodiqov Q.Eski o'zbek yozma adabiy tili .
5. Muhokamat ul lug'atayn 2017
6. Wikipediya va Ziyo.uz saytlari

NAVOIY ASARLARI TILINING GAP QURILISHI VA ARABIY SINTAKSIS QIYOSI

Jamila XUSANOVA

TDSHU talabasi

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o'zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma'naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g'oyalari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan so'z san'atkoridir. Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go'zal insoniy fazilatlarini bilan barchaga o'rnak bo'lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi barcha siyosat-u rayosatlardan ustun kelib, Vaqt atalmish oliy hakamni ham o'z izmiga bo'ysundirganligi, dunyodagi eng oliy mo'jiza – So'z qudrati va uning go'zal o'zbekona ifodasi sifatida umumbashariyat mulkiga aylanganligi rad etib bo'lmas haqiqatlardan hisoblanadi.¹⁵¹ Shu bois, ma'naviyatning umrboqiy sarchashmalariga doimiy ehtiyoj sezadigan bashariyat farzandlari bugungi kunda ham Navoiyning o'lmas satrlarida tajassum topgan hayotiy hikmatlardan ko'proq bahramand bo'lishga harakat qiladi. Bu muazzam ijodni o'rganish, tadqiq va talqin etish Navoiyning hayotligi davrlaridayoq boshlangan bo'lib, o'tgan besh asr davomida so'z san'ati bilan shug'ullanadigan ko'plab olim va ijodkorlar turli shaklda Navoiy merosini o'qib-o'rganish va boshqalarni ham bahramand qilishga harakat qilganlar. Navoiy turkiy tilning rivojiga shoh asarlar yaratish bilangina hissa qo'shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Uning bu boradagi xizmatlaridan biri 1499 (hijriy 905)-yilda yaratilgan "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asaridir. Mazkur asarida Navoiy turkiy va forsiy (sort) tillarini bir-biriga qiyoslash asnosida, turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga ega ekanligini

¹⁵¹ Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс ва арабча сўзлар / Навоийга армуғон. - Т.: 1968.

isbotladi. Asar musulmon Sharqi adabiyoti an'analariga muvofiq Allohga hamd aytishdan boshlangan. Alisher Navoiy arab tilidagi hamddan so'ng turkiy tilda bir ruboiy keltirib, uning ilk baytidayoq so'z bilan olam yaratilganligini, arab tilining barcha tillardan ustun ekanligini ta'kidlaydi. Arab tili turkiy tillar, chunonchi, o'zbek tiliga kuchli ta'sir etgan tillardan biridir. Bu ta'sirning xususiyati va sabablari ayrim ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan.¹⁵² O'rta Osiyo xalqlari islom dini bilan birga arab yozuvini ham qabul qildilar. Arab tili esa mamalkatning ijtimoiy-madaniy hayotida asosiy o'rinni egalladi. Arab tili faqat islom dinini targ'ib qilish, islom falsafasi va aqidalariga doir g'oyalar, fikr va tushunchalarni ifodalash va diniy ibodat majburiyatlarini bajarish sohasidagina emas, balki davlat idora ishlarida, mamlakatning ilmiy-madaniy hayotida ham hukmron til sifatida qo'llanildi.¹⁵³ Navoiy asarlarida nafaqat arabiy so'zlarni balki tuzilishi jihatdan arabiy sintaksisning ta'siri yuqori ekanligini sezamiz. Ushbu baytning qurilishi bizga arab tilining ega bilan boshlanib, so'ng keyingi o'rinlarda egani ko'rsatish olmoshi bilan izohlanish holatini uchratamiz. Bu til qoidasiga ko'ra, ega bilan boshlangan jumlaning kesimi fe'liy jumla tarkib qilib kelish qoidasidir.

Zulfung g'ami ko'nglumni beling fikriga soldi,

Ko'rkim, ne taxayyulg'a soliptur ani savdo.¹⁵⁴

Shuningdek, arab tilida shartli ravishda nido harflarining tushib qolishi ammo grammatik jihati saqlanib qolishiga "hazfu harfi-nido" qoyidasi mavjud. Quyidagi baytda arab tilining aynan shut il qoidasiga duch kelamiz. Alisher Navoiy soqiynomasi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Soqiyo, tut qadahi shohona,

Qatrasi la'l, vale yakdona.¹⁵⁵

Alisher Navoiy asarlari leksikasini maxsus tadqiq etgan olim B.Bafoevning ta'kidlashicha, shoir asarlari tilidagi so'z boyligining taxminan 35-40 foizini arab

¹⁵² Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985.

¹⁵³ Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 93-95.

¹⁵⁴ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik. – Т.: "Tamaddun", 2018. –Б. 298.

¹⁵⁵ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik. – Т.: "Tamaddun", 2018. –Б. 321.

tilidan kirgan soʻz va soʻz shakllari tashkil qiladi.¹⁵⁶ Tilshunos Z.Hamidovning statistik hisobiga koʻra esa “Lison ut-tayr” asari leksikasida 40 foiz lugʻaviy birliklar arabiydir.¹⁵⁷ Asarlarda nafaqat lugʻaviy birliklar balki tilning murakkab qoidalarigacha mavjud. Ushbu baytning ilk misrasi arab tilining inkor harfini har bir soʻz bilan birga qoʻllab, keyingi oʻrinda avvalgi soʻzning zid maʼnosi beriladi va har ikki soʻzning ayni holati yoki ikki jarayon orasidagi holatni bayon qilish qoidasiga mos keladi. Bu qoida arab tilida “la inkor yuklamasi” bilan yozilib, bu “la muhmala” yaʼni “eʼtibordan xoli la” deb yuritiladi.

Ne tirigmen, ne oʻlug, ne sogʻ, ne bemormen,

Ayta olmankim, firoqingdin ne yangligʻ zormen.¹⁵⁸

Ushbu ikki misraning nihoyasi arab tilining sifat va sifatlanmish qoidasini uchratamiz. Bunga koʻra arab tilida avval sifatlanmish soʻngra sifat soʻzning jinsi, soni, holati va kelishigiga mos holatda kelishi lozim. Har toʻrt shartni ham baytdagi “kamol matlub” va “dardu hol matlub” soʻzlari tasdiqlamoqda.

Insongʻa erur kamol matlub,

Andin dagʻi dardu hol matlub.¹⁵⁹

Navoiyning nasriy asarlaridan tilining ancha soddaligi, jonli tilga yaqinligi bilan hatto hozirgi zamon oʻquvchisiga ham tushunarlidir. Alisher Navoiydan keyin yaratilgan nasriy asarlar va ayrim dostonlarda Eski oʻzbek tilining anʼanaviy meʼyorlaridan bir oz uzoqlashish, uni xalq tiliga yaqinlashtirish tamoyili kuzatiladi. Koʻplab sheʼriy asarlarda, gʻazallarda esa eski oʻzbek adabiy tili anʼanalari davom etadi.¹⁶⁰ XV asr oxiridan boshlab eski oʻzbek tilida eski uygʻur qoraxoniylar adabiy anʼalaridan uzoqlashish va zamonaviy oʻzbeklarning ajdodlari tili bilan yaqinlashish tendensiyasi kuzatildi. Bu vaqtga kelib, hozirgi oʻzbek tiliga oʻtish xususiyatlari adabiy tilning grammatik tizimida aks etdi. XIX asrning 2-

¹⁵⁶ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. -Тошкент: Фан, 1983. -Б. 157 .

¹⁵⁷ Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.—Ташкент: 1982.

¹⁵⁸ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik. – T.: “Tamaddun”, 2018. –B. 427.

¹⁵⁹ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik. – T.: “Tamaddun”, 2018. –B. 449.

¹⁶⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Eski_oʻzbek_tili

yarmiga kelib nasriy asarlarga emas, nazmiy asarlar ham jonli tilga yaqinlashadi. Ammo shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, Navoiyning nasriy asarlaridagi gap qurilishida ham arabiy sintaksisning ta'sirini uchratishimiz ham mumkin.

Chun ul biyik poyag'a sarafrozliq va ul oliy maqomda arjumandpardozliq dast berdi, manzile ko'ruildi, saho ahli himmatidin rafe'roq va bisote topildi, zako haydining xayolidin bade'roq.¹⁶¹

Yuqoridagi nasriy asarda fikr ikki narsa bir-biri bilan taqqoslash yo'li bilan izhor qilinmoqda. Bunda arab tilining taqqoslash sintaksis xususiyati ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, arab tilida avva fikr to'laqonli bayon qilinib so'ngra gap nihoyasida taqqoslanayotgan narsaning xususiyati ta'riflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фитрат. Тилимиз / Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 124-131.
2. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс ва арабча сўзлар / Навоийга армуғон. – Т.: 1968.
3. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985.
4. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 93-95.
5. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 157.
6. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.–Ташкент: 1982.
7. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik. – Т.: Tamaddun, 2018. – В. 427.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Eski_o'zbek_tili
9. www.ziyouz.com кутубхонаси/Алишер Навоий. Муншаот.

¹⁶¹ www.ziyouz.com кутубхонаси/Алишер Навоий Муншаот. Б. 2

AMIR TEMUR – NAVOIY QALAMIDAGI ISKANDAR

Shahzoda RAUFOVA

TDSHU talabasi

Alisher Navoiy tengsiz buyuk soʻz ustasi, mutafakkir. U Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi ahli ilmlarni oʻziga ustoz bilib, ularning adabiy ishlaridan ilhomlanib, yoshlik chogʻlaridanoq “Xamsa” yozishdek katta tajriba, salohiyat talab etadigan murakkab ishni amalga oshirishni niyat qilib oldi. Shu xususda “Xamsa”da “Saddi Iskandariy” dostonining kirish qismidan misralar keltiramiz:

Kichik erkanimdan boʻlub qoshima,

Ulugʻ muddao soldingiz boshima.

“Xamsa” soʻzi tarjimada “beshlik” boʻlib, beshta dostonni oʻz ichiga olgan toʻplam. Nizomiy oʻz “Xamsa”sini yaratishi uchun 30 yil vaqt ketgan. Navoiy Xamsa yaratish masʼuliyatini his qilib, ushbu baytni yozgan:

Emas oson bu maydon ichra yurmoq,

Nizomiy panjasigʻa panja urmoq.

Alisher Navoiy juda qisqa vaqtda “Xamsa” yozishni koʻngildan oʻtkazadi. Chunki Dehlaviy va Jomiy ham oʻz “Xamsa”larini qisqa muddatda yozib tugatishgan. Nizomiy 30 yil yozgan boʻlsa, Navoiy 2 yilda (Bitigaymen 30 yilin 30 oy) yozishga erishadi.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining yakunlovchi dostoni “Saddi Iskandariy”da Iskandarning olib borgan faoliyati, buyuk ishlari haqida bayon etiladi. Undagi badiiy talqinlar bilan kelgan voqealar aslida tarixiy boʻlishi ham mumkin. Doston bilan tanishar ekanmiz, voqealar koʻp jihatdan buyuk ajdodimiz boʻlgan Sohibqiron Amir Temurning hayoti, mamlakatlarga olib borgan yurishlarini eslatadi. Dostonda koʻp shaxs nomlari yunoniy boʻlsa-da, doston makedoniyalik sarkarda Aleksandr hayotiga bagʻishlanganga oʻxshamaydi. Ushbu maqolaning keyingi xatboshilarida dostonning Amir Temur hayoti va davri bilan oʻxshash oʻrinlarini keltiramiz.

Dostonning XI bobida Alisher Navoiy Eron shohlarini toʻrtta sulolaga boʻladi.

*Ko‘p ettim tavorix o‘qur sori mayl,
Hamonoki bor erdilar to‘rt xayl...*

*Bularniki sabt ayladim to‘rt qism,
Yeshit emdi borig‘a tarixu ism.*

*Burung‘ig‘a keldi laqab Peshdod,
Ikinchi emishlar Kayoniynihod.*

*Uchunchiga Ashkoniy o‘ldi laqab
Yana birga Sosoniy o‘ldi laqab.*

Xuddi shuningdek buyuk mo‘g‘ul xoni Chingizxon bosib olgan yerlarini o‘zining to‘rtta o‘g‘liga bo‘lib beradi. Ular Jo‘jixon, Chig‘atoy, O‘qtoyxon va Tuli bo‘lgan¹⁶². Ular o‘zlari uchun bo‘lib berilgan yerlarda hukmronlik qilib, o‘z sulolalarini tashkil etishadi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davomida ular bosib olgan yerlar boj to‘lab turishar, xalq ularning qo‘l ostida edi. Dostonda ham Faylaqus mamlakati Rum Eron hukmdori Doroga boj to‘lashardi. Faqatgina Iskandar Kayoniylar sulolasidan bo‘lgan Doro bilan kurashganidan so‘nggina boj to‘lovdan ozod etiladi. Bizga esa tarixdan ma‘lumki Amir Temur Jo‘jixon avlodidan bo‘lgan To‘xtamishxon bilan kurashadi.

Dostonda Iskandar tug‘ilgan vaqtni Naqumohis yulduzlar joylashuviga qarab juda hosiyatli, deb baholaydi. Kelajakda uning shon-shavkatli bo‘lishini, mamlakatlar zabt etishini bashorat qiladi.

*Boqib charxning borcha holotig‘a,
Kavokibning iqbolu ofotig‘a.*

*Ko‘rub mustaqimin, bilib roje‘in,
Yozib erdi mavludining tole‘in.*

Sohibqiron Amir Temurning tug‘ilgan sanasini ham tarixchilar hosiyatli sanab, uning jadiy (taka) burjida Mushtariy va Mirrix yulduzlarining (Yupiter va Mars) o‘ziga xos burchakda joylashgan vaqtda dunyoga kelganini yozib qoldirishgan. Bu

¹⁶² Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. — Тошкент: Чўлпон, 1994. — Б. 155.

vaqtda tug'ilgan inson saltanat egasi, podshoh bo'lishini bashorat qilishgan. "Sohibqiron" unvoni ham ayni shuning uchun berilgan. Mirrix va Mushtariy yulduzlar bir burjda uchrashgan vaqti saodatli lahza sanalib, bu lahza "qiron" deyilgan. Amir Temur ham ayni shu vaqt dunyoga kelishga musharraf bo'lgani uchun "Sohibqiron" unvoni berilgan¹⁶³.

Dostonda XIX bobda *"Iskandarning saltanat tojidan sarkashlik qilib, xilofat taxtidan oyoq tortqoni"* haqida bayon etiladi. Iskandar harchand hukmdor bo'lishni istamasligini aytsa ham, bu kengashda xaloyiq uning hukmdor bo'lishini tilab, yolvorishadi. Arastu uning boshiga toj kiydirib, Balinos bilan ikkovi Iskandarni taxtga o'tqazishadi:

*Olib tojni aylabon arjumand,
Aning boshidin ayladi sarbaland.
Ravon tutti aytib sano, bir qo'lin,
Balinosi dono yano bir qo'lin.*

Amir Temur hech qachon xon bo'lmagan. Uning olib borgan faoliyati uni xon darajasiga, saltanat egasi darajasiga yetkazgan. Amir Temur xon bo'lmasa-da, barcha boshqaruv uning qo'lida bo'lgan. Amir Temur xon sifatida Suyurg'atmishxonni taxtga ko'targan. Sababi Amir Temur bobokaloni Qochuvli bahodir va Suyurg'atmishxonning bobokaloni Qobilxon o'rtasida Tuminaxon tamg'asi bilan urilgan ahdnoma tuzilgan.¹⁶⁴Bunga ko'ra xonlik mansabi abadiy Qobilxon va uning avlodlariga bo'lishi, sipohsolorlik mansabi esa Qochuvli va uning avlodlariga bo'lishi belgilangan. Shunday ekan Amir Temur bu ahdnomani buzmagani va an'anaga ko'ra chingiziylardan bo'lgan xonni taxtga o'tqizgan. Lekin xon Amir Temurning buyrug'isiz hech qanday ishni amalga oshirolmagan, nomigagina xon bo'lgan. *"Iskandarning saltanat tojidan sarkashlik qilgani"* shundan. Amir Temur va Amir Husayn o'rtasida Balxda bo'lib o'tgan jangdan so'ng, Amir Husayn qo'lga olinib, qatl etiladi. Jangning ertasi kuni 1370-yil 10-aprelda bo'lib o'tgan qurultoyda Shayx Muhammad Bayon Sulduz, Kayxusrav Xuttaloni, Dovud Dug'lat, Husayn Bahodir,

¹⁶³ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma –S: 12

¹⁶⁴ Sharafiddin Ali Yazdiy. Amir Temur ajdodlari –S: 17

Sayyid Baraka va yana bir qancha beklar ishtirok etib, g'alaba bilan muborakbod etib, Amir Temurni shohlikka munosib ko'rishib, ahli bay'at qilishadi.

Dostonning XXVII bobida Iskandar o'zining Doroga nisbatan kam sonli qo'shini bilan jangga chiqadi. Jangdan bir kun avvalgi kechada Iskandar Doroning qo'shinini yengish haqida o'ylab chodiridan chiqib, tog'ga borganda, biri zaifhol, ikkinchisi baquvvat bo'lgan ikki bedananining o'zaro kurashayotganini ko'radi. Baquvvat bedananing yutishi ayon bo'lib turgan bir paytda, bir burgut uchib kelib, baquvvat bedanani olib ketadi. Buni ko'rgan Iskandar Haqdan madad umidida bo'ladi. Shu tunda Doroning ikki a'yoni uning zulmlaridan charchaganliklarini aytib, Iskandarga unga qasd qilishmoqchi ekanini bayon etishadi. Ertasi kuni jang borishini kuzatayotgan Doroning ortidan xiyonatkor a'yonlari kelib unga tig' sanchishadi. Iskandar esa u xoyinlarni tegishlicha jazolaydi:

Topib chunki Doro ishidan farog',

Tutub iki qotilni aylab so'rog'.

Ko'mub dor uchun iki sutun,

Ul ikkini osturdi andin nigun.

Bu dostondagi parchada ikkita belgi bor: kam sonli qo'shin bilan dushmandan ustun kelish va dushman hukmdoriga o'z a'yonlari tomonidan xiyonat. Amir Husayn Qarshi qal'asini himoya etish uchun o'n ikki ming otliq askar tayinlagan. Amir Temur o'zining ikki yuz qirq uch nafar askari bilan qal'ani dushmandan tortib oladi. To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda uning amirlari Amir Temurdan panoh tilab, arizalar, nomalar yozishgan. Bu bilan ular o'z humdorlarining tuz haqini unutishadi. Shu sababdan Amir Temur ularni la'natlab, "o'z sohibiga vafo qilmagach, menga qilarmidi", deydi.¹⁶⁵

Dostonning XXXV bobida Hindiston va Chin yurtlarini zabt etishni maqsad qilib chiqqan Iskandar qishni Qorabog'da o'tkazadi. Ilm ahllari bilan yig'inlar, sarkardalar bilan tadbirlar, ziyofatlar tuzadi. Yana Aras daryosi atroflariga, o'rmonlarlarga shikorga chiqib turadi.

Ki chun qildi qishloq azmiga shoh,

¹⁶⁵ Amir Temur. Temur tuzuklari –S: 57

Qarobog 'i Arronni oromgoh.

Farog 'at chog 'i sayr o 'lub peshasi,

Matofi Aras ro 'dining beshasi.

Amir Temur Dashti Qipchoqqa yurish oldidan qishni Arrondagi, ya'ni hozirgi Ozarbayjondagi Qorabog'da o'tkazadi. Samarqanddan Muhammad Sulton lashkari bilan keladi. Barcha amirlar, shahzodalar to'planishadi. Qish fasli orom-u osoyishda o'tadi.

Bir zamonlar Aras daryosidan ekinzorlarga suv yetkazish uchun ariq qazilgan. Lekin vaqt o'tib, bundan suv o'tmaydigan bo'lib qoladi. Xuddi dostonidagidek Amir Temur ushbu ariqni tozalattiradi.

Dostonidagi xuddi shu bobda Iskandarning Kashmirga borish yo'lida Xuroson va Movarounnahr tomonlardan o'tgani aytiladi. U Xurosondagi Hirot yerlari, Movarounnahrdagi Ko'hak – Zarafshon daryosining go'zalligidan zavqlanadi. Ko'hak daryosi yonida shahar ham barpo etib, Samarqand, deb ataydi:

Aning yonida shahr qildi bino,

Ki, o 'lturmasun anga gardi fano.

Skandar otodi Samarqand ani,

Samarqandi firdavsmonand ani.

Bilamizki, Samarqand Temuriylar saltanati poytaxti bo'lgan. Mo'g'ullar bosqini davrida Samarqand Chingizxon farmoniga binoan yoqib yuboriladi. Amir Temur Samarqand shahrini qayta barpo ettirib, dunyodagi eng go'zal, obod shaharlardan biri bo'lishi uchun ko'plab binolar, masjid, madrasalar bino qilgan. Samarqanddagi yangi qishloqlariga Damashq, Misr, Sultoniya, Bag'dod nomlarini beradi.

Iskandar Kashmir hukmdori Malluni bo'ysundirmoq uchun keladi.¹⁶⁶ Lekin shaharga kirish yo'li baland tog'lar orasidagi mustahkam qal'a bilan to'silgan bo'ladi. Qal'a mustahkam toshlardan, darvozalari temirdan bo'lib, buni qanday eplashni Iskandar safardosh ilm ahllaridan so'raydi. Ular Kashmir sehrgarlarining tilsimlari ilm

¹⁶⁶ Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy dostoni (Nazm) –S: 192

oldida hech arziyas narsa ekanini bildirib, yig'ilishib, ilmlarini ishga solib, qalay, simob, misdan sharday qurol tayyorlab, ichini turli moddalar bilan to'ldirishadi:

*Qilib mazj siymobu qal'iyu ro'y,
Namudor qildilar ul nav' go'y.
Mudavvar falakdek misoli aning,
Falakvash ichi dog'i holi aning.
Ichining xalosin malo qildilar,
Adovidin oni to'lo qildilar.
Murakkab necha nav' ashyo qilib,
Hamul huqqa ichra muhayyo qilib.
Iki suqba ichra fatila anga,
Qilib zohir ul tavr hiyla anga,
Kim ul go'yni xasm boshi kibi,
G'alat ayladim ra'd toshi kibi.
Fatilasig'a o'tni chust aylabon,
Qo'yub ra'd yoyig'a rust aylabon.*

Shunday qilib, olimlar o'zlari yasagan portlovchi moddani yo'lni to'sib turgan qal'aga qarata uloqtirishadi. Modda portlab, hindlarning mustahkam qal'asi barbod bo'ladi. Malluxon chekinib, shahar ichkarisidan o'zi qurdirgan qasriga qarab qochadi. Uning xazinachisi xazinadan qimmatli buyumlar olib qochayotganda, Iskandar amaldorlari tomonidan qo'lga tushib qoladi. Shunday qilib Kashmir eli egallanadi.

Amir Temur Hindistonga yurish qilgan davrda Tug'loqiylar sulolasi og'ir ichki inqirozlar girdobida edi. Feruzshoh vafot etib, taxt uchun kurash boshlangan edi. Feruzshohning nabirasi Sulton Mahmud taxtga o'tqizilib, amalda ikki amir – Sorang va Mallu hokimiyatni boshqarishardi.¹⁶⁷ 1398-yil 17-dekabrda Amir Temur lashkari va dushman qo'shini to'qnashadi. Dushman qo'shini 50 ming sipoh va otliq, 120 fildan iborat edi. Sulton Mahmud va Malluxon o'z qo'shinidagi fillar bilan vahima solishardi. Chunki urush oldidan fillar tajovuz holatga keltirilardi, natijada bunday fillar yo'lida uchragan narsani bosib, yakson qilib tashlashardi. Ana shu murakkab

¹⁶⁷ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma –S: 191

holatda Amir Temur o'z qo'shinidagi tuyalarni bir safga tizib, ularning ustiga yonuvchi moddalarni o'rnattiradi va tuyalarni dushman qo'shini tomon yo'naltiradi. Olov-alanga yaqinlashayotganini ko'rgan fillar ortga qarab yugurishadi. Buning natijasida dushman qo'shinlari o'z fillari ostida qolib ketishadi. Sulton Mahmud va Malluxon yengilib qochib ketishadi. Ertasi kuni Temur Dehli darvozasidan tantana bilan kirib keladi, g'alabani e'lon qilish uchun choparlar yuboriladi. Shu tarzda Hindistonning shimoliy hududlari egallanib, Temur saltanatiga kiritiladi.

Doston davomida shuni kuzatishimiz mumkinki, Iskandar ilm ahllaridan biri bo'lgan Arastuga o'z savollarini berib, javoblarini olib, ilmini boyitib beradi. Yana Filotun, Suqrot, Balinos, Hurmus, Buqrot kabi olimlar doim yo'ldosh bo'lishadi. Ularning maslahatlariga ko'ra ish tutishi dostonida ko'p bora beriladi. Amir Temur ham o'z saltanatini yuritishda ko'pincha pir-u murshidlarga murojaat etgani ma'lum. Jumladan Amir Temur Amir Husaynga qarshi jangga yurish qilganida, Termiz yaqinida Sayyid Baraka uning huzuriga tashrif buyuradi. Amir Temurga nog'ora va bayroq berib, uning kelajagini bashorat qiladi.¹⁶⁸ Amir Temur o'z atrofidagi din olimlarining duolariga musharraf bo'lgani haqida ma'lumotlar bor.

Dostonida XXIII bobda Iskandar egallagan mulklar nomma-nom beriladi. 35 yil davomida mamlakatni boshqargan Amir Temur Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan, dostonida sanab o'tilgan shaharlar tarkibga kirgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi.

Iroqi Ajam sori qilg'ach xirom
Navo topti ohangidin ul maqom.
Iroqi Arabg'a chu surdi samand,
Qudumidin o'ldi ul el bahramand...
Yana aylabon Fors fathig'a azm,
Muyassar bo'lub, aylamay kinu razm...
Chu mulk olg'ali da'bu xo' razm etib,
Tavajjuh bila fathi Xorazm etib

¹⁶⁸ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma –S: 64

*Chekib ra'yati mehri ishroqni,
Yoruq aylabon Dashti Qifchoqni...
Tushub Charkasu Gurja sori yo'li,
Bo'lub borchu gurjiyu charkas quli...
Chu ma'bar bo'lub Movarannahr anga,
Yasolib Samarqanddek shahr anga...
Yana Hind sori qilib turktoz,
Bo'lub Ked qulluq bila chorasoz...*

Dostonning XIX bobida Iskandar adolat qo'lini baland tutgani aytiladi. Amaldorlarning ishini tekshirib, yomonlarini haydaydi, tarozilar pallalarini to'g'irlatadi, o'lchov vaqtida kelib chiqadigan nizolarni bartaraf etadi, yo'lovchilarni xavf-xatardan saqlash uchun katta yo'llar orasiga soqchilar qo'yiladi. XXIII bobda yo'llar uzunligini o'lchatib, "yig'och" o'lchov birligini joriy etadi. Yo'lovchilar to'xtab, dam olishi uchun har bir bekatda karvonsaroylar qurdiradi:

*Adolat tariqini fosh ayladi,
Siyosat anga durbosh ayladi...
Chu qildi masohat masolik aro,
Yig'och etti ta'yin mamolik aro...
Manozilda tarhi rabot ayladi,
Ki, andin musofir nishon ayladi.*

Tarixdan biz Amir Temurning adolatga qat'iy qarashini bilamiz. "Rosti rusti" – "kuch adolatda" so'zlari uning uzugiga ham yozib qo'yilgandi. Adolat shunchalar barqaror ediki, biror kimsa mag'ribdan mashriqqacha boshida bir tovoq oltin yo kumush ko'tarib borsa, hech kim qo'l cho'zmas edi. Adolat mezonini buzgan inson qattiq jazolanardi, xoh begona bo'lsin, xoh o'z farzandlari. Bu to'g'rida Temurning o'z amirlariga qarata aytgan quyidagi so'zlarini Shomiy "Zafarnoma"sidan keltirish o'rinlidir: "Qaysi bir hukmdor o'z ishini adolatsizlik va bevafoqlik asosiga qursa, kishilarga jabr qilish va ularni qatl etishga oshiqsa, uning davlati chayqalib, beqarorlikka yuz tutadi". Yo'llar nazorati bo'yicha amalga oshirgan amallarini Tuzuklarda yozilgan ushbu jummalardan bilish mumkin: "Yo'llarga kuzatuvchi va

soqchilar qo‘ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlarki, yo‘llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo‘lsin. Yo‘lovchilar mollarini g‘aflat bosib, o‘g‘irlatib qo‘ymasliklarining vazifasi ham o‘shalarning zimmasida bo‘lsin”.¹⁶⁹ Amir Temur butun saltanat bo‘ylab bir kunlik yo‘l oralig‘idagi yomxonalar qurdirgan. Har bir yomda 50-200 bosh ot-ulov tutilgan. Bunday yo‘l masofalari yig‘och deyilgan.

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazi yaratilishida Amir Temur shaxsi g‘oyaviy ilhom manba sifatida olinishiga bir qancha tarixiy ma’lumotlar dalil bo‘ldi. Navoiy yashagan davr muhiti fikrimizni yanada asoslaydi. Albatta, Iskandar ramziy obraz, xolos. Asarda tarixiylik emas, badiiylik asosiy o‘rin tutadi. Shu jihatdan Iskandar obrazida adolatli shoh fikrlari ifoda etiladi. Lekin shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, biror obraz prototipini topish ijodkorning ixlosiga bog‘liq. Navoiy doston uchun adolatli shoh obrazini samoviy xayollaridan emas, haqiqiy hayotdan topadi va kuchli mafkuraviy vazifa yuklaydi. Bundan tashqari Navoiy ushbu dostonni yaratishda ko‘plab tarixiy adabiyotlarga murojaat etganini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Amir Temur ajdodlari. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992.
3. Гиясиддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. – Москва: Издательство Восточной Литературы, 1958.
4. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – Toshkent: Yozuvchi, 1995.
5. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991.
6. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
7. Pirimqul Qodirov. Amir Temur siymosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
8. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. – Москва: Наука, 1990.
9. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1994.
10. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1991.

¹⁶⁹ Amir Temur. Temur tuzuklari. –S: 99

MUNDARIJA

Shirin SODIQOVA. Xorijliklar uchun “O‘zbek tili” darslarida Alisher Navoiy ijodi bilan tanishtirish masalasi	3
Elmira HAZRATQULOVA. Hirot adabiy muhiti E.Bertels talqinida	8
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining Parij qo‘lyozmasi	15
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy suhbatdoshlari	42
Shahnoza TO‘LAGANOVA. Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari	56
Shamsiya ATOYEVA. “Majolis un-nafois” tazkirasining strukturasi	64
Nigora AMIROVA. Visual verbs in Alisher Navoiy’s literature: unvelling pragmatic function and cultural expression.....	72
Shohrux-Mirzo Jo‘rayev. Qushlar timsoli – poetik vosita sifatida (Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy misolida.....)	82
Aziza SHAKAROVA, Muqaddas MUZAFFAROVA. Alisher Navoiy – huqushunos.....	85
O‘g‘iloy NE‘MATOVA. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi.....	91
Malika ShUKRULLAYEVA. “Qutadg‘u bilig” asaridagi muqaddima qismi tavsifi....	102
Sayyidmahmudxon PARPIYEV. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida shohlar bayoni.....	106
Nozima G‘AYBULLAYEVA. “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridagi hamd va na’t g‘azallarda istiora.....	110
Ibrohim MAJIDOV. Navoiy asarlarida takror asosidagi badiiy san’atlar	114
Habiba XUSNIDDINOVA. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarida ta’dil san’ati..	119
Aziza HUSNUTDINOVA. Navoiy asarlarida istioraning qo‘llanilishi	124
Umida BAHRONOVA. Navoiyning “Vahki ishqing zohir etsam...” g‘azali tahlili..	130
Dinara BEKMUROTOVA. Navoiy asarlarida talmeh san’ati.....	135
Mahsuma RAHMONJONOVA. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ritmik-sintaktik parallelizmlar.....	140
Zulayho KARAMATILLAYEVA. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ayrim majozlar tahlili.....	146
Jamila HUSANOVA. Navoiy asarlari tilining gap qurilishi va arabiy sintaksis qiyosi.....	153
Shahzoda RAUFOVA. Amir Temur —. Navoiy qalamidagi Iskandar.....	157

*“Yosh navoiyshunoslar”: maqolalar to‘plami. Mas’ul muharrir G.Rixsiyeva, -
Toshkent: TDSHU, 2026. – 167 b.*

Mas’ul muharrir:

Gulchehra Rixsiyeva, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay’ati:

To‘xliyev Boqijon, filologiya fanlari doktori, professor
Qudratulla Omonov, filologiya fanlari doktori, professor
Rixsitilla Alimuxamedov, filologiya fanlari doktori, dotsent
Maryam Ishmuhamedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Oysara Madaliyeva, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, katta ilmiy xodim
Shirin Sodiqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Qosimjon Sodiqov, filologiya fanlari doktori, professor
Aftondil Erkinov, filologiya fanlari doktori, professor

Nashrga tayyorlovchilar:

Oysara Madaliyeva, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, katta ilmiy xodim
Shahnoza To‘laganova, filologiya fanlari bo‘yicha PhD